

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKUL'TET

TARIX KAFEDRASI

QADIMGI DUNYO TARIXIDAN MA'RUZA MATNLARI

Kafedra mudiri:

K.J.Rahmonov

Buxoro -2015

Mavzu №1
Kadimgi dunyo tarixiga kirish. Kadimgi Misr.
Reja:

1. Kirish.
2. Yozma manbalar.
3. Kadimgi Misr manbalari.

Tayanch atamalar.

Antik dunyo, Tavrot, Gerodot, Beros, Grotefend, Bexistun, Nineviya, Suza, Vinkler, Kramer, Stredve, Mixxat.

Adabiyotlar.

1. D. G. Reder, E. A. Cherkasova. Kadimgi dunyo tarixi. I kism. Toshkent, 1974 yil.
2. Gerodot. Istoriya. M –l, 1972 yil.
3. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
4. F. Boynazarov. Kadimgi davr tarixi. Jizzax, 2002 yil.
5. V.I.Avdiev. Kadimgi Shark tarixi. Toshkent, 1964 yil

Kadimgi dunyo tarixi insoniyat xayotidagi miloddan avvalgi IV ming yillik –er yuzida ilk sinfiy jamiyat va davlatlar paydo bulishidan, milodiy V asr – Garbiy Rim saltanatining kulashigacha bulgan davrni uz ichiga oladi. Yoki shu zamon KULDORLIK DAVRI xam deb ataladi.

Ibtidoiy zamonning sungida paydo bulgan ishlab chikaruvchi xujalik tarmoklari – dexkonchilik, chorvachilik va xunarmandchilik odamlarni ozik – ovkat va boshka iste'mol mollari bilan anchagina ta'minlash imkonini berdi. Er yuzining iklimi issik, sersuv daryolari bulgan joylarda bu xujalik tarmoklari rivojlanib, ortikcha maxsulot paydo bulib, ilk davlat uyushmalarini yuzaga kelish shart – sharoitini xosil kildi.

Mazkur fan doirasida kadimgi davlatlarning yuzaga kelish shart – sharoitlari, davlatlarning uziga xos xususiyatlari, siyosiy tuzumi, xujaligi va madaniyati singari tomonlari urganiladi.

Kadimgi dunyo tarixi fanida er yuzi ilk sinfiy jamiyatlar va davlatlar paydo bulgan shark dunyosi, kadimgi davlatchilik tarakkiy kilib uzining antik boskichiga chikkan Yunon va Rim davlatlari tarixi urganiladi. Kadimgi Shark va Garb dunyosi tarakkiyotining eng asosiy tomonlari – ishlab chikarish munosabatlar, kulchilik jamoalarining roli masalalari kiyosiy taxlil kilib urganiladi. Kadimgi Shark dunyosining bir kismi bulgan Turonzaminda paydo bulgan ilk davlatchilik namunalaridan kiyosiy foydalaniladi.

Bu fan jaxon tarixi fanida salmokli urinda turib, uning ma'lumotlari insoniyat tarixining keyingi boskichlarida atroflicha tushunib olish uchun asos vazifasini utaydi.

Kadimgi dunyo tarixini urganish uchun yozma va moddiy – ashyoviy yodgorliklar asosiy manbalardir. Sinfiy jamiyat va davlatlarning yuzaga kelishi bilan xar bir davlatning uzining yozuvi va yozma yodgorliklari yaratilgan. Bularga kadimgi Misr va Mesopotamiya yozma yodgorliklari Xamuratt, Urta Ossur va Xett konunlari, «Iliada» va «Odissey» dostonlari, «Ramayana», «Maxobxorat», «Shoxnoma» singari durdona asarlar kiradi.

Kadimgi Yunon va Rim mualliflari tomonidan yaratilgan kator asarlarni tankidiy urganish natijasida kimmatli ma'lumotlarga ega bulishi mumkin. Jumladan, Gerodot

«Tarix»i, Diodorning «Tarixiy kutubxona», Fukidid, Strabon, Lukreniy singari olimlarning asarlari shunday kimmatli manbalardir.

XVIII oxiridan Kadimgi Sharkda va dunyoning boshka xududlarida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida kadimgi shaxarlar, kurgonlar, xujalik xayotiga, boshka moddiy va ma'naviy xayotga oid topilgan ashyoviy dalillar yozma yodgorliklar ma'lumotlarida uchramaydigan tomonlarini tushunib olish va tuldirish imkonini berdi.

Kadimgi Misr davlati Afrikaning shimoli – sharkida joylashgan edi. Nil dunyodagi eng katta daryolarning biri bulib, Markaziy Afrikadagi katta kullardan okib keladi. U janubdai shimolga okib, turt sharshara—ostonalardan utgach, 700 km gacha masofada chukur vodiyan okib, Urta er dengiziga kuyiladigan joyda tarmoklarga bulinib, delta xosil kiladi. Nil voxasining kengligi 1 bilan 20 km oraligida bulib, kuyi delta kismida esa ancha kengayib boradi. Vodiyning shark tomonida—Nil daryosi bilan Kizil dengiz oraligida Arab kirlari, garb tomonida esa Liviya yassitogliklari joylashgan. Mamlakatning shimoli Urta er dengizi, janubi esa Nubiya toglari bilan uralgan. Misrliklar uz vatanlarini "Kora tuprok" deb ataganlar. Yunonlar esa bu mamlakatni "Egipet" deb nomlaganlar. Bu mamlakat kadimgi poytaxti Memfisning Xekau Ptax deb, ya'ni "Ptax (xudo) ruxining kal'asi" degan nomining buzib aytilishidir.

Nil daryosining sersuv va serunum loyka okizib kelishidan xosil bulgan vodiya yashagan axoli miloddan avvalgi VI – V chikaruvchi xujalik tarmoklarini yuzaga keltirib, dastlabki kishloklarni paydo kilgan.

Miloddan avvalgi VI—V ming yilliklarda Misrda dastlabki davlatlarning paydo bulipsh uchun zaruriy sharoit vujudga keladi. Urugdoshlik tuzumi davrida urug jamoalarini urug oksokollari, sardorlari va xarbiy kishilar boshkarganlar. Misrda urugdoshlik tuzumi urnida yangi jamiyat paydo bulayotgan ekan, bu jamiyatni boshkaradigan tashkilot zarur edi. Bu tashkilot — kuldorlik davlati edi. Urug jamoasining oksokollari, sardorlari va xarbiy kishilari bu davlat tashkilotini boshkara boshlaydilar.

Kadimgi Misr sharoitida Nil kabi buyuk daryolarni jilovlash va yangi erlarni uzlashtirish kupchilik bilan kilnadigan ishlar edi. Kanal va suv inshotlarini kurishni boshkarish, dexkonchilik va chorvachilik ishini yulga kuyish davlat zimmasidagi vazifa bulgan. Urug va kabilalararo ishlarni tartibga solish, jamoani, mamlakatni kushni kabilalar xujumidan ximoya kilish xam davlat tomonidan amalga oshirilgan. Boshka joylardagi kabi Misrda xam davlat asta-sekinlik bilan vujudga kelgan va rivojlana borgan.

Dastlab Misrda bir necha davlatchalar tashkil topgan. Misrliklar bu davlatchalarni "senat", yunonlar esa "nom" deb ataganlar. Bu nomlarning xar biri atrofida kishloklari, dalalari va maxsus maxalliy xudosi bor shaxardan iborat bulgan. xar bir nomning uz xokimi bulib, u yunon tilida "nomarx" deyilgan. Ma'lumotlarga karaganda, miloddan avvalgi IV ming yillik boshlarida Misrda 42 ta davlatcha bulgan. Xar bir nomning nomarxi dexkonchilik, chorvachilik, ayniksa sugorish ishlarini, shuningdek, xarbiy va diniy ishlarni boshkargan. Ularda kulchilikning daslabki kurtaklari paydo bulgan.

Misrda ilk podshochilik miloddan avvalgi 3100 – 2800 etgan. Usha davrdash tarixiy zaruriyat bu davlatchalarni birlashtirishni takozo etgan. Kup kurashlardan keyin Nilning tor vodiysida Yukori Misr va shimoldagi deltada Kuyi Misr davlati tashkil topuan. Ularning xar birida uz podshosi bulgan. Keyinchalik Misrda yagona davlat, yagona podsholik barpo etish uchun kurash kizgin tus olgan. Yilnomalarda aytilishicha, Janubiy

Misr podshosi Narmer Shimoliy Misrga bostirib kirib, galaba kozongan va 6000 kishini asirga olgan. Shu tarika Misrda yagona davlat tuzish uchun kurash boshlangan.

Misrni yagona davlat bayrog'i ostida birlashtirish Yukori Misr podshosi Mina (Menee) davriga tugri keladi. Mina xatto; janglardan sung miloddan avvalgi 3000 yilda Kuyi Misrni Yukori Misr podsholigiga kushib olgan. Shunday kilib, u birlashtirilgan dastlabki Misr davlatining podshosi bulgan va birinchi sulolaga asos solgan. Mina davrida Kuyi misrliklar bir necha bor kuzgolon kutarganlar. Birlashgan Misr davlatini mustaxkamlash maxsadida Mina Kuyi Misr chegarasida Memfis shaxrini kurgan va uni mamlakat poytaxtiga aylantirgan.

Kadimgi Misr tarixini atroflicha urganish XIX asrdan boshlanadi. Buning uchun Tavrotdagi ayrim ma'lumotlar Gerodot «Tarix»i, Plutarxning «Isida va Osiris» singari manbalar, yunon tilida Manefon tomonidan yozilgan «Misr tarixi» muxim tarixiy manba bulib xizmat kiladi. Manefon Misr tarixining xronologik jadvalini asosan tugri tuzgan. Miloddan avvalgi III asrning birinchi yarmida bu muallif birinchi marta Misr tarixini sulolalarga bulgan edi.

1822 yilda frannuz olimi F. Shampalon tomonidan Misr yozuvlarining ukib chikilishi katta tarixiy vokea buldi. Utkazilgan arxeologik tekshirishlar natijasida Kadimgi Misr podsholari daxmalarining ochilishi, 1922 yilda T. Xarter tomonidan avvalgi XIV asrga oid Tutanxamon kabrini topilishi muxim ma'lumotlar berdi.

Kadimgi Misr tarixida ilk podsholikdan xiyla mustaxkamrok bulgan, Kadimgi podsholik davri miloddan avvalgi 2280 – 2250 yillarni yoki 3 – 10 sulolalar davrini uz ichiga oladi.

Kadimgi Misr podsholari uz davlatlarini markazlashgan kuchli saltanatga aylantirish uchun tinimsiz xarakat kilganlar. Ular xam yangi erlarni kengaytirib, sun'iy tugon, kanal va suv omborlari kurilishiga juda katta axamiyat berganlar. Bu kurilishlarda yuz minglab kullar, jamoa dexkonlari va erkin kishilar mexnat kilganlar. Sugorish inshootlarini kurish va yangi sugoriladigan erlarni uzlashtirish kishlok xujaligining rivojlanishini ta'minlagan. Ayni paytda Nil voxasida chorvachilik xam tarakkiy etgan. Dexkonchilik va chorvachilik podsholik axolisini ozik-ovkat bilan ta'minlab turuvchi manba edi.

Bu davrda xunar va texnika soxasida xam katta siljishlar sodir bulgan. Misni, toshni kayta ishlash tarakkiy etib, kulolchilik rivojlangan. Misr xunarmandlari misdan ketmoncha, tesha va bogata xujalik asboblari yasaganlar. Xuddi shu davrda kulolchilik charxi kashf etilib, ajoyib kulolchilik idishlarini yasash tezlashgan.

Kadimgi podsholik davrida firavnlr va ayonlar toshdan uzlari uchun ulkan piramidalar — makbaralar, saroylar, ibodatxonalar va devorli istexkomlar kurdirishgan. Piramida — bu Kadimgi Misr fir'avnlarining makbaralari bulib, unga vafot etgan fir'avn dafn etilgan. Piramidalar misrlik fir'avnlar kuch-kuvvatining ramzi xam bulgan. Fir'avn Joser kurdirgan katta piramida zinali inshoot bulgan.

Piramidalar orasida eng kattasi va xashamatlisi Memfis yakinida 4-sulola fir'avni -Xufu (yunonlar uni Xeops deb ataganlar) kurdirgan piramidadir. Uning balandligi 150 metrga yakin bulib, xozirgi xolati 146 metrdir. Uni kurish uchun ikki million uch yuz mingdan ortik xarsang tosh ishlatilgan. Tosharning eng kichigi 2,5, kattasi esa 15 tonnadan ziyod bulgan. Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, bu piramida 30 yil

mobaynida kurilgan. Uning kurilishida yuz mingdan ortik kishi doimiy ishlagan. Piramida toshlari silliklanib, bir - biriga shunday zich kilib terilganki, ikki tosh oraligiga kilichning tigi kirmagan. Piramida kurilishida kullar sokchilar nazorati ostida ishlaganlar. Kurilish vaktida kullar, ishga jalb kilingan dexkonlar va xunarmandlarning kupchiligi ulib ketganlar. Misr fir'avnlari cheksiz xokimiyatga ega bulganlar. Fuxaro va xizmatchilar podsho oldida xozir bulganlarida erga korinlari bilan yopib ta'zim baxo keltirganlar. Podsho oyogi bosib utgan tuprokni upganlar. Nufuzli a'yonlar va amaldorlar esa podshoning oyogini upishga xakli edilar.

Kadimgi Misrda mamlakat fir'avnga karashli bulib, uning xukuki cheksiz edi. Er, mulk, chorva, konlarning katta kismi podshoga karashli bulgan. A'yonlar, podsho xizmatchilari va ibodatxona xodimlarining xam uz nufuziga muvofik er mulki, chorvasi, xunarmandchilik ustaxonasi bor edi. Mamlakatda erkin dexkonchilik kupchilikni tashkil etgan. Xususi xunarmand va savdogarlar xam kup bulgan. Fir'avn, a'yon, amaldorga ibodatxonaga tegishli nufuzli xodimlarning xizmatini kullar bajarganlar. Kullar er - mulk va boshka boyliklardan maxrum edi. Kadimgi podsholik davrida kullarning soni kup bulmagan. Ammo mamlakatda erkin kambagal kishilar kullarga karaganda kup edi. Erkin dexkonlar, xunarmandlar va savdogarlar podsholikka doimiy soliklar tulab, ba'zi majburiyatlarni bajarib turganlar. Ular piramida, tugon, kanal va ibodatxona kurilishlarida ishlab berganlar.

Demak, dexkonlar, xunarmandlar, savdogarlar va kullar mexnati butun kuldorlik jamiyatini ozik - ovkat, kiyim-bosh, uy-joy, ruzgor buyumlari bilan ta'minlab turuvchi manba edi. Fir'avn mamlakatni vazirlar, ayonlar, kozi - kalonlar va katta-kichik amaldorlarga tayanib boshkargan. Kushin podshoning asosiy tayanchi edi. Kadimgi Misrning davlat boshkaruv tashkilotlari uch boskichli—markaziy, viloyat va maxalliy davlat tashkilotlaridan iborat bulgan. Cheksiz xokimiyatga ega bulgan podsho davlatni shu tashkilotlar orkali boshkargan.

Kadimgi Misr podsholari mamlakatning ichkarisida juda katta nufuzga ega bulib olganlardan sung, tashki siyosatda xam faol xarakat boshlab yuborganlar. 4-sulola podshosi Snofru janubda Nubiyaga, shimoli-sharkda esa Sinay yarim oroli, Falastinga va garb tomonda Liviya kabilalari ustiga golibona xarbiy yurishlar kilgan. U misga boy Sinay yarim orolini Misrga kushib olgan. Nubiyaga kilingan xarbiy yurishdan Misrga 7 ming asir va 200 ming chorva xaydab kelingan. Fir'avn kushinlari Liviyadan xam katta uljalar bilan kaytganlar. 4-sulolaning dastlabki podsholari olib borgan tinimsiz urushlar, ulkan piramidalar kurish, podsho va a'yonlarning aysh - ishrati uchun bexuda sarf etilgan mablaglar mamlakatni ogir -axvolga olib kelgan. Bu Kadimgi Misr axolisining noroziligiga sabab bulgan. 4-sulolaning sunggi vakillari podsholik kilgan davrdan boshlab Misrda ichki karama - karshilik kuchaygan.

Mamlakatda birin-ketin kuzgolonlar boshlangan. 5-sulola podsholari axvolni yaxshilashga urinib kurgan va vaktinchalik muvaffakiyatlarga zrishgan. 6-sulola namoyandalari bu muvaffakiyatli mustaxkamlay olmaganlar. Bu davrda, yani XXIV—XXIII asrlarda a'yonlar va nomlarning ta'siri kuchayib borgan. Iktisodiy va siyosiy soxada xam markaziy xukumatning— fir'avnlarning mavkei pasayib ketgan. Mamlakat inkirozga yuz tutgan. 6-sulola podsholarining faoliyati tugashi bilan (miloddan avvalgi XXIII asr urtalari) Kadimgi Misr davlati parchalanib, nomlar mustakil bulish uchun intilganlar.

Mavzu №2
Kadimgi Misr madaniyati.
Reja:

1. Diniy tasavvurlar.
2. Ilmiy yutuklar.
3. San'atning rivojlanishi.

Tayanch atamalar.

Koxinlar, Osiris, RA, Amon, Set, Ishtar, Tammuz, Sinuxet, matematika, geografiya, Luksor, Xarnak, geometriya ustozlari, piramidalar, xaykaltaroshlik

Adabiyotlar.

1. V.I.Avdiev. Kadimgi Shark tarixi. Toshkent, 1964 yil
2. Istoriya drevnego mira. M, 1989
3. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
4. O. Samadov. Kadimgi dunyo tasviriy san'ati. Buxoro, 2004 y.

Miloddan avvalgi XI asrda Misrda sunggi podsholik davri boshlanadi. Bu davr Liviya-Sais davri xam deyiladi. Sunggi podsholik XI asrdan VI asrgacha davom etgan. Misrdagi parokandalikdan foydalangan yollanma ajnabiy liviya askarlari Misrda uz ta'sirlarini kuchaytirganlar. Ular misrliklarni xarbiy xizmatdan chetlashtirib davlatning yukori lavozimlarini egallab olganlar. Miloddan avvalgi 950 yilda liviyaliklardan biri Sheshonk I kulay vaziyatdan foydalanib xokimiyatni kulga olgan va 22-sulolaga asos solgan. Liviyaaliklar Misrda 950—730 yillarda xukmronlik kilganlar. Ular uz poytaxti kilib deltadagi Bubastis shaxrini tanlagan. Shuning uchun bu sulola bubastislar sulolasi xam deyiladi.

Sheshonk I mamlakatda vaziyatni bir oz unglagach, miloddan avvalgi 930 yili Falastin ustiga yurish kilib katta uljalar bilan Misrga kaytgan. U Nubiyaga xam katta yurishlar kilib, u erdan xam kup boyliklar olib kelgan.

Sheshonk I va uning vorislari davrida misrliklar kurilish, xususan ibodatxona kurilishiga katta e'tibor berganlar. Bubastislarning asosiy tayanchi koxinlar va kushin edi. Bubastislar davrining oxirlariga kelib, Misr podsholigi kuchsizlanadi. Sharkdan Ossuriya podsholarining istilolari boshlangan edi. Ossurlarga karshi Suriya-Falastin podsholarining birlashgan kushinida Misr kushinlari xam ishtirok etganlar. Miloddan avvalgi 853 yilda Suriya-Falastin-Misr kushinlari Xarxara shaxri yonida bulgan jangda Ossuriya kushinlaridan engilganlar. Bu urushdan sung Misrning obrusi yana tushib ketgan. 22-sulola bilan bir vaktida mamlakatni 23-sulola vakillari xam boshkarganlar. Petubastis uzini butun Misr fir'avini deb e'lon kilgan. Bu sulola davrida xam Misr uz kaddini rostlay olmaydi. Ichki tushkunlik va urushlar natijasida Misrda xujalik izdan chikib, savdo, iktisodiy va siyosiy vaziyat yana yomonlashadi. VIII asrda xukmronlik kilgan 24-sulola vakillari, xususan Bakxoris (721—715) mamlakatni inkirozdan kutkarish uchun ayrim isloxotlarni amalga oshirgan. U karzdorlarni kulga aylantirishga karshi chikkan. Lekin bu xam mamlakatni inkirozdan olib chika olmagan. Misrdagi bu inkiroz chet el boskinchilarining xujumini yana tezlashtirgan. Misr yana mayda davlatlarga — nomlarga bulinib ketgan.

Miloddan avvalgi VIII—VII asrlarda Kush (Efiopiya) da kuchli davlat karor topgan. Misrning kuchsizlanib, nomlarga bulinib ketganligidan foydalangan Kush podsholari Misrga bostirib kirganlar. Efiopiya podshosi Pianxi miloddan avvalgi 740 yilda

shimoldagi ayrim nom xukmdorlarini engib, uziga itoat ettirgan. Miloddan avvalgi 720 yilda esa uning vorisi Shabaka Misrni tamomila bosib olib, 25-Efiopiya sulolasiga a'os solgan. Miloddan avvalgi 715 yilda u Misrga bostirib kirib, uning kushinlarini tor-mor keltirgan. Bakxoris asir olinib tiriklayin utga tashlab kuydirilgan. Misr va Kush bitta davlat kilib birlashtirilgan. Bu davlatni Kush podsholari miloddan avvalgi 715—664 yillarda boshkarganlar. Shabakaning 15 yillik xukmronligi davrida Misrda nisbatan tinchlik xukm surgan. U ichki va tashki siyosatda xam extiyotkor kishi edi. Uning davrida kishlok xujaligi, xunarmandchilik, ichki va tashki savdo bir oz jonlangan.

Miloddan avvalgi VII asrda kaytadan kuchaygan Ossuriya davlati Misr ustiga uch marta yurish kilib, uni bosib oldi. Miloddan avvalgi 671-655 yillarda Misr Ossuriya xukmronligi ostida buldi.

Kuyi Misrda joylashgan Sais nomi xukmdor Psammetix I boshchiligida mamlakatni birlashtirish uchun kurash olib bordi.

Psammetix I ning ugli Nexo xam Misrni kuchli davlatga aylantirish uchun kurashgan. U yaxudiyarlarni engib, Frot daryosi soxiligacha borgan. Ammo u bu erlarda galabaga erisha olmagan. Uning davrida Urta er dengizi bilan Kizil dengizni birlashtirish uchun 84 km uzunlikdagi kanal kazilgan. Kanal kazish ishlarida 120 mingdan ortik misrlik ulib ketgan. Nexoning buyrugi bilan Finikiya dengizchilari Afrika atrofini aylanib chikkanlar. Bunga 3 yil vakt ketgan. Nexo kushinlari Falastin, Finikiya va Kushga bir necha bor golibona yurishlar kilganlar. Miloddan avvalgi 605 yilda Nexo kushinlari Xarxemish yonidagi jangda Bobil kushinlaridan engilgan. Ammo sungi Sais podsholari davrida mamlakatdagi axvol ogirlashgan va kuzgolonlar boshlangan. Bu davrda Janubi-Garbiy Osiyoda Eron davlati kuchayib, atrofdagi ulkalarni uziga itoat ettirgan. Miloddan avvalgi 525 yilda Misr eronliklar tomonidan bosib olingan. Eron shoxi Xambiz Misrda Sais sulolasini tugatib, uzini Misr fir'avni deb e'lon kilgan. U 27-sulolaga asos solgan. 27—30-sulola vakillari misrliklardan bulib, mamlakatni mustakillikka olib chikish va birlashtirish uchun kattik kurash olib borganlar. Ammo misrliklar miloddan avvalgi 332 yilgacha Eron saltanati ta'sirida bulgan. Usha yili Misrga Iskandar kushinlari kirib kelgan. Mamlakat yunon-makedon saltanati ta'siriga tushib kolgan. Iskandar vafotidan keyin u erda Ptolomeyning yunon-makedoniya sulolasi karor topib, Misr allinizm davriga kadam kuyan. Keyinchalik Misr Rim saltanati ta'siriga tushib kolgan.

Nil vodiysining kadimgi xalklari bundan 6-7 ming yil oldindan boshlab, yuksak madaniyat yaratganlar.

Miloddan avvalgi V—IV ming yilliklardayok misrliklarda dastlabki ilmiy-amaliy bilimlar kupaya borgan. Bu bilimlarni kishilarning esida saklab kolishi va boshkalarga aytib tushuntirib berishlari kiyinlashgan. Usha davr talabidan kelib chikib xat-yozuvga extiyoj kuchaygan. Kadimgi Misr yozuvining uzil-kesil shakllanishi miloddan avvalgi IV ming yillikka tugri keladi. Xush, bu yozuv kanday edi? Misrliklarning eng kadimgi yozuvlari belgi-rasmlar shaklida bulib, u ierogliflar deb atalgan. Usha zamon Misr yozuvi 750 taga yakin belgi-rasmlar — ierogliflardan iborat bulgan. Xususan, suv suzini ifodalash uchun uch kator tulkinsimon chizik chizilgan. Tog suzini ifodalash uchun ost tomoni tugri, yukori tomoni kabarik, urtasi botik shakl ishlatilgan. Kuyosh deb yozish uchun doira chizib, urtasiga nukta kuyilgan. Shunday kilib, xar bir suz va iboraning uziga xos belgisi, tasviri bulgan. Tabiat va jamiyatdagi vokea, xodisa xamda narsalar rasmlar va belgilar yordamida ifoda etilgan. Chunonchi, kulida uk-yoy ushlab turgan odamning rasmi — jangchi, kulida urok ushlab turgan kishi tasviri — urmok degan ma'nolarni bildirgan.

Jamiyat va tilning rivojlanishi munosabati bilan ilgari butun suzlarni ifoda etgan belgilar keyinchalik ayrim bugin va tovushlarni xam ifodalaydigan bulgan. Misrliklar yozish uchun dastlab tosh, sopol buyumlar, taxta, pustlok, yogoch, teri va boshka narsalardan foydalanganlar. Keyinchalik Nil soxillarida usadigan, balandligi 4-5 metr keladigan kamish-papiruslar yozuv kogozi sifatida keng ishlatilgan. Ular papirus poyasini yupka-yupka kilib kesib varak yasaganlar. Varaklar bir- biriga elim bilan yopishtirilgan va uzun-uzun uramlar tayyorlangan. Ba'zi yozuv uramlari 35—40 metrga etgan. Yozilgan bunday varaklar papirus deb atalgan. Papiruslarga usha davrdagi eng muxim vokea va xodisalar yozilgan. Bu misrliklarning uziga xos kitobi edi.

Kadimgi Misr dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik va savdo-sotik rivojlashgan mamlakat edi. Uning uziga xos davlat boshkaruv tizimi mavjud bulgan. Bu davlatni va xujalikni boshkarish uchun xat-savodli, bilimdon mirzolar, amaldorlar, xarbiylar, me'morlar, xunarmandlar va ularga raxbarlik kiladigan ukimishli kishilar kerak edi. Kadimgi Misrda ukitish maskani maktablar juda erta joriy kilingan. Maktablarda fir'avnlr, a'yonlar, amaldorlar, koxinlar, umuman, imkoniyati bulgan kishilar, shuningdek ukishga xavasmand bolalar xam ukitilgan. Bolalar boshlangich maktabda dastlab xarf urganish va savod chikarish bilan shugullanganlar. Unda bolalarga xusnixat urgatilib, ular xar kuni uch saxifa yozishlari kerak edi. Aftidan, bu boshlangich maktab bulgan bulsa kerak

Misrda urta va oliy maktablar xam bulgan. Bu maktablarning kupchiligi mirzolar tayyorlab chikaradigan saroy maktablari bulib, ularni "Mirzolar maktabi" deb ataganlar. Ayni paytda Markaziy maxkama koshida podsho xazinasi uchun amaldor mirzolar tayyorlaydigan maktablar xam bulgan. Bu maktablarda intizom juda kattik bulib, tan jazosi bilan mustaxkamlangan. Usha davrdagi bir "Nasixatnomada": "Ey mirza, dangasalik kilma, yuksa jazoga duchor bulasan. Kulingda doim kitob bulsin. Uni ovoz chikarib ukigil va uzingdan kup biladiganlar bilan maslaxat kilib ish tut. Bir kun xam yalkovlik kilma, yuksa kaltak eysan. Axir bolaning kulogi elkasida buladi-da, kachon ursang, shunda kulogiga gap kiradi", deb yozilgan ekan. Bolalarni kaltaklab turadigan xodim "xivchinli kishi" deb atalgan. U yalkov va aytganni kilmaydigan ukuvchilarni xivchin bilan savalab turgan. Maktabda kichik yoshdagi ukuvchilar sopol satxiga, katta yoshdagi ukuvchilar esa papirus varaklariga yozishgan. Maktablar katta tajribaga ega bulgan ukituvchilar bilan ta'minlangan bulib, unda diniy va dunyoviy bilimlar - matematika, geometriya, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot va boshka tabiiy fanlar xam ukitilgan. Misrda yozuv, ilmiy-amaliy bilimlarnng vujudga kelishi va rivojlanishi kishlok; xujaligi, chorvachilik, xunarmandchilik, savdo-sotik bilan chambarchas borlik edi. Mazkur amaliy bilimlar kadimgi Misr xujaligining rivojlanishiga juda katta ta'sir kursatgan.

Kadimgi Misrda musika va raks xam juda erta tarakkiy topgan. Bu davrda puflab chalinadigan nay, urib chalinadigan kayrok, arfa, ud kabi turli asboblal bulgan. Uyin va raks Kadimgi Misr san'atining ajralmas kismi edi. Rakkosalar uyinlarni maxorat bilan ijro etganlar. Misrda drama xam erta tashkil topgan. Ibodatxonalarda diniy dramalar kuyilgan. Xususan, teatrlarda Osirisning ulimi va kayta tirilishi kursatilgan. Demak, teatrni kashf etish soxasida xam Misr dunyoda birinchi urinni zgallagan mamlakat.

Kadimgi Misr adabiyoti bundan VI—VII ming yil ilgari vujudga kelgan. Urta podsholik davrida adabiyot juda yuksalgan. Kadimgi misrliklar juda kup kushik, ertak, mif, makol va matallar yaratganlar. Kushiklar oddiy va sodda bulib, ularda dexkon, chupon, savdogar, xammol, amaldorlar, ruxoniylar va podsholarning turmush tarzlari aks

zttirilgan. Kadimgi misrliklarning "Ikki oga-ini xakida ertak", "Tugri va egri xakida ertak"lari kishi diqqatini uziga tortadi. "Izida va Osiris xakida", "Gor bilan Set janjali" degan miflar xam juda mashxurdir. Mazkur miflarda yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan makkorlik urtasidagi kurash bayon etiladi.

Kadimgi misrliklar "Xalokatga uchragan kema xakida xikoya", "Sinuxet xikoyasi" kabi ajoyib ertaklar yaratganlar. Bu ertaklar sayoxatnoma tarzida yozilgan bulib, ularning birida "podsho konlari" ga kilingan mashakkatli sayoxat xakida suz yuritiladi. Xikoya kilinishicha, sayyoxlar daxshatli dovulga uchraydilar. Dovul ularni "rux oroli"ga uloktirib tashlaydi. Orola katta bir ilon kiyofasidagi olijanob podsho bor ekan. Ilon podsho ularni yaxshi kabul kilib, kup oltin, kumush, xushbuy narsalar, fil tishlari, it va maymunlar berib, mexmonlarni Misrga kuzatib yuboradi. "Sinuxet xikoyasi"da Sinuxetning Suriyadagi kurgan-bilganlari, ogir mashakkatlari goyat guzal iboralar bilan tarannum etiladi. Ayni paytda misrlik adiblar diniy poeziya, podsho sha'niga bagishlangan gimnlar va nasixatnomalar yaratganlar. Shunday kilib,. Kadimgi Misr adabiyoti usha davrda yuksak badiiy kamolotga erishgan.

Misrda xaykaltaroshlik va rassomlik xam rivoj topgan edi. Misr xaykaltaroshlari fir'avn, amaldor, malika, ruxoniy, mirzolar, oddiy kishilarning xaykallarini toshdan uyib ishlaganlar. Bu jixatdan amaldor Raxotep, mirzo, podshoga tanish Nofret, firavn Amenemxet III, Tutanxamon, shuningdek Ramzes II larning xaykallari diqqatga sazovor. Saroy, ibodatxona va boshka ma'muriy binolarning devorlari va tobutlar kopkogi ustiga uyib, buyok, bilan chizilgan ajoyib rasmlar kishi diqqatini uziga tortadi.

Misrda memorchilik xam juda tarakkiy etgan edi. Arab kirlarida xar xil toshlar kup bulgan. Shuning uchun podshoga karashli saroylar, ibodatxonalar va kator ma'muriy idoralar toshdan bunyod etilgan. Bu jixatdan Misr fir'avnlari va amaldorlarining makbaralari — piramidalari diqqatga sazovordir. Sakxaradagi Joser makbara —piramidasida ular orasida eng kadimgisi bulib, zinasimon shaklda kurilgan. Kadimgi podsholik davrigi mansub Gizadagi ulkan sfinks Xafra xam ajoyib bulib, u sher surati tarzida ishlangan. Shu Gizada fir'avn Xeops makbarasi — piramidasida uzining ulugvorligi bilan ajralib turadi. U 52900 kv. metr joyni egallagan bulib, balandligi 150 metr bulgan. Unga ogirligi 2 tonnadan 15 tonnagacha bulgan ikki million uch yuz ming tarashlangan tosh ishlatilib, 30 yil ichida kurilgan. Shunday kilib, Misr me'morchiligi uziga xos bulib, fir'avnlarning piramida — exromlari uzining maxobati, jozibasi va kattaligi bilan kishini xayratga soladi.

Kadimgi misrliklar ilmiy bilimlar soxasida xam katta yutuklarga erishganlar. Ularda matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tibbiyet, veterenariya, kishlok xujalik bilimlari ancha rivoj topgan edi. Kundalik xayotdagi extiyojlari, xujalik, ayirboshlash, tugon, kanal kurilish, me'morchilik ishlari, xisob-kitobni talab kilardi.

Kadimgi va urta podsholik davrida misrliklar matematika soxasida ancha yutuklarga erishganlar. Misrliklarning matematika soxasida erishgan katta yutuklaridan biri unlik sanok tizimining kashf etilishi edi. Misr yozuvida 1, 10, 100, 1000, 10000. 100000 va xatto millionni xam bildiruvchi aloxida belgilar bulgan. Barmok, kaft, tirsak va xarichlar uziga xos ulchovi birligini tashkil etgan. Misrliklar matematikaning tarkibiy kismi bulgan geometriya va algebra xakida, osmon jismlari va ularning xarakati tugrisida xam ba'zi bir bilimlarga ega bulishgan. Misr astronomlari yulduzlar va sayyoralar xarakatini urganib, birinchi olduzlar osmoni xaritasini tuzganlar. Yulduzlarning shunday xaritasi makbara va ibodatxonalarning gumbazlari shiplariga nakshlangan. Yulduzlarning joylanishini kursatadigan kadimgi xaritalar Senmut makbarasi, Edfu va Dender

ibodatxonalarining shiplarida saklanib kolgan. Misr astronomlari dunyoda birinchi bulib aloxida kalendar takvim tuzganlar. Ularning takvimiga kura, bir yil 365 kunni tashkil etgan. 365 kun 12 oyga bulinib, xar bir oy 30 kundan iborat bulgan. Kolgan 5 kun esa bayram xisoblangan. Ular tungi vakti yulduzlarga, kunduzgi vakti esa kuyoshga, shuningdek suv va kum soatiga xarab belgilaganlar. Kum va suv soatlari dastlab Misrda kashf etilgan. Astronomiya fani misrliklarga vakti belgilash, Nil toshkini davrini bilish, kanal, tugon kurish va dalalarni ekishga xozirlash uchun juda zarur bulgan Kadimgi Misr xalklari uzok tarixiy rivojlanish yulini bosib utganlar. Misr tarixining barcha davrlarida xayvonlarga, tabiat xodisalariga va ota-bobolar ruxiga e'tikod kilish, keng tarkalgan. Ayni paytda Misrda katta davlat vujudga kelishi munosabati bilan fir'avn — podsholarga e'tikod kilish va ularni iloxiylashtirish xam paydo bulgan. Kadimgi misrliklar e'tikodi va dini totemizm, fetishizm, animizm, kuyoshparastlik va podshoparastliklarga bulingan. Odamlar u yoki bu joyning xayvonot dunyosiga xarab sher, zaxarli ilonlar, bukalar, kuchkor, sigir, lochin, asalari, kalxat, timsox, mushuk va boshka xayvonlarni iloxiylashtirib, ularga sajda xam kilganlar. Kadimgi misrliklar xayotida Nil daryosi juda katta axamiyatga ega bulgan. Shuning uchun ular ulug Nil daryosini iloxiylashtirganlar. Kadimgi Misrda yashagan axoli xayotida issiklik va yoruglik manbai Kuyosh aloxida axamiyatga ega bulgan. Shuning uchun kadimdan boshlab Misrda kuyoshga topinish keng tarkalgan. Ular kuyosh xudosini Ra deb ataganlar. Raga atab ibodatxonalar kurganlar.

Misrda usimlik, daraxt, tosh, uk-yoy, yogochdan ishlangan xar xil narsalarga xam e'tikod kilganlar va ularni uluglaganlar. Ulgan ajdodlar ruxiga siginish va etikod kilish juda kadim zamondan boshlangan. Kadimgi misrliklar xayvonlar, daraxtlar, usimliklar, ota-bobolar ruxi, suv, kuyosh va boshka e'tikodlar bilan boglik turli irim, urf-odat, motam va marosimlar utkazganlar.

Mavzu №3

Shumer va Akkad. Kadimgi Bobil davlati.

Reja:

1. Kadimgi Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti va axolisi.
2. Ilk davlatlarning yuzaga kelishi.
3. Bobil podsholigining tashkil topishi.
4. Xammurat konunlari.

Tayanch atamalar.

Dajla, Frot, shumeriylar, akkadlar, kishlok jamoasi, Ur, Uruk, Kish Umma, lagash, Erudu, Sargon, Gutiyar, Gudea, Naramsin, Elam.

Adabiyotlar.

1. V.I.Avdiev. Kadimgi Shark tarixi. Toshkent, 1964 yil
2. D. G. Reder, E. A. Cherkasova. Kadimgi dunyo tarixi. I kism. Toshkent, 1974 yil.
3. Istoriya drevnego mira. M, 1989
- 4.F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
5. E. Bikerman. Xronologiya drevnego mira. M, 1976 yil.

Kadimgi ikki daryo oraligi tarixini urganish uchun Bibliyadagi, Gerodot asaridagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Ayniksa, miloddan avvalgi III asrda Bobilda yashagan Beros tomonidan yozilgan «Bobil tarixi»da kimmatli ma'lumotlar kup.

XVII-XVIII asrlarda Persepol saroyidan topilib, nemis olimi Grotefend tomonidan ukib chikilgan Bexistun mixxat yozuvlarida, XIX asrning 40- yillarida arxeolog Leyard tomonidan tomonidan Nineviya xarobalaridan topilgan 20 ming sopol kitoblardagi ma'lumotlar kimmatli manbalardir.

XIX asr oxirida kovlab olingan Bobil, XX asr boshlarida ochilgan Suza shaxarlaridan topilgan moddiy- ashyoviy dalillar va Xamurapi konunlari ma'lumotlari asosida bu ulka tarixi bizga ma'lum buldi.

Frot va Dajla daryo oraligidagi kadimgi stivilizaniya markazlaridan birini Mesopotamiya xam deyiladi. Ikki azim daryoning xizmatlari tufayli bu joyning tuprogi serunum va xosildorligi bulganligi xakida kadimgi yunon tarixchisi Gerodot ma'lumot beradi.

Mesopotamiyadagi Dajla daryosining Zab irmogi buylaridan bundan 70-80 ming yil oldindan boshlab axoli yashab kelgan balsa, pasttekislik kismiga ov zururiyatidan miloddan avvalgi IX-VIII ming yilliklardan boshlab odamlar olib joylasha boshlagan.

Keyinchalik Mesopotamiyaga Arabiston yarim oroli, Shimoliy Afrikadan semit kabilalari, janubi-shark tomondan esa boshka kabilalar kirib kelib joylashganlar. Zagros toglari orkasidan voxaga gutey, kassit, ossur, lulubey, janubdan esa xolday va boshka jangovar kabilalar bostirib kirganlar. Miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarda togli joylarda yashagan elam kabilalari janubi-shark tomondan bostirib kirib, Mesopotamiya janubidagi Shumerda urnashib kolganlar. Keyinchalik bu erga arameylar, eronliklar, parfiyaliklar, yunonlar, rimliklar va boshka kabilalar xam kirib kelishgan. Shunday kilib, Mesopotamiya xalklari atrofdan kelgan juda kup kabilalarning maxalliy axoli bilan kushilib aralashuvi natijasida vujudga kelgan. Kadimda mamlakat janubini Shumer, axolisini shumerlar. shimoldagi erlarni Akkad, axolisini esa akkadlar deb atashgan. Shumer va Akkad axolisi tashki kiyofalari jixatidan bir-birlaridan fark kilganlar. Shumerlar past buyli, kaltabakay, jussador, kulcha yuzli, tankaygan burunli, sokol va muylovining siyrakligi bilan akkadlardan ajralib turganlar. Semit kabilalariga mansub akkadlar esa kelishgan jussali, norgil, kirra burun, yuzlari chuzik, kuzlari katta-katta, sersokol va sermuylov bulishgan.

Miloddan avvalgi V-IV yilliklarda irrigastiya va kishlok xujaligining rivojlanishi natijasida Ur, Uruk, Erudu, Larsa, Kish, Lagash, Umma singari katta-katta kishloklar paydo buldi.

Miloddan avvalgi IV ming yilliklarda Janubiy Mesopotamiyaga janubi-shark tomondan shumerlar kelib joylashganlar. Ular maxalliy axoli bilan aralashib istikomat kilganlar. Shu vaktan boshlab bu joy Shumer viloyati nomini olgan. Janubiy Mesopotamiyada dexkonchilik, chorvachilik va xunarmandchilikning rivojlanishi natijasida badavlat kishilar, erkin jamoachi dexkonlar. xunarmandlar va kullar kupaya boshlagan. Bu Mesopotamiya dunyosidagi tabakalar edi. Endilikda jamiyatni boshkarish uchun kandaydir tashkilot zarur bulib kolgan. Bu tashkilot Shumerdagi shaxar-davlatlar edi. Xar bir shaxar-davlatning uz podshosi, amaldorlari, vaziru vuzarolari, kushinlari, kurikchilari, ruxoniylari, jinoyatchilarini jazolovchilari va kamokxonalari bulgan. Butun shaxar, unga karashli kishlok axli podshoning fukarosi xisoblangan. Kadimgi Mesopotamiya shaxar-davlatlarini fakat jazolovchi tashkilot deb karash kerak emas. Bu shaxar-davlatlar zimmasida sugorish inshootlarini tartibga keltirish, dexkonchilikni, chorvachilikni, xunarmandchilikni, savdo-sotikni rivojlantirish va mamlakatni mudofaa

kilishdek juda muxim ishlar turgan. Bu jarayonlar Mesopotamiyada miloddan avvalgi IV ming yillikning ikkinchi yarmi va III ming yillik boshlarida sodir bulgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik boshlarida Janubiy Mesopotamiyada xil tillarda gaplashuvchi kabilalar yashar edi. Janubda maxalliy axoli bilan aralashgan shumerlar, Dajla va Frot voxasining urta kismida esa maxalliy axoli bilan birga akkadlar xam yashar edilar. Ulardan shimolda esa xurrit kabilalari istikomat kilgan. III ming yillikning birinchi yarmida Shumerda Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Lagash, Umma, Shuruppak, Isin, Nishur, Kish, ulardan shimolda esa Ashshur, Mari, Nineviya va boshka yirik shaxar-davlatlar bor edi. Ularning xammasida xam asosan sugorma dexkonchilikka asoslangan xujalik rivojlangan edi.

Janubiy Mesopotamiyada kulchilik endigina shakllanayotgan edi. Urushda asir tushgan odamlar va karzdor kishilarni kulga aylantirish boshlangan. Ulardan ibodatxona, uy va xujalikning xamma soxalarida foydalanilgan. Kullar kul egalari tomonidan tamgalanib sotilgan va sotib olingan. Ularda xech kanday xukuk bulmagan. Shumer jamiyatidagi aslzodalar, kul egalari, ruxoniylar va boshkalar oliy tabaka vakillari xisoblangan. Axolining kupchiligini mayda ishlab chikaruvchilar, xunarmandlar, dexkonlar, mayda savdogarlar, askarlar tashkil etgan. Er egaligining bir necha shakli mavjud bulgan. Ularning biri xususiy erlar bulib, ular sotilgan va sotib olingan. Ikkinchisi esa davlat va ibodatxonaga karashli erlardir. Mesopotamiyada xamma foydalaniladigan jamoa erlari xam bulgan. Yirik kuldorlar jamiyatning oliy tabaka aslzodalari xisoblangan. Usha vaktdagi shaxar-davlatlar "en" deb atalgan, uni oliy ruxoniy boshkargan. Shaxar-davlat boshligini lugal deb xam atashgan. Ular axolining yukori tabakasi orasidan saylangan. U kushin kumondoni xam bulgan.

Ilk Shumer shaxar-davlatlari uncha katta bulmagan. Eng kadimgi shaxar-davlatlar katoriga Eredu, Sishar, Shurutshak va boshkalarni kiritish mumkin, Xar bir shaxar-davlat uziga mustakil bulib, ularning uz podshosi bulgan. Shumerdagi shaxar-davlatlar urtasida siyosiy xukmronlik kilish uchun ayovsiz janglar bulib turar edi. Miloddan avvalgi XXVIII—XXVII asrlarda Kish shaxar-davlati kuchaygan. Dastlab Shumerda I Kish sulolasi podsholari xukmronlik kilishgan. Miloddan avvalgi XXVII asr oxiridan boshlab Uruk shaxar-davlatining kudrati oshgan. Gilgamesh davrida Uruk kuchayib, Kish xukmronligidan ozod bulgan. Miloddan avvalgi XXVII—XXVI asrlarda Gilgamish va u nish avlodlari davrida Uruekda kuchli kushin tuzilib, Lagash, Kishur kabi shaxarlar Urukka itoat etgan.

Kattik urushlardan sung miloddan avvalgi XXV—XXIV asrlarda Ur shaxar-davlati kuchayib, I Ur sulolasi vakillari Shumerda xukmronlik kiladilar. Undan keyin bu ulkada Lagash kuchayadi. Podsho Eannatum zamonida butun Shumer Lagash xukmronlitiga utadi. Eannatum Elam ustidan xam galaba kiladi. Mamlakatning Lagash kul ostida birlashtirilishi xujalikning rivojlanishiga yordam bergan bulsa xam, miloddan avvalgi XXIV asr oxiriga kelib mamlakatdagi tinimsiz urush, ogir soliklardan axolining noroziligi kuchaygan. Natijada Lagashda davlat tuntarishi bulib, xokimiyat tepasiga Uruiningin keladi (2318—2312). U Lagashda 6 yil podsholik kilib, ba'zi isloxotlar utkazib, axoliga ancha engilliklar bergan va uz mavkeini mustaxkamlab ,olgan. Lekin Lagashning ravnaki uzok davom etmagan. Miloddan avvalgi XXIV asr oxirida Umma shaxar-davlati kuchaygan va butun Shumer ustidan xukmronlik kilgan. Uruiningin podsholigining sunggi yilida Umma shaxar-davlati xokimi Lugalgaggisi Lagashga bostirib kirib, uni vayron kilgan, boyliklarini talagan. U Ur, Uruk, Larsa, Adab, Nishur

shaxar-davlatlarni uziga itoat ettirib, Shumer podsholigini tashkil etgan. Lugal-zaggisi davrida Shumer birmuncha ravnak topgan. Ammo Shumer podsholigining mustakilligi uzok davom etmagan. Akkadlarning xujumi uni barbod qilgan.

Mamlakat janubida yashagan shumerlar bilan shimolda yashagan semitlar urtasida konli urushlar davom etgan. Uzok davom etgan janglar natijasida semitlar golib chikkanlar va Akkad davlatini tuzganlar. Bu davlatning asoschisi uz davrining yirik siyoiy arbobi Sargon I (2316—2261) edi. Usha davrdan kolgan afsonalarda Sargonning tashlandik bola bulganligi aytiladi. Xikoyada aytilishicha, uning onasi kambagal bir ayol bulgan. U gudak uglini boka olmay, kamishdan yasalgan savatga solib Frot daryosi buyiga tashlab ketgan. Akki degan suv tashuvchi—meshkop uni topib olib tarbiya qilgan. Ma'buda Ishtar voyaga etgan Sargonni yaxshi kurib kolib, uni Akkadga podsho kilib kuygan. Sargon (xakikiy podsho degani) dastlab Akkadda uz xokimiyatini mustaxkamlab olgach, yanada kuchli kushin tuzib, Kishni bosib olgan. Uzini "Kish podshosi" va "Akkad podshosi" deb e'lon qilgan.

Sargon I Shumer shaxarlari ustiga kushin tortib, Lugal-zagissi va uni kullab-kuvvatlagan 50 xukmdorni xam tor-mor etgan. Lugal-zaggisini asir kilib Nishurga keltirgan va uni xudo Enlila sharafiga kurbon qilgan. Sargon I butun Shumerni uziga karatib, Elamga kushin tortib, uning bir kancha shaxarlarini bosib olgan. Fors kultigida xam uz xokimiyatini mustaxkamlagan.

Sargon. I navbatdagi xujumlarini Akkadning shimol va shimoli-garbidagi ulkalariga karatgan. Uning kushinlari Suriya, Falastinni bosib olib, Urta er dengizi soxillariga chikkan. Sargon I Elam, butun Mesopotamiya va Old Osiyoni uz ichiga olgan goyat katta xarbiy davlat barpo etib, uzini "turt iklim podshosi" deb e'lon qilgan. Bu Janubi-Garbiy Osiyodagi eng yirik dastlabki kuldorlik davlati edi.

Sargon I 55 yil bu saltanatning podshosi bulib turgan. Bu davrda dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik va savdo-sotik ancha rivoj topgan. Yirik sugorish inshootlari kkurilgan, ayniksa savdo-sotikka keng yul ochib berilgan. Ammo Sargon I podsholigining oxirlarida Mesopotamiyada xam, boshka ulkalardagidek, noroziliklar kuchayib, kuzgolonlar boshlangan. Sargon I kushinlari bu kuzgolonlarni kiyinchilik bilan bostirganlar.

Sargon I vafotidan keyin uning taxtiga vorislari Rimush, Manishtush, Karamsin va boshkalar (2261—2200) utirib davlatni boshkarganlar. Rimush kuzgolon kutargan Shumer shaxarlari va Elam ustiga bir necha bor kushin tortgan. U kuzgoloini bostirib, kuzgolonchilardan shafkatsizlik bilan uch olgan. Ularni kaytadan uziga buysundirgan. U Akkadning yanada ravnak topishiga erishgan. Rimush uz saroyidagi fitnachilar tomonidan uldirilgan.

Rimushning vafotidan keyin taxtga uning ukasi Manishtush utirgan. U xam mustakillik uchun kurash boshlagan kuzgolonchilarni tor-mor qilgan. U Shumer va Elamdagi ruxoniy aslzodalarga katta-katta xadyalar berib, ularni uziga karatib olgan. Manishtush Akkad va Shumer aslzodalariga va uz askarlariga erlar bulib bergan. Shu yul bilan markaziy xokimiyatni mustaxkamlab olishga xarakat qilgan. U xam fitnachilar tomonidan uldirilgan.

Sargoniylardan chikkan sungi podsho Sharkalisharri davrida mamlakatning turli burchaklarida isyonlar yana kuchaygan. Mesopotamiyaga shimoli-garbdan amoriylar, janubi-sharkdan elamlilar bostirib kirganlar. Sharkalisharri shiddatli janglardan sung uz dushmanlari ustidan galaba kozongan. Ammo shu davrda Zagros toglari ortida yashovchi

guteylar Mesopotamiyaga bostirib kirib, golib chikkanlar. Shu bilan sargoniylar saltanati emirilgan va kulagan.

Miloddan avvalgi XXIP asrning oxiri — XXII asrning boshlarida sargoniylar saltanati kuchsizlangach, guteylar Mesopotamiyaga bostirib kirib, uni bosib oladilar va talaydilar. Ular bu mamlakatni Shumer va Akkad amaldorlari orkali boshkarganlar. Ularning biri Lagash xokimi Gudea bulib, u Shumerni guteylar nomidan 20 yil boshkargan. Guteylar Mesopotamiyada 125 yil xukm surganlar va ularning madaniyatini kabul kilganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Mesopotamiyaga shimoli-garbdan amoriy kabilalari bostirib kirganlar va uni ishgol kilganlar. Ular Larsa, Isin, Mari, Ashshur, Eshkunna va Bobyal kabi mustakil davlatlarning xokimlari bulib olganlar. Mesopotamiyada xukmron bulish uchun ular bir-birlari bilan konli urushlar olib borganlar. Bu urushlarda Bobil podsholigi golib chikib, amoriylar sulolasiga asos solingan. Sulola asoschisi Sumuabum bulgan. Bu sulola vakillari miloddan avvalgi 1894—1595 yillar orasida Bobil podsholigida xukmronlik kilganlar. Bu tarixda Kadimgi Bobil podsholigi deb nom olgan.

Elam podshosi Rimsin (1822—1763) Shumer shaxarlarini bosib olib, Larsani uzining tayanch istexkomiga aylantirgan. U Shumerda kanallar kazdirib, xashamatli ibodatxonalar kurdirgan. Ibodatxonalarga Shumer va Elam xudolarining mis va oltindan ishlangan xaykallarini kuydirgan. Bobil podsholigi Xammurapi davrida (1792—1750) ravnak topgan. U butun ikki daryo oraligini birlashtirib, yirik va kuchli davlat tuzish uchun matonat bilan kurash olib borgan. Xammurapi Elam podshosi Rimsin bilan shiddatli kurash olib borib, uni maglubiyatga uchratgan. Shumer xam uz podsholigiga kushib olgan. U dastlab Mari podshosi Zimrilim bilan ittifok bulib, Shimoliy Mesopotamiya shaxarlarini istilo kilib, Bobil tarkibiga kushib olgan. Miloddan avvalgi 1759 yilda Xammurapi sobik ittifokchisi Zimrilim kushinlarini engib Marini xam bosib olgan. Kup utmay Zimrilim Xammurap-iga karshi kuzgolon kutargan. Xammurapi Mari ustiga kushin tortib, uni ikkinchi marta ishgol kilgan. Shaxar devorlari buzib tashlanib, Mari xokimlari saroyi yokib yuborilgan. U ustalik bilan butun Mesopotamiyani uziga itoat kildirib, kudratli Bobil podsholigini tashkil etgan.

Xammurapi davrida Mesopotamiyada dexkonchilik, xunarmandchilik, chorvachilik, xususan savdo-sotik ishlari goyatda rivoj topgan. Bu davrda mamlakatda katta-katta sugorish inshootlari, ibodatxonalar va muxtasham saroylar kurilgan. Xammurapi vafotidan keyin Bobil taxtiga uning ugli Samsuilun (1749—1712) utirgan.

Amoriylar sulolasining sungi vakillari davrida Bobil podsholigi kuchsizlanib koladi. Bu axvoldan foydalanib, janubi-sharkdan elam, sharkdan esa kassit kabilalari Mesopotamiyaga xujum boshlaydilar. Mesopotamiyaning shimoli-garbida yangi Mitanni davlati tashkil topadi. U bobilliklarni Kichik Osiyo va Urta er dengiziga utadigan juda muxim savdo yulidan maxrum etadi. Nixoyat, miloddan avvalgi 1595 yilda Bobilga pshmoli-garbdan xettlar xam bostirib kiradilar. Kassit kabilalarining sharkdan kilgan shiddatli xujumlari Bobil podsholigini larzaga keltiradi. Shu bilan amoriylarning uch yuz yil davom etgan kadimgi Bobil podsholigiga barxam beriladi. Mesopotamiya kassitlar sulolasining xukmronligi ostita tushib koladi.

Xammurapi yirik davlat tuzib, bu davlatni uzi tuzgan konunlar asosida boshkargan. Bu tarixda Xammurapi konunlari deb ataladi. Xammurapi tuplami mixxat yozuvida bazalt tosh ustuni satxiga yozilgan. Konunlar tuplami 247 moddadan iborat

bulib, u kirish, konunlar va xulosadan iborat. Kirish kismida. konunlarni chikarishdan asosiy maksad mamlakatda adolat urnatishdir, deb kursatilgan. Unda podsho uluglanib, kuklarga kutarilgan.

Konunlarning asosiy kismida esa mamlakat xujaligining urmonchilik, chorvachilik va chorva mollari, ekinzorlar, kishlok xujaligi bilan boglik kup masalalari uz ifodasini topgan. Konunlarning birida "Ekinzorlar mamlakatning xayoti ekanligini bilmaysanmi?»— deb yozilgan. Unda xususiy mulk ximoya kilingan.

Xammurapi davrida Shumer va Akkad axolisini doimiy suv bilan ta'minlab turuvchi Nor-Xammurapi degan kanal kazilgan. Konunlar tuplamida savdo-sotik, xunarmandchilik, sudxurlik, kul va kulchilik munosabatlari xakida xam gapirilgan. Konunda oilaviy munosabatlar va turli xil jinoyatlarga xam katta e'tibor berilgan. Konunda kursatilishicha, jinoyat kilgan kishilar kim bulishidan katiy nazar kattik jazolangan. Konunda podsho xukukining cheklanmaganligi aytilgan. Xammurapi konunlari usha davrdagi kup soxalarni uz ichiga olgan xujjat bulib, Kadimgi Mesopotamiya konunchiligining rivojlanishiga ijobiy ta'sir kilgan. Mamlakatda joriy kilingan konun - koidalarni buzgan kishilar Xammurapi konunlari asosida sud kilinib jazolangan.

Konunning sungida shunday deyilgan: "Men Xammurapi, adolatli podshodirman, menga konunlarni Kuyosh xudosining uzi yuborgan, Mening suzlarim bebaxo suzlar, ishlarim tengi yuk, ishlardir". Xammurapi konunlari usha davr tarixinn urganishda kimmatli manbadir.

Mavzu: № 4

Kadimgi Ikki daryo oraligi madaniyati.

Reja:

1. Kadimgi yozuv.
 2. Diniy e'tikodlar.
 3. Adabiyot soxasidagi yutuklar.
 4. Fan yutuklari.
- Tayanch tushunchalar.

Shumer tili va yozuvi, Kramer, ieroglif, Mixxat, Tiamat, Anu, Ki, Enlil, Marduk, Ishtar, Tammuz, Eposlar, Gilgamshi, diniy dunyoxarash, matematika va astronomiya, tibbiyot, me'morchilik

Adabiyotlar.

1. **E. Bikerman. Xronologiya drevnego mira. M. , 1976.**
2. V. I. Avdiev. Kadimgi Shark tarixi. Toshkent, 1964.
3. Istoriya drevnego mira. M. , 1989.
4. F. Baynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 1964.
5. O. Samadov. Kadimgi dunyo tasviriy san'ati. Buxoro, 2004y.
- 6.

Dunyodagi Kadimgi madaniyat uchoklaridan biri bulgan Ikkidaryo oraligi yoki Mesopotamiya xalklari jaxon xazinasiga ilmiy bilimlar, yozuv, adabiyot va san'at, diniy e'tikodlar bobida erishgan yutuklari bilan munosib xissa kushganlar.

Bu erda kadimgi madaniyatning ildizlari miloddan avvalgi XI-IX ming yilliklardan boshlab shakllana boshlagan.

Mesopotamiya xalqlarining eng katta yutuklaridan biri bu yozuvning ixtiro kilinishi edi. Ilk yozuv avloddan avvalgi IV ming yillikda Janubiy Mesopotamiyada kashf kilingan. Bu erga kuchib kelgan shumerlar xam ushbu yozuvni kabul kilganlar. U suratli yozuv bulib, aytilmokchi bulgan suz rasm bilan ifoda etilgan. Bu fanda ieroglif yozuvi deb nomlangan. Masalan, kush suzi kushning tasviri bilan, suv suzi uch kator tulkinsimon chizik bilan, yulduz suzi yulduz tasviri bilan ifoda etilgan. Ammo suratli yozuv bilan kup tushunchalarni ifoda etib bulmagan. Turmush shumerlarning bu yozuvini soddalashtirishni talab kilgan.

Zamonlar utishi bilan Mesopotamiyada ponasimon shakldagi mixxat yozuvi kashf etilgan. Ular kotmagan loy lavxalar satxiga uyib tushirilgan. Ular lavxa ustida kundalang, tik va egri tushirilgan pona—mixlar shaklidagi belgilar yigindisidan iborat yozuv tusini olgan. U 600 ga yaqin belgidan iborat bulgan. Bu yozuvning asoschilari shumerlar bulib, uni keyinchalik bobilliklar, ossuriyaliklar xam kabul kilishdi. Bu yozuv keyinchalik butun Janubi-Garbiy Osiyo xalklari orasiga tarkalgan, xatto Misr fnavnlari xatto yozuvdan foydalanganlar.

Juda kadimdan boshlab Mesopotamiya mirzolari adabiy, tarixiy va ilmiy mavzudagi gaplarni sopol, teri, loy lavxalar va boshka buyumlarga kuchirib yozib, uziga xos kitoblar yaratganlar. Bu kitoblardan esa ajoyib kutubxonalar tashkil etilgan. Bunday kutubxonalar Ur, Nishur, Nineviya, Bobil, Ashshur va boshka shaxarlarda bulgan. Bu jixatdan Ossuriya podshosi Ashshurbanipalning Nineviyadagi kutubxonasi ajralib turgan. Unda 30 mingdan ortik xatli lavxa saklangan bulib, Mesopotamiya madaniyati va tarixining kup tomonlari uz ifodasini topgan.

Mesopotamiyaliklar kadim zamonlardan boshlab uz maktablariga ega bulganlar. Bu maktablarda kuprok badavlat kishilar, amaldorlar, uziga tuk kishilarning farzandlari ukiganlar. Ammo maktabda erkin jamoadan chikkan oddiy kishilar xam ukigan bulsa kerak Maktablarning kuyi sinflarida adabiyot, til, grammatika ukitilgan.

Yukori sinflarda esa matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot va veterinariya fanlari ukitilgan. Maktablar davlatni boshkarish ishini amalga oshiradigan xujalik va savdo xodimlari xam tayyorlagan. Maktablarda diniy darslar xam ukitilgan. Shumer, akkad va ossur maktablarida mirzolar tayyorlashga xam katta axamiyat berilgan.

Shunday kilib, Mesopotamiya maktablari maorif va madaniyat markazi xisoblangan. Bu maktablarda intizom xam ancha kattik bulib, ukituvchilar ukuvchilarni kunt bilan ukishga undaganlar.

Kadimgi Mesopotamiya shaxar va xarobalari kazilganda u erlardan. arxiv va kutubxonalar topilgan. Loy va sopol lavxalardan yozuvlar ukilganda, ularning bir kismi adabiy asarlar ekanligi aniklangan. Mesopotamiyadagi adabiy asarlar eng kadimgisi miloddan avvalgi IV ming yilliklarda yozilgan.

Shumer, Bobil va Ossuriya adabiyoti kadimgi xalk ogzaki ijodiyotidan kelib chikkan. Adabiy asarlar diniy ruxda xam, dunyoviy ruxda xam yozilgan. Mesopotamiya adiblari bizga "Dunyoning yaratilishi xakida mif", "Agushaya xakidagi doston", « Adapa xakidagi doston", " Etava xakidagi doston" kabi kuplab asarlar koldirishgan. U erda diniy, falsafiy va drammatik asarlar xam yaratilgan. Adabiy asarlarning mazmuni xilma-xil bulgan.

Markazlashgan Bobil davlati tashkil topgan vaktida koxinlar—ruxoniylar Mardukni butun olamni yaratuvchi bosh xudo deb ta'riflaganlar. Bu "Dunyoning yaratilishi xakidagi" dostonda uz ifodasinn topgan.

"Agushayya xakidagi doston" ma'budalar Ishtar va Saltu urtasidagi rakiblik xikoya kilingan. Mesopotamiyada yaratilgan eng mashxur dostonlardan biri "Gilgamesh xakidagi doston" bulib, unda Gilgamesh va Enkidularning dustligi, kaxramonliklari va sarguzashtlari xakida xikoya kilinadi. "Jafokash avliyo xakida doston" da bechora bir avliyoning ogir kechmishi xakida xikoya kilsa, "Xujayinning kul bilan suxbati dostoni» esa xujayinning uz kuli bilan xayoti, mexnat va ulim xakidagi munozaralardan iboratdir. Mesopotamiya adabiyoti boy merosga ega bulib kadimdan shark va jaxon xalklari adabiyotiga xam ijobiy ta'sir kursatgan.

Mesopotamiyada matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, tarix va boshka fanlarga kizikish ancha erta boshlangan. Erlarni ulchash, masofani aniklash, xosilni xisoblash va savdo-sotik ishlarini yuritish uchun matematika va geometriya kerak edi. Bu fanlar chorvachilik, dexkonchilik, savdo-sotik va xunarmandchilik bilan xam chambarchas boglik edi. Kadimgi mesopotamiyaliklar son va sanashni bilganlar, ya'ni birlik, unlik, yuzlik va mingliklarni bilganlar. 100 va 1000 liklarni aloxida belgi bilan ifoda etganlar. Ular yilning 365 kundan, doiraning 360 bulakdan iborat ekanligini aniklaganlar.

Dexkonchilik, savdo-sotik, chorvachilikni rivojlantirishda kun, oy va yillarni bilish zaruriyati astronomiyaning rivojlanishiga olib ketdi. Olti-etti kavatli zikkurit—uziga xos observatoriyalar kurilib, osmon jismlari, oy va kuyoshning xarakatlari kuzatilgan.

Bunday observatoriya minoralari Ur, Uruk, Nuppur, Bobil va Akkad shaxarlarida bulgan. Osmon jismlari xarakatini kuzatish bilan astronom koxinlar shugullanishgan. Kadimgi Mesopotamiya astronomlari, kuyosh va oy tutilishi xodisalarini oldindan bilganlar. Ular kuyosh yili 365, oy yili 354 kun ekanligini bilganlar. Demak, Mesopotamiya olimlari astronomiya takvimini tuzganlar.

Mesopotamiyada tabiat fanlari soxasida xam ancha yutuklarga erishilgan. Yozuvlarda bayon etilishicha, Shumer, Bobil, Ossuriya va boshka joylarning mirzolari usimliklar, xayvonlar va minerallar ruyxatini tuzganlar.

Miloddan avvalgi III ming yillikdayok shumer tilida astronomiyadan ilmiy asar tuzilganligi ma'lum. Mesopotamiya arxiv va kutubxonalaridan mamlakat tarixi va geografiyasiga oid ma'lumotlar topilgan. Xususan, Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan Misr, Urartu, Bobil va atrofdagi ulkalar xaritasi shular jumlasidandir.

Koxinlar mamlakat va atrofda bulib utgan eng muxim vokealarning yillik ruyxatini tuzib, podsholarning binokorlik faoliyatini xam yozib borganlar. Ayni paytda ilmiy bilimlar bilan birga me'morchilik, xaykaltaroshlik va rassom-nakkoshlik xam ancha rivoj topgan. Mesopotamiya shaxarlarida ibodatxonalar, shox saroylari, ma'muriy binolar va ajoyib observatoriyalar kurilgan.

Kadimgi Mesopotamiyada tibbiyot va veterinariya xam erta rivoj topgan. Ikkidaryo oraligidagi xakimlar — tibbiyot xodimlari yurak, jigar, buyrak, tumov, korin ogrigi bezgak falaj, kuz, kulok, tish, teri, sarik suv, siydik yuli, xotin-kizlar xastaliklari, shuningdek ruxiy kasalliklarni yaxshigina davolaganlar. Ayni paytda xakimlar singan, chikkan suyak va et uzilgan joylarni davolashda xam katta yutuklarga erishganlar. Mana shu kasalliklarni davolashda sodda va murakkab dorilar kullanilgan. Bu dorilar xayvon, xashorat, shifobaxsh, usimlik, mineral moddalar va boshka buyumlardan tayyorlangan. Bemorlarni davolashda silash, ukalash, yuvish va kompress usullaridan xam keng foydalanilgan.

Mesopotamiya tibbiyotining paydo bulishi uzok utmishga borib takaladi. Tibbiyot jarroxlik, kuz, ichki va boshka maxsus tarmoklarga bulingan. Tibbiyot xodimlari

oldiga juda katta; talablar kuyilgan. Xususan, Xammurapi konunlarining birida jarrox bemorning shikastlangan joyini notugri kesib kuysa, yoki notugri davolasa uning kuli kesib tashlanishi aytiladi. Tibbiyot ishlari bilan, asosan ruxoniylar shugullanishgan. U erda uy xayvonlarini davolash xam keng rivojlangan. Bu veterinariya fanining rivojiga asos solgan. Xullas, Mesopotamiya tibbiyoti usha davrda etakchi urinni egallagan.

Mesopotamiya xalklari eng kadingi zamonlarda tabiatdagi buyumlar—suv, tosh, daraxt, xayvon va osmon jismlariga e'tikod kilganlar. Davlat vujudga kelishi munosabati bilan ularning diniy e'tikodini xam uzgara borgan. Xudolarning kupchiligi odamsimon kiyofaga kirgan. Dastlab ayol xudolar ustunlikka ega bulganlar.

Xususan, ibtidoiy suv ofati ma'budasi ayol kiyofasida bulgan. Bu usha davrda ona urugi mavkeining balandligi bilan izoxlanadi.

Keyinchalik erkak xudolarning soni ortib borgan. Xar bir shaxar, kishlok, maxalla uzining iloxiy xomiysiga xudosiga ega bulgan. Ammo ba'zi xudolar mamlakat mivkyosida izzat-ikrom kilingan.

An—osmon, Ki—Er xudosi xisoblangan. Xikoya kilinishicha, bu ikki xudo er-xotin bulib, ulardan xavo xudosi Enlil tugilgan. U usib ulgaygach, Erni idora kiladigan bulgan va xudolar avlodini vujudga keltirgan. Oy xudosini shumerliklar Ninnar, akkadliklar esa Sin deganlar, kuyosh xudosini shumerliklar Utu desalar, akkadliklar Shamash deb ataganlar. Venera sayyorasining xudosini shumerlar Ianna, akkadliklar uz ma'budasi Ishtar bilan takkoslaganlar. Ianna erdagi xosildorlik va muxabbat ma'budasi xisoblangan. Bobil Ikkidaryo oraligining markaziga aylangach, Marduk; uning xomiysi bulib kolgan. U bosh xomiylikka ma'buda Tiamatni engib erishgan.

Shunday kilib, Mesopotamiya kup xudolik mamlakati bulgan. Odamlar ularga e'tikod kilib, bayram kunlarida kurbonliklar kilishgan. Dastlab kurbonlikka odamlar kuyilgan, keyinchalik kuy-kuzilar kurbon kilingan.

Xulosa kilib shuni aytilish mumkinki, Mesopotamiya jaxon xalklari tarixi va madaniyatini eng kadingi markazlaridan biri bulgan. Bu ulkada davlatlar boshka joylarga karaganda ertarok vujudga kelgan. Sun'iy sugorishga asoslangan dexkonchilik xam ilk shu mamlakatda karor topib, xunarmandchilik va savdo-sotik ravnak topgan.

Mavzu №5

Urartu va Bobil davlatlari.

Reja:

1. Urartu davlatining tashkil topishi.
2. Davlatning ravnak topishi va tashki siyosati.
3. Madaniyati.

Tayanch atamalar.

G. Milikishvili, I. Orbali, B. Piatrovskiy, A. Seys, Tushpa, van, Sevan, Urmiya, Araks, Menua, Argishti I, Sarduri II, Argishtixinil, Teyshabaini.

Adabiyotlar.

1. B. Piatrovskiy. Vanskoe starstvo. M, 1960.
2. V.I.Avdiev. Kadingi Shark tarixi. Toshkent, 1964 yil
3. E. Bikerman. Xronologiya drevnego mira. M, 1976
4. F. Boynazarov. Kadingi davr tarixi. Jizzax, 2002 yil
5. O.Samadov. Kadingi dunyo tasviriy san'ati. Buxoro, 2004 yil

Kavkaz ortida Frot va Araks daryolari boshlanuvchi Arman togliklari ulkasida miloddan avvalgi IX asrda Urartu davlati yuzaga kelgan edi. Bu davlat tarixini urganish uchun Kadimgi Ossur, Xett va Bobil yozuvlaridagima'lumotlar nixoyatda kimmatlidir. Tadkikotlar natijasida topilgan podsho Menua yozuvlarini, Angishti I yilnomasida Urartuning xujaligi, xarbiy yurishlari, e'tikodlari xakida ma'lumotlar bor.

XX asming 30 yillaridan boshlab, Kashmir-Blur tepaligida va boshka joylarda olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijalari xam kimmatli ma'lumotlar beradi.

Bu davlat togli ulka bulib, uning katta kismini Kavkaz tog'lari egallab yotadi. Toglar orasida Van, Urmiya va Sevan kullari joylashgan. Tog oralaridan yuzlab soylar okib chikadi. Toglar orasida katta-kichik vodiylar xam uchraydi. Urartu uzining guzal va xushmanzara tabiati bilan ajralib turadi. Kadimdan boshlab tog'laridan mis, temir, kurgoshin, kalay kazib olingan.

Kavkaz va u bilan tutashgan erlarda kadim zamonlardan boshlab axoli yashab keladi. Bu erda yashagan axoli xozirgi arman va gruzinlarning ota-bobolari bulib, ular urartlar deb atalganlar. Urartlar xett-xurrit xalklari kabilalariga kavm-karindosh edilar.

Miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda Kura, Araks daryolari vodiysidagi erlarda va Urartuda dexkonchilik va chorvachilik bilan shugullanuvchi kabilalar yashaganlar. Ular arpa, bugdoy, tarik va boshka donli ekinlar ekkanlar. U erda uzumchilik yaxshi rivoj topgan edi. Tog'lardagi utloklarda kuy, echki, yirik koramol va chuchka bokilgan. Urartlar yilkichilikka xam aloxida e'tibor berganlar. Otlarni minib yurganlar va jang aravalariga kushganlar, shuningdek, ulardan yuk tashishda xam foydalanganlar.

Urartuda kulolchilik, zargarlik, miskarlik xam rivojlangan edi. Savdo-sotik ancha erta tarakkiy eta boshlagan. Bularning barchasi urartlar orasida tabakalanish, mulkiy tengsizlik va okibatda davlatning vujudga kelishi uchun zamin xozirlagan. Bu jarayonlar miloddan avvalgi III ming yillik oxiri — II ming yillik boshida sodir bulgan.

Miloddan avvalgi XIV—XIII asrlarda Van, Sevan va Urmiya kullari atrofida bir necha kabilalarni birlashtirgan uyushmalar — davlatchalar tashkil topgan. Ular orasida Urartu xam bor edya. Miloddan avvalgi X—IX asrlarga kelib bu birlashmalar Urartu atrofida birlashtirilgan. Uning birinchi xukmdori Aramu (864—845) bulib, u Ossuriya podsholariniig xujumlariga karshi kurashlar olib borgan. Sarduri I davrida (845— 810) Van kuli yokasida Tushpa uning poytaxti bulgan. Sarduri II uzini shaxarshox deb e'lon kilgan va uziga itoat etganpodsholardan xiroj olgan. Sarduri I davrida xam Ossuriya kushinlari Urartuga bir necha marotaba bostirib kirgan. Sarduri I Urartuda mustaxkam kalalar kurdirib, dushmashga kakchatkich zarbalar bergan. Ayni paytda Urartu kushinlari Mana podsholigiga bostirib kirib, Ossuriyaga taxdid xam soladilar. Urartu kushinlari bu ulkalardan juda kuplab koramol, ot, kuy, echki, boyliklar va asirlar olib kaytganlar. Menua davrida (810—786) Urartu davlati yanada kuchayadi. U kushinni kayta tashkil kilib, uning safini mustaxkamlaydi. Menua mamlakat ichkarisida tartib urnatib, unga tobe ulkalar ustidan kuchli nazorat urnatadi. U kal'a, shaxar va ibodatxona kurilishi ishlariga xam katta e'tibor beradi. Mamlakat poytaxti Tushpani xam mustaxkamlab, kuplab suv inshootlari, xususan, «Menua kanali»ni kurdiradi. U kuchli kushinga tayanib, Araks daryosi vodiysiga, Frotning yukori okimidagi erlarga zafarli yurishlar uyushtiradi. U erlardan kuplab chorva, kimmatbaxo ma'dan boyliklari va asirlar olib kaytadi. Menua davrida Urartu davlati xujalik va xarbiy jixatdan xam kuchayadi.

Menuaning ugli va vorisi Argishti II davrida (786—764) Urartu Janubi-Garbiy Osiyodagi eng kudratli davlatga aylanadi, U ossurlarni bir necha marta tor-mor kilib, Ossuriya daalatiga taxdid xam soladi. Urart kushinlari janubi-sharkda Dajla irmogi bulgan Diala daryosining vodiysigacha etib borgan bulsalar, garbda Kichik Osiyoning sharqiy ulkalariga kirib borganlar. Bir vahtlar kudratli bulgan Ossuriya davlati uch tomondan kisib kuyilgan. Ayniksa, Urartuning tayziki ostida Ossuriya davlati Yakin Sharkda ikkinchi darajali davlatga aylangan. Ossuriya podsholari Urartu podsholaridan kurkib turganlar. Argishtgi II uz davlati chegaralarini kengaytirish uchun Kora dengizning janubi-sharqiy soxillari va Kolxida mamlakati ustiga xam bostirib borgan.

Argishti II ning ugli Sarduri II davrida xam Urartu podsholigi uz kuch-kudratini saklab kolgan. U Ossuriya kushinlariga bir necha bor zarba beradi. Yilnomalarda aytilishicha, Sarduri II shimolda Kavkazorti mamlakatlaridan Eriaxiga, garbda Shimoliy Suriyaga va boshka ulkalarga xarbiy yurishlar kilgan. U erlardan juda kup chorva mollarini, oltin, kumush, jez, kurgoshin kabi kimmatbako ma'danlarni olib kelgan. Engilgan mamlakatlardan kuplab asirlar olib kelinib, kulga aylantirilgan. Sarduri II podsholigining sungi yillarida Ossuriya kaytadan kuchaya boshlagan.

Podsho Rusa I (735—714) davrida Urartuda ichki isyonlar boshlangan. Ossuriya podshosi Tiglatpalasar III Urartuga kushin tortib, urart kushinlarini engishga muvaffak bulgan.

Sargon II miloddan avvalgi 714 yilda Urartuga karshi yana kushin tortib, Rusa I kushinlarini tor-mor keltirgan, mamlakatni xarob kilgan. Musasir shaxrini bosib olib, boyligini talagan. Bu xabarni eshitgan Rusa I uz-uzini uldirgan. Uning vorislari davrida Urartu uz mustakilligini saklab kolgan bulsada, avvalgi kuch-kudrati kolmagan edi. Ular endi Ossuriya bilan tinch-totuv yashashga xarakat kilganlar. Ammo Urartudagi keyingi osoyishtalik uzokka chuzilmagan. Bu davrda shimoldan kimmeriylar, undan sung skiflar bostirib kirib, uni kuchsizlantiradi. Sharkdan esa Midiya kushinlari dastlab Mana mamlakatini, sung Urartuni xam bosib oladi.

Shunday kilib, shimoldan kimmeriylar, skiflar, sharkdan midiyaliklar kilgan xujumlar natijasida Urartu davlati uz mustakilligini yukotadi. Miloddan avvalgi 590 yilda u Midiyaga tobe bulib, davlat sifatida barjam topadi.

Urartuning kadingi axolisi chorvachilik, dexkrnichilik, xunarmandchilik, tog-kon ishlari va savdo-sotikk bilan shugullangan. Ular tog yaylovlari va tekisliklarida sigir, buka, xukiz, kuy, echki, xachir, eshak bokkanlar. Ularning xujaligida yilkichilik aloxida axamiyatga ega bulgan. U erda miniladigan otlarning aloxida zotlari urchitib, kupaytirilgan. Koramol, kuy-echkilar gushti, terisi, sut-katigi va juni uchun bokilgan. Xukizlar esa omochlarga, yuk aravalariga kushilgan. Ogir yuklarni tashishda ot, eshak, tuya, xachir va xukizlardan foydalanilgan. Ammo otlar minish, jang aravalariga kushish va otlik kushinda kuprok kerak bulgan. Tuyalardan sugorish, tugon yoki kanal kurish ishlarida, yuk tashishda foydalanilgan.

Kadingi Urartu kishlok xujaligi xam katta rol uynagan. Odamlar erni omoch bilan xaydab arpa, burdoy, tarik, kunjut va boshka don ekkanlar. Dexkonchilik xujaligida uzumchilik juda katta urin tutgan. Uzumdan musallas tayyorlanib, katta xumlarda saklangan. Urartuda olma, nok, olxuri kabi mevalar ekib, ulardan mul xosil olganlar. Demak, Urartuda gallachilik, bogdorchilik va tokchilik yuksak darajada rivojlangan.

Kadingi Urartuda xunarmandchilik xam yaxshi rivojlangan. Ustalar xar xil toshlardan ajoyib buyumlar, munchoklar va turli-tuman takinchoklar yasaganlar. Kadingi urartlar moxir binokor bulganlar. Ular uylarni, ibodatxonalarni, kal'alarni, kal'a devorlarini,

xususan poytaxt Tushpa shaxrining istexkom va devorlarini katta-katta xarsang toshlardan kurganlar.

Urartuda ma'danga ishlov berish yaxshi rivojlangan bulib, temirchilik, misgarlik va chilangarlik jamiyat uchun zarur kasb edi. Oltin, kumush va jezdan kimmatbaxo buyumlar yasash xam keng tarkalgan.

Kuroloz ustalar yasagan mexnat kurollari—omoch tishi, bolta, pichok, panshaxa, tegirmon toshi, shuningdek yarog-aslaxalar—kilich, nayza, uk-ey, kalkon, zirxlar, dubulga, jang aravalari, mamlakatda va uning tashkarisida xam mashxur edi.

Urartu uz ezuviga xam ega bulgan. Ular mix-panasimon xatlardir. Mix-panasimon xarflar bilan bitilgan yozuvlar Urartuning kup joylaridan topilgan. Podsholar Argishti I va Sarduri II larning ismlari yozilgan va nakshli rasmlar, tushirilgan lavxa Arin-berd kal'asi devorlaridan topilgan.

Nard eposi, Dovud Sosuniy kabi dostonlarda va kadamgi arman yozuvchisi Moisey Xorenning tarixga oid asarlarida Urartu- tarixiga oid kupgina malumotlar saklanib kolgan. Kadingi Urartuda tibbiyot, vetenariya, dexkonchilik ilmi, yilnomalar yozish ancha tarakkiy etgan. U erda astronomiya borasida xam kup ma'lumotlar tuplagan.

Kassitlar xukmronligidan sung Bobil juda kuchsizlanib koladi. Miloddan avvalgi XIII asr oxiri— XII asr urtalarida shimoldan Ossuriya va janubdan Elam kushinlari Bobilga bir necha bor bostirib kiradilar. Shu asrning urtalarida Bobilning kup erlari Elam kushinlari tomonidan bosib olingan. Ammo elamliklar Bobilda uzok vakt kukmronlik kila olmaganlar. Isin shaxri xokimlari elamliklarga karshi kurashga boshchilik kiladilar. Navuxodonosor I (1126—1105) davrida Bobil kuchayib, uning kushinlari elamliklarni mamlakatdan xaydab chikaradilar. Miloddan avvalgi XI asr urtalarida esa arameylar Shimoli-Garbiy Mesopotamiyaga kelib urnashadilar. Miloddan avvalgi IX asr boshlaridai boshlab Fors kultigi soxillarida yashagan xaldeylar janubdan shimol tomon siljib, Mesopotamiya erlarini egallay boshlaydilar. Xaldey xukmdori Mardukaplaiddin II Bobilni egallab, uzini mamlakat podshosi deb e'lon kiladi. U elamliklar bilan ittifok tuzib, ossurlarga karshi kurash boshlaydi. Miloddan avvalgi 720 yilda Der kal'asi yonidagi jangda elamliklar ossurlarai engadilar. Miloddan avvalgi 710—709 yillarda Ossuriya podshosi Sargon II Bobilga yana xujum kilib, uni egallaydi. Miloddan avvalgi 703 yilda Mardukaplaiddin Ossuriyaning dushmanlari bilan ittifok tuzib, ossurlarga zarba beradi va Bobilni kayta egallaydi. Ammo Ossuriya podsholari Bobilga yana bir necha bor xujum kiladilar. Miloddan avvalgi 648 yilda Bobil vayron kilinadi, shaxarda vabo tarkalib, ocharchilik boshlanadi, kuplab axoli kirilib ketadi. Ocharchilik daxshatli tus olib, odamlar bir-birlarining gushtlarini eydilar.

Miloddan avvalgi 628 yili Bobilda ossurlarga karshi kuzgolon boshlanib, unga Xaldey xukmdori Nabopalasar raxbarlik kiladi. U ossurlarni engib, Yangi Bobil podsholigiga asos soladi. Ossuriya kushinlari Frot vodiysiga chekinganlar. Ular Misr fir'avni Nexo bilan ittifok bulib, bobilliklarga karshi kurashni davom ettirganlar.

Miloddan avvalgi 605 yilda Nabopalasar vafot etgach, uning ugli Navuxodonosor II (605—562) Bobil podshosi deb e'lon kilingan. Usha yili Karxamesh shaxri yonida bulgan jangda Navuxodonosor II ning kushinlari Misr bilan Ossuriyaning birlashgan kushini ustidan tuda galaba kozongan. U Suriyani ishgol kilib, misrliklarni Urta er dengizi soxillaridagi mamlakatlaridan surib chikargan va u erda uz ta'sirini kuchaytirgan.

Xaldeylar davrida Mesopotamiyada dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik va savdr-sotik ishlari rivoj topgan. Janubi-Garbiy Osiyodagi boshka davlatlar kabi Yangi Bobil podsholigi xam kuldorlikka asoslangan saltanat edi. Bu davrda Yangi Bobil davlati kuchayib, Bobil shaxri xam gullab-yashnaydi va sharkning eng obod va gavjum shaxarlaridan biriga aylanadi.

Bobil shaxri va avvallari kuprok kishlok xujaligi bilan band bulgan shaxarlar endi chinakam savdo xunarmandchilik markaziga aylandi. Ularning kupi avtonom-shaxar bulib, podsho xokimiyati ular xisoblashishga majbur edi. Savdo va sudxurlik bilan shugullanuvchi «Egibi xonadoni» kompaniyasining ta'siri katta edi.

Savdo-sotikda koxinlar muxim urin tutgan. Ular bilan rakobatchi xarbiy-zodagonlar esa koxinlardan ancha zaif edi. Bu zamonlarda kishlok axolisining axvoli ancha ogirlashgan.

Yangi Bobil davlatida kulchilik masalalariga oid xujjatlarda yuzlab kullar nomi tilga olinadi. Bu davlatda kullar mexnatidan foydalanish yullari xam juda uzgargan. Endi kullarga uzining xususiy ustaxonasini ochib, yoki dukon ochib ishlab, olgan foydaning ma'lum kismini xujayiniga berib turishdan tashkari uz narxining 20 % mikdorida pul xam tulab turgan. Kulning omadi kelib, boyib ketsa, xatto kul sotib olishi va ba'zi xukularga ega bulishi xammumkin bulgan. Uning sud bilan mustakil aloka kilishi va ozod kishilar bilan shartnomalar tuzishi mumkin bulgan. Birok bunday kullar xam tulik ravishda xujayin ixtiyorida kolavergan, xujayin uni istagan vaktida sotib yuborishi yoki unga jazo tayinlashi mumkin bulgan.

Yangi Bobilning ravnaki uzok chuzilmagan. Podsho Navuxodonosor II vafotidan keyin ruxoniylar bilan xarbiylar urtasida kuchli tuknashuvlar bulib, miloddan avvalgi 556 yilda Bobil taxtiga ruxoniylar vakili Nabonid utiradi. U miloddan avvalgi 539 yilgacha podsholik kilgan. Nabonid .podsholigi davrida mamlakatda fitna va kuzgolonlar avj olib, Yangi Bobil podsholigi ancha kuchsizlangan. Ayni paytda Bobil bilan Midiya urtasidagi ittifok buzilgan va Eron kuchayib Midiyani uziga kushib olgan.

Nabonid podsholigining oxirlari va uning ugli Valtasar davrida eroniylar shoxi Kayxusrav Bobilni bosib olgan va butun Mesopotamiyani uziga karatgan. Urushda Nabonid asir tushib, ugli Valtasar esa eroniylarga karshi olib borilgan kucha janglarida kaxramonlarcha xalok bulgan. Shu bilan Mesopotamiyadagi Yangi Bobil podsholigi tugab, butun Janubiy-Garbiy Osiyoda Eron podsholarining xukmronligi boshlangan. Bobil miloddan avvalgi VI—IV asrlarda eroniylarga, IV asrning 30 yillaridan boshlab yunon-makedoniyaliklarga, sung salavkiylarga tobe bulib kolgan.

Mavzu №6.

Kadimgi Xindiston

Reja:

1. Ilk xind stivilizastiyasi davri.
2. Kadimgi Xindiston davlatlarining tashkil topishi va ravnaki.
3. Xujaligi va madaniyati.

Tayanch atamalar.

Ramayana, Maxobxorat, vedalar, Ashoka, Maku, Moxinjo-Daro, Xarappa, Taksila, Magatka, Anga, Koshala, Bambisara, Nand, Por, Chandragupta, Bandusara, Budda.

Adabiyotlar.

1. G. M. Bongard – Levin. Drevnyaya Indiya. M, 1969.
2. G. Gerasimov. Kultura drevney Indii. M, 1975.
3. D. D. Kosambi. Kultura i stivilizastiya drevney Indii. M, 1968.
4. A. R. Beruniy. Xindiston . Toshkent, 2002 yil.
5. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
6. F. Boynazarov. Jizzax, 2002 yil.
7. O. Samadov. Kadimgi dunyo tasviriy san'ati. Buxoro, 2004 yil.

Kadimgi Xindiston tarixini urganish uchun yozma manbalar kup yaratilgan bulsa-da, mamlakatning iklimidagi namgarchilik, ularni kup saklanishiga imkon bermagan. Xindlarning mashxur eposlari «Ramayana», va «Maxobxorat» dostonlari, Vedalar tuplamlari, donishmand Kautile tomonidan tuplangan «Artxashastra» tuplamida kadimgi tarix xakida kimmatli ma'lumotlar bor.

Podsho Ashoka yozuvlari (miloddan avvalgi III asr) koyatoshlarida uyib yozilgan farmonlar bulib, olib borilgan urushlar va diniy siyosat xakida ma'lumotlar beradi. Miloddan avvalgi III asrda yaratilgan «Manu konunlari» esa xujalik xayotini urganish uchun kimmatli manbadir.

Antik zamon mualliflaridan Gerodot asarlarida, Arrianning «Aleksandrning yurishlari» asarlari kimmatli manbalardir.

XX asrning 20-yillarida Xind daryosi xavzasida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oid ilk xind stivilizastiyasi ochildi.

Xindiston kadimdan boshlab odamlarning yashashlari uchun katta imkoniyatlarga ega bulgan. Arxeologik topilmalar Xindiston da 300—500 ming yillar, xatto undan xam ilgarirok davrdan boshlab odamlar yashaganligidan dalolat beradi. Bu erda dravidlar, oriylar, bengallar, bixarlar, gujoratlar. assomlar va boshka xalklar yashab keladilar. Miloddan avvalgi V ming yillikning oxiri — IV ming yillikdan boshlab xind daryosi vodiysida sun'iy sugorishga asoslangan dekonchilik vujudga kelgan. IV ming yillik oxirlari va III ming yillik urtalariga kelib bu joyda uziga xos eng kadimgi xind madaniyati tarkib topgan. Dexkonchilik, xunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotikning rivojlanishi natijasida xind daryosi va uning Panjob viloyatida kuplab shaxar va kishloklar vujudga kelgan. Axoli orasida tabakalanish tobora kuchayib borgan. Bu esa xind daryosi xavzasida eng kadimgi davlatlarning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratgan. Bu davlatlarning Moxinjo-Daro, Xarappa kabi katta shaxarlari bulgan. Ularda axoli juda kalin yashagan. Moxinjo-Daro Xind daryosining urta kismida joylashgan 270 gektardan iborat shaxar bulgan. Bu erni kazigan arxeologlar kuchalar, pishik va xom gishtdan kurilgan turar joylar, saroylar, omborxonalar, ibodatxonalar va podsholar karorgoxining koldiklarini topganlar. Kuchalar tugri bulib, ularga gisht yotkiziltan. Shaxar yirik xunarmandchilik va savdo markazi bulgan. Shaxarga er ostita kumilgan maxsus sopol kuvurlar orkali suv kelgan va chikindi suvlar tashkariga chikarib yuborilgan. Badavlat kishilarning uylari, kal'a, ibodatxona va boshka binolar pishgan gishtdan 2—3 kavatli kilib kurilgan.

Xarappa shaxri Panjob viloyatida joylashgan. Arxeologlar u erdan 500 ga yaqin yodgorlik topishgan. Kadimgi xarappaliklar xom va pishgan gishtlardan 2—3 kavatli binolar, podsho saroylari, ibodatxonalar va xar xil ma'muriy binolar kurganlar. Shaxar kuvurlar orkali keladigan suv bilan ta'minlangan. Ustalar pishik gishtdan suv saklash uchun maxsus xovuz va kuduklar kurganlar. Chikindi suvlar uchun kanalizatsiya tizimlari xam barpo etilgan. Zargarlar tosh, mis, jez va kimmatbaxo toshlardan ajoyib zargarlik buyumlari yasaganlar. Shaxarda me'morchilik, tukimachilik, kulolchilik, toshtaroshlik, kurolozlik ancha rivoj topgan. Xarappa va Moxinjo-Daroliklar kayiklar, sollar va xatto uncha katta bulmagan kemalar kurib, daryo xamda dengizlarda suzganlar.

Ilk kuldorlik davrida Xindiston axolisining asosiy mashg'uloti dexkonchilik bulib, ular arpa, bugdoy, nuxat, paxta, sholi, kovun, shakarkamish ekanlar. Ovchilik va termachilik asta-sekin uz axamiyatini yukota boshlagan. Daryolardan katta-kichik kanallar orkali dalalarga suv chikarilgan. Suv chikarish uchun charxpalaklardan xam foydalanilgan. Odamlar chorvachilik bilan xam shugullanib sigir, buka, buyvol, kuy, echki, eshak, chuchka bokkan. Ot va tuya Xindiston da ancha keyin, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bulgan. Ot Xivdistonga garb va shimoli-garbdan oriy kabilalari bilan birga kirib kelgan. Kadimgi xindlar fillarni xam kulga urgatib, ulardan xujalik va xarbiy maksadlarda foydalanganlar.

Miloddan avvalgi XVII—XIII asrlar orasida eng kadimgi Xindiston davlati va madaniyati inkirozga uchraydi.

Miloddan avvalgi II ming yillik urtalaridan boshlab Xind daryosi xavzasiga Eron va Turon tomondan oriy kabilalari kirib kelib joylasha boshlaydi. Ular dastlab Panjob viloyatida joylashib olganlar. Sung Gang daryosining yukori va Urta okimidagi unumdor erlarga kelib urnashganlar. Ular aslida chorvador kabilalar bulib, kuy, echki, koramol va yilki bokkanlar. Ular uzok vakt chorvachilik bilan shugullanib, keyinchalik Panjob va Gang voxalaridagi unumdor erlarda utroklashib, dexkonchilik bilan xam shugullana boshlaganlar. Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlariga kelib xindlar temir kazib chikarish va uni ishlashni urganganlar. Shu davrdan boshlab, xindlarda ilgari ma'lum bulmagan temir kurollar ishlatila boshlangan.

Xindiston da miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida tepasida podsho turgan kupgina davlatlar tashkil topa boshlagan. Mulkiy tengsizlikning kuchayishi jamoaning turli varnalarga —

toifalarga bulinishiga olib kelgan. (bular braxmanlar, koxinlar, kshatriyalar, vayshilar va boshkalardir.

Varnalarning bir-biriga aralashuvi takiklangan. Ularning bir-biriga kiz olib, kiz berishi xam mutlako man etilgan.

Xindiston da turt varnaga kirmagan "chandallar" deb nomlangan kishilar xam bulganki, ular toza suvni xarom kiladi deb kuduklarga yakinlashtirilmagan. Rivoyat va konunlarda aytilishicha, braxmanning ugli braxman, kshatriyaning ugli — kshatriya, vayshilarning ugli — vayshi va shudraning ugli—shudra bulib tugilar emish.

Miloddan avvalgi VI asrgacha Shimoliy Xindistonda 20 dan ortik mayda davlatlar bulgan. Ularning eng yiriklari Magadxa, Anga, Shaxya, Kashala. Gandxar, Malla, Kashilar edi. Miloddan avvalgi VI—V asrlar orasida Shimoliy Xindiston da xukmronlik kklash uchun bu davlatlar urtasida konli urushlar bulib utgan. Bu davrda Magadxa kuchayib, podsho Bimbasara (543—491) davrida davlat chegaralari ancha kengaygan. Uning kushinlari Gang daryosi deltasini egallab, Bengal kultigigacha borib

etganlar. Bimbasara vorislaridan Ajatashatru davriga kelib butun Gang voxasi va Markaziy Xindiston markaziy davlatga birlashtirilgan. Bu keyinchalik vujudga kelgan Yirik Nand saltanatiningasosi edi.

Miloddan avvalgi 345 yilda Nand sulolasining asoschilaridan biri Ugrasen Magadxa podshosini engib taxtni egallaydi. Shu tarika kudratli Nand podsholigi vujudga keladi. Nand podsholigi davrida Markaziy Shimoliy va Sharkiy Xindistonda xujalik rivojlanib, madaniyat ravnak topadi.

Ammo miloddan avvalgi VI—IV asrlarda Panjob viloyatida tarkoklik xukm surar edi.

Eron shoxi Doro I davrida Panjob viloyati va Xind daryosining urta va kuyi okimidagi erlar Eronga kushib olingan. Bu erlarning axolisi Eronga kup mikdorda xiroj tulab turgan.

Miloddan avvalgi 329—327 yillarda Makedoniya podshosi Iskandar Turonning katta kismini bosib olgach, 120 ming kishilik kushin bilan Xindikushdan oshib, Panjob viloyatiga bostirib kiradi. Bu erdagi gandxar kabilalari va Taksila shaxri xokimi Iskandarga itoat etib, unga kushiladi.

Ammo Panjobdagi eng kuchli podsholardan biri Por 30 ming piyoda, 4 ming otlik askar, 3000 jang arava va 200 jangovar fildan tashkil topgan kushin bilan Iskandarga karshi chikadi. Por bilan Iskandar kushinlari urtasida kattik jang bulib utadi. Nixoyat, Iskandar kushinlari Por kushinlarini maglubiyatga uchratadi.

Iskandar Garbiy Xindistonda uncha katta bulmagan kushin koldirib, miloddan avvalgi 325 yilda Xindistonni tark etib, Bobilga boradi. Miloddan avvalgi 323 yili Bobilda vafot etadi. 317 yilda uning koldirgan kushini xam Xindistondan junab ketadi.

Yunon-makedon istilochilariga karshi keng xalk ommasining ozodlik xarakatiga mashxur xind sarkardasi Chandragupta boshchilik kiladi. Rivoyatlarga karaganda, u podshozodalardan bulmagan. Uning dushmanlari tarkatgan rivoyatga kura, u eng past tabaka—shudra varnasidan chikkan. Ammo kupgina manbalarda uning kshatriyalardan kelib chikkanligi ta'kidlanadi.

Chandragupta yoshligida nand sulolasi podsholariga xizmat kilgan. Ammo podsho bilan janjallashib, Panjobga — Iskandar xuzuriga kochib ketishga majbur bulgan. U Iskandarni Gang .voxasiga kushin tortib borishga undagan, birok Iskandarning bunga iloji bulmagan.

Iskandar vafot etgach, Chandragupta xalkning. Ozodlik xarakatiga bosh bulib, yunon-makedoniyaliklarni Panjobdan kuvib yuborishga muvaffak bulgan. Keyin Magadxaga kaytib kelib, taxtni egallagan. Chandragupta miloddan avvalgi 317—298 yillarda podsholik kilib Maurya davlatini barpo etgan. Patalaputra shaxri bu davlatning poytaxti edi. U butun Shimoliy Xindistonni birlashtirib, Maurya saltanatini kuchaytirgan. Miloddan avvalgi 305 yili Salavkiylar saltanati podshosi garbiy Xindistonga bostirib kirgan. Ammo u bu urushda galaba kozona olmagan, Chandragupta bilan Salavka urtasida sulx tuzilgan. Chandragupta unga 500 fil in'om etgan va uning kiziga uylangan. U Sharkiy Eron va Belujiston erlarini uz eriga kushib olgan.

Chandraguptaning ugli Bindusara (293—268) va Ashoka (268—231) davrlarida Xindiston kudratli davlatga aylanadi. Xindistonning katta kismi bu davlat tarkibiga kiritiladi.

Ashoka davlatni boshkarish, din va madaniy soxalarda kupgina isloxotlar utkazadi. Uning davrida Xindiston juda kudratli davlatga aylanadi. Ammo uning ulimidan sung Xindiston davlati kuchsizlanadi. Garbdan Yunon-

Baktriya kushinlari mamlakatga bostirib kiradilar. Panjobda miloddan avvalgi 180 yilda maur sulolasining sunggi podshosi taxtdan agdarilib, uldiriladi. Xindiston yana mayda davlatlarga bulinib ketadi.

Kushonlar davrida Xindiston kuchli davlatga aylanadi. Ular Shimoli-Garbiy Xindistonni xam bosib oladilar. Kushonlar bu erda milodning III asrigacha xukmronlik kiladilar. III asrdan boshlab Gang voxasidagi Magadxa davlati yana kuchayadi. Uning asoschisi Gupta bulib, sulola xam shu nom bilan atalgan. Magadxa davlati Guptaning nabirasi Chandragupta I davrida (320—335) ancha kuchayadi. Uning ugli Samudragupta (335—380) Ximolaydan Madras va Kanchi shaxarlarigacha bulgan erlarni bosib oladi.

Chandragupta II davrida (380—415) Xindiston Osiyodagi eng kuchli davlatga aylanadi. Xujalik, savdo-sotik va madaniyat yuksaladi. Chandragupta II vafotidan keyin Xindistonda yana asta-sekin parchalanish boshlanadi. V asr oxirida Xindistonga shimoli-garbdan avval kidariylar, sung eftalitlar bostirib kiradi. Xindlar eftalitlarga karshi uzok vakt kurash olib boradi. Bu urushlar axolining boshiga kup kirginliklar keltiradi. Xujalik izdan chika boshlaydi. VI asrga kelib Xindistondagi guptalar tuzgan davlat yana mayda davlatlarga bulinib ketadi. Shu bilan Xindistonning kadimgi tarixi xam uz nixoyasiga etadi.

Dexkonchilik, chorvachilik va xunarmandchilikning ravnaki, Xindistonda savdo-sotikning rivojlanishiga olib kelgan. Kishlok va shaxarlar orasida savdo-sotik ishlari kizgin olib borilgan. Xind savdogarlari kuruklik va suv yullari orkali Eron, Turon, Xitoy, Mesopotamiya va Arabiston mamlakatlari bilan savdo-sotik ishlarini olib borganlar. Xindistonda savdo-sotik Maurya, Guptalar va Kushonlar podsholigi davrida, ayniksa kuchayadi. Kushonlar davrida esa "Buyuk ipak yuli" orkali Xitoy bilan savdo-sotik yanada rivoj topadi.

Xindistonda chorvachilik xam, dexkonchilik xam rivojlangan. Chunki bu davrda temir tishli omochlar, belkuraklar va boshka kishlok xujalik kurollari takomillashtirilgan. kishlok; xujalik ishlarida ot, eshak va fildan foydalanilgan.

Xindiston boshka Shark; mamlakatlari kabi kuldorlik davlati bulgan. Kullar xind xujaligining barcha soxalarida ishlashgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikning ikkinchi yarmi — II ming yillikning birinchi yarmida xind madaniyati ancha yuksaladi. Xindlar uzlarining kadimiy yozuvlariga ega bulganlar. Ular xar xil buyumlarda va tosh lavxalarida saklanib kolgan kadimgi xindlar xalk ogzaki ixodiyotida "Ramayana", "Moxabxorat", "Panchatatra" kabi ajoyib dostonlar va masallar tuplami katta axamiyatga ega.

Xindiston chorvachilik, dexkonchilik mamlakati bulganligi tufayli bu erda astronomiya va matematika xam ancha rivoj topgan, xindlar kuyosh va suv soatidan foydalanaganlar. Ular uz takvimlarini xam tuzganlar. Unga kura yil 360 kunga bulingan.

Kadimgi xindlar Erning sharsimon ekanligini IV—V asrlardayok bilganlar.

Shuni xam aytib utish kerakki, miloddan avvalgi III—II ming yilliklardayok Xindistonda xisobning unli tizimi tarkib topgan edi, Shuningdek, nolni bildiradigan belgi birinchi Xindistonda ishlatilgan. Xind rakamlaridan arablar keng foydalanaganlar.

Xindiston issik mamlakat bulganligi uchun bu erda kasallik kup bulgan. Shuning uchun bu erda tibbiyot xam ancha erta rivoj topgan, xind tabiblari kasallikni aniklash va

uni davolashda yuksak maxoratga erishganlar. Ular bemorni tomir urishiga karab kasalligini aniklaganlar. Tabiblar dorilarni usimliklar, mineral buyumlar va xayvon a'zolaridan tayyorlaganlar. Davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar 1000 ga yaqin bulgan. Bemorlarni davolashda silash, ukalash, vanna .kilishdan keng foydalanganlar. Kadimgi xind tabiblari jarroxlik usulidan xam keng foydalanganlar. Xind kimyogarlari buyok, kislota va turli kimyoviy moddalarni kashf etganlar. Xindiston shaxmat uyinining vatani xamdir.

Xindlarda diniy e'tikod ancha erta shakllangan. Eng kadimgi xindlar narsalarga, xayvonlarga, tabiat xodisalariga va ulgan kishilarning arvoxlariga siginganlar. Ularda kuyosh va olovga siginish juda keng tarkalgan edi. Braxmanizm kadimgi diniy e'tikodlardan biri bulib, miloddan avvalgi IX—VIII asrlarda vujudga kelgan. Bu e'tikodga kura xudo Braxma olamni va odamni yaratgan deb xisoblangan. Xind ruxoniylari braxmanlar deb atalganlar.

Xindistondagi e'tikodlaryaing yana biri buddizm edi. Bu din miloddan avvalgi VI—V asrlarda vujudga kelgan. Rivoyatlarga kura, bu dinning asoschisi Siddxartxa Gautama (Budda) bulgan. Buddizm braxmanizmdagi kastalarga bulinishni koralab, jamiyatdagi barcha kishilar teng xukuklidir deb e'tirof etadi.

Mavzu №7.

Kadimgi Xitoy.

Reja:

1. Xitoy tarixining eng kadimgi davri.
2. Ijin va xan podsholiklari.
3. Kadimgi Xitoy madaniyati.

Tayanch atamalar.

Birichun, Xan, Xuanxe, Yanstzi, Chen tan, Shan, In, U Din, Chjou, In Chjen, Yuz, Stin Shi Xuandi, Dunxuan, Buyuk Xitoy devori, U di, Fan Chun, Sima Styan, Ban Gu.

Adabiyotlar.

1. V.I.Avdiev. Kadimgi Shark tarixi. Toshkent, 1964 yil
2. N. Ya. Bichurin. Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v Drevnee vreme. T. 1-3. M-L., 1950-1953.
3. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
4. F. Boynazarov. Kadimgi davr tarixi. Jizzax, 2002 yil.
5. O. Samadov. Kadimgi dunyo tasviriy san'ati. Buxoro, 2004
6. K. Shoniyozov. Kang davlati va kanglilar. Toshkent, 1990.

Osiyoning kadimgi va buyuk davlatlaridan biri Xitoy bulib, uning kadimgi tarixini urganish ishlarini uzok davr mobaynida uzgarmay kelgan yozuvi osonlashtiradi. Kadimgi Xitoy yozma yodgorliklari kichik-kichik xajmda bulib, toshbaka kosolari va suyak parchalarida bitilgan. Bunday yozuvlar miloddan avvalgi II ming yillikka oid. Keyingi zamon yozuvlari esa bronza idishlarda bitilgan. Miloddan avvalgi I ming yillikka oid yozuvlar taxtachalarga yoki ipak matolarga bitilgan. Milodiy I asrda kogozi ixtiro kilingach, yozuvlar kupaygan.

Kadimgi Xitoy yilnomalari «Chun Styu» xronikasi, «Xan sulolasi tarixi» singari manbalar mavjud. Xalk kushiklari tuplami «Kushiklar kitobi»da xam muxim ma'lumotlar bor.

Xitoyning katta kismini dunyoning eng katta toglari egallagan. Shark tomonida esa Xuanxe va Yanstzi daryolari katta past tekislik xosil qilgan.

Xitoyning sharqiy kismida yomg'ir kup yogadi. Markaziy va garbiy viloyatlarida yogingarchilik kamrok buladi. Yogingarchilik vaktlarida Xuanxe daryosi toshib, kup kishloklar, xinzorlar va utloklar suv ostida kolib ketar edi. Shuning uchun xitoyliklar bu daryoni "Tentak daryo", "Xitoyning shuri", "Ming xil kulfat keltiruvchi daryo" deb atashgan. Xuanxe soxillari mayda sarik kunga uxshash tuprokdan iborat. Bu tuprok juda unumdor bulib, suv etarli bulsa mul xosil berishi mumkin. Yanstzi daryosi soxilidagi erlar xam unumdordir.

Miloddan avvalgi V-III ming yilliklarga kelib, Xuanxe daryosining urta okimida dastlabki dexkonchilik vujudga kelib, axoli daryo buyidagi kichik kishloklarda yashagan. Ular dastlab tarik, arpa va bugdoy xkanlar, chuchka va itlarni bokib kupaytirganlar, xunarmandlar kulolchilik bilan shugullanib, ajoyib sopol idishlar yasaganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillik boshlariga kelib, Xuanxe daryosi soxilidagi erlar kengrok uzlashtirilib, tarik, bugdoy, sholi va sabzavot xinlari kuprok xilgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Xitoydagi kabilalar tarkok xolda yashar edi. Miloddan avvalgi II ming yillikning boshlariga kelib, ayrim kabilalarning birlashuvi boshlangan. Sya xonadoniga mansub kishilar Sharkiy Xitoyda dastlabki davlat birlashmasiga asos solganlar.

Miloddan avvalgi XVIII asrda Chen Tan degan kishi davlat tuzib, uni Shan kabilasi nomi bilan Shav davlati deb atagan. Miloddan avvalgi XVII asrdan boshlab Chen Tan asos solgan davlat In, ba'zi xollarda Shan- In deb nomlanadi. Shan-In davlatining poytaxti Shan shaxri edi. Shan-In davlati miloddan oldingi XII asrgacha yashagan. U Din podsholigi davrida, ya'ni XIII asrning ikkinchi yarmida kuchayib, atrofda kupgina viloyatlar uning ta'siriga tushib koladi.

In podsholigi atrofida juda kup kabilalar yashar edi. Ulardan biri Xuanxe irmogi Vey daryosi buylarida yashovchi jangovar chjou kabilalaridir. Ular asosan chorvachilik, dexkonchilik va xunarmandchilik bilan shugullanganlar. In davlati kuchaygan paytda chjou kabilalari ularga karam bulib, boj-xiroj tulab turar edilar.

In davlati kuchsizlangach, chjou kabilalari ularga itoat etmay kuyganlar. Aksincha, chjou kabilalari In davlatiga tez-tez taxdid solib turgan. Chjou kushinlari In podsholigining shaxar va kishloklarini talab kaytganlar.

Miloddan avvalgi 1027 yilda chjou kabilalari U Van boshchiligida In davlatiga bostirib kirgan. Konli janglardan sung ular Shou Sin kushinlarini tor-mor keltirgan. Bu maglubiyatdan sung podsho Shou Sin uzini-uzi uldirgan. Shundan keyin In davlati asta-sekin kuchsizlanib emirilgan va kulagan.

Chjou kabilalarining zarbasi ostida In davlati kulagach, uning urniga Chjou podsholigi tashkil topgan. Bu podsholik Xitoy tarixida Garbiy va Sharkiy Chjou podsholiklari davriga bulinadi. Garbiy Chjou davri miloddan avvalgi XII—VIII asrlarni, Sharkiy Chjou davri esa USh—III asrlarni uz ichiga oladi. Garbiy Chjou davlatining chegarasi Vey daryosi boshidan sharkka Sarik dengizgacha davom etib, uning poytaxti Xao shaxri edi. Miloddan avvalgi VIII asrdan boshlab Sharkiy Chjou davri boshlangach, poytaxt Loyanga kuchirilgan.

Midoddan avvalgi V—IV asrlardagi uzaro konli urushlar natijasida Xitoyda xujalik tushkunlikka uchraydi. Urushlar natijasida mexnatlash xalk boshiga ogir kulfatlar tushadi. Bu tushkunlik Sharkda Xitoy atrofida, xususan shimolda yashovchi sinu kabilalarining tajavvuzkorlik siyosati uchun kulaylik tugdiradi. Shu davrdan boshlab Sharkiy Xitoyni katta bir yagona davlatga birlashtirish goyasi tugiladi.

Miloddan avvalgi IV asr oxirida Sharkiy Xitoyda yagona davlat tuzish uchun Chu va Stin podsholliklari da'vogar bulib chikadi. Bu kurashda Stin podsholigi golib chikadi.

Podsho In Chjen davrida (241--210) Sharkiy Xitoy erlari birlashtirilgan. U Stin Shi Xuandi-IIshning birinchi podshosi nomini olgan. In Chjen Sharkiy Xitoydagi olti podsholikni uziga karatib olgach, shimoldagi syunni (xunn) kabilalariga karshi zafarli urushlar olib borgan. Janubda esa u Yuz podsholigini xam uziga itoat ettirgan.

Markazlashgan davlatning tashkil topishi dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik va savdo-sotikning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Stin podsholari kushinni xam kayta tuzganlar. Jezdan yasalgan jangovar kurollar temir kurol-aslaxalar bilan almashtirilgan. Kushinda avvalgi jang aravalari urnini otlik kushin egallagan. Otlik kushindan foydalanishni xitoyliklar shimoldagi kuchmanchi kabilalardan urganganlar. Bu konli urushlar jarayonida gox Chu, gox U, gox Yuz va gox Stziy podsholliklari golib chikadilar. Natijada usha davrdagi xodisalarga kam aralashgan Stin podsholigi kuchayib ketadi.

Iqin Shi Xuandi uz davlatini syunni kabilalaridan ximoya kilish maksadida Shimoliy Xitoy buylab kurilgan devorni yanada mustaxkamlashni buyurgan. Bu tarixda Buyuk Xitoy devori — Saddi Chiniy deb atalgan.

Devorni kurish ishlari miloddan avvalgi IV asrda boshlangan. Devor kurilishiga Min Tyan kushinidan uch yuz ming askar, juda kup xarbiy asirlar va turli jinoyatchilardan iborat jami ikki million kishi jalb kilingan. Devor Lyaodun kultigi kirgogidagi Shanxayguan shaxridan boshlanib, garbda Dunxuan kal'asigacha davom etgan. Devorning umumiy uzunligi 5000—6000 km xan. Uning balandligi joyiga karab b—10 metr, kalinligi esa 5,5—7 metr bulgan. Buyuk Xitoy devori yunilgan tosh, gisht va loydan kurilgan. Devor buylab xar 60— 100 metrda mustakkam minoralar xam bino kilingan. Devor va istexkomlarning yukori kismi kungirador bezaklar bilan bezatilgan. Devor ustida besh otlik askar saf tortib yura olgan. Buyuk Xitoy devori xam xarbiy, xam savdo-sotik ishlarini kuzlab kurilgan.

Nixoyat miloddan avvalgi 210 yilda Stin Shi Xuandi ogir tolikishdan sung 48 yoshida vafot egadi. Miloddan avvalgi 209 yildan boshlab mamlakatning turli joylarida kuzgolonlar boshlanib, u fukarolar urushiga aylanib ketadi. Bu kuzgolonga Lyu Ban degan kishlok oksokoli raxbarlik kilgan. Kuzgolonchilar miloddan avvalgi 207 yili Sanyan shaxrini kulga kiritadilar. Stiya Shi Xuandining ugli kuzgalonchilar kuliga asir tushadi. Urush natijasida ikki tomondan juda kup kishi yarador bulib. vafot egadi.

Miloddan avvalgi 202 yilga kelib Lyu Ban tarafdorlari golib chikib, u uzini yangi Xan sulolasi podshosi deb e'lon kkiladi. Shu tarika Stin podsholigi tugatiladi, uning urniga Xitoyda Xan sulolasining davri boshlanadi.

Xan podsholigi miloddan avvalgi 206—220 yillarda xukm surgan. Uning birinchi xukmdori Lyu Ban mamlakatni markazlashgan daalatga aylantirish uchun kup xarakat kilgan.

Xan saltanatining dastlabki yillarida xususan U Di podsholigi davrida (140—87) kishlok xujaligi, dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik va savdo-sotik ancha rivoj topgan. Shaxarlar, kishloklar, viloyatlar orasidagi madaniy alokalar yulga kuyilgan.

U Di Stin Shi Xuandi zamonidagi istibdodni kayta tiklagan. U mamlakat xududini kengaytirish maksadida uz kushinini kuchaytirgan. U Di 138 yili Chxan Styan degan uz sayyoxini kadimgi Turon erlariga yuborgan. U miloddan avvalgi 138-125 yillar orasida Kang, Kushon, Fargona, Baktriyada bulib, bu erlardagi xalklar xakida kup ma'lumotlar tuplagan. Bu davlat raxbarlarini Xitoy bilan ittifok bulib syunnularga karshi kurashga undagan. Ammo Turondagi podsholar, xususan, yue-chjilar syunnular bilan urushishshi xoxlashmaganlar. U 13 yillik sayoxatdan sung Xitoyga kaytib kelgan.

U Di vafotidan sung Xitoyda axvol ogirlashib, xalk kuzgoloni kutarilgan. Milodning 8 yilida xokimiyatga kelgan Van Man 9-10 yillarda samarasiz er isloxotlari utkazgan. Buning okibatida 18-25 yilarda davom etgan Fan Chun boshchiligidagi «Kizil koshlar» kuzgoloni bulib utdi. Mamlakat janubida Lyu Syuan boshchiligida xam kuzgolon kutarilib, Van Man kushinlarini tor-mor etganlar. Lyu Syuan ulimidan sung Lyu Syu janubiy viloyat kuzgolonchilariga bosh bulib, «Kizil koshlar» ustidan galaba kilgan. 25 yoshida Lyu Syu uzini podsho deb e'lon kilgan. Shundan boshlab Xitoyda Sharkiy xan sulolasi boshlandi va bu saltanat 220 yilgacha xukmronlik kildi.

184 yildan boshlangan, 20 yil davom etgan sarik rumollilar kuzgoloni, Xan saltanatini zaiflashtirdi. III asrga kelib Xitoy Vey, Shu, U kabi davlatlarga bulinib ketib, Kadimgi davri nixoyasiga etdi.

Kadimgi xitoyliklar xozirgi kunimizdan 4—3,5 ming yil ilgari uz yozuvini yaratganlar. Kadimgi Xitoy yozuvi misrliklarniki kabi ayrim belgilardan iborat ieroglif yozuvi bulgan. Xar bir ieroglif belgi butun bir suzni ifoda etgan. Bir kichik shoxcha "daraxt" degan ma'noni, ikkitasi "urmon" suzini, uchitasi esa "chakalakzor" degan suzni anglatgan. Xitoy yozuvi bir necha un ming belgi — ierogliflardan iborat bulgan.

Xitoyda dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik, savdo-sotik va boshka soxalarning ravnaki ilmiy bilimlarning rivojlanishini takozo etgan. K Kishlok xujaligining rivojlanishi va bu soxada orttirilgan tajriba agronomiya va veterinariya fanlarining vujudga kelishy uchun zamin tayyorlagan. Kadimgi Xitoy olimlarining kupgina kitoblarida dexkonchilik, chorvachilik, ipak kurti bokish va parvarish kilish bilan boglik ma'lumotlar bayon etilgan. Xitoy ustalari juyak ochib, don kiladigan moslama xam yasaganlar. Bu esa dexkonchilikning rivojlanishi uchun katta axamiyatga ega bulgan.

Kadimgi Xitoyda tabiblar kup bulgan. Ulardan Van Shu Xe, Ban Stio va Xua Tu kabi tabiblar usha zamonlardan shuxrat kozongan edilar. Van Shu Xe tibbiyotga oid «Ne-Iqzin» ("Odam tabiati va xayoti"), Ban Stio esa "Kiyinchilik xakida kitob» kabi asar yozgan.

Kadimgi Xitoyda kup tarixchilar yashagan shuning- uchun u erda tarixnavislik xam rivoj topgan. Miloddan avvalgi 145—90 yillarda yashagan mashxur tarixchi Syam Styan "Tarixiy xotiralar" degan asar yozgan. Unda Xitoyning eng kadimgi davridan miloddan avvalgi II asr oxirigacha bulgan davri bayon etilgan. Milodning 32—92 yillarida yashagan Ban Gu esa uzining "Xan podsholigi tarixi" asarini yozgan.

Kadimgi Xitoyda diniy e'tikod juda erta shakllangan. Kadimgi zamonda yashagan boshka xalklarning diniy e'tikodlari kabi xitoyliklarda xam narsalarga, tabiatga, xayvonlarga va ota-bobolar arvoxiga topinish keng tarkalgan. Kadimgi xitoyliklar kuyosh, osmon, oy, sayyora, yulduzlarni, shuningdek, daryo, daraxt va toglarni uluglab ularga

e'tikod qilganlar. Ayni paytda ular ota-bobolarini xam iloxiylashtirganlar. Kadimda xitoyliklar sexr-joduga xam katta e'tibor berganlar. Sexrgarlik — ota-bobolar arvoxiga siginish bilan boglanib ketgan edi.

Mavzu №8

Kadimgi Yunoniston tarixini urganish manbalari va tarixshunosligi.

Reja:

1. Kadimgi Yunonistonning tabiiy sharoiti va axolisi.
2. Kadimgi Yunoniston tarixi davrlari.
3. Urganish manbalari.
4. Tarixshunosligi.

Tayanch atamalar.

Olimp, Egey, Urta dengiz, doriylar, axayyaliklar, perieklar, Krit-Mikena, Gomer, Arxaik, Klassik, Ellinizm, Gerodot, Fukidid, Ksenofont, Aristotel, Efor, Polibiy, Diodor, Esxil, Safokl, Aristofan, Iliada, Odisseya, Shliman, Evans.

Adabiyotlar.

1. V. I. Kuzihin. Istoriya drevney Grestii. M., 1986.
2. Gerodot. Istoriya. M-L., 1972.
3. Arrian. Poxod Aleksandra. M., 1963.
4. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
5. F. Boynazarov. Kadimgi davr tarixi. Jizzax, 2002 yil.
6. D. I. Stibukis. Drevnyaya Grestiya i Vostok. M., 1981.
7. Xomer. Iliada. Toshkent, 1988.

Kadimgi Yunoniston—Bolkon yarim oroli, Egey va Urta er dengizlaridagi bir kancha orollarni uz ichiga olgan mamlakat. U tabiiy jixatdan uch kismga: Shimoliy Yunoniston, Urta Yunoniston va Janubiy Yunonistonga bulinadi. Janubiy Yunoniston Peloponnes xam deyilgan. Yunoniston maydonning uchdan ikki kismni tog'lar egallagan. Tog'larning eng baland chukkisi Olimp bulab, uning balandligi 2911 metrni tashkil egadi. Tog'lar yosh, serkoya bulib. tik tushgan daralardan iborat. Tog'lardan katta-kichik daryo va soylar okib chikadi. Eng yirik daryolari Vardar va Maristadir.

Bolkon yarim orolining sharkida Egey, Mirtoy, janubida Krit, garbida Ioniya dengizlari joylashgan. Bu dengizlarda, xususan Egey dengizida yuzga yakin orol bor. Yarim orol va orollarda kemalar tuxtaydigan kultiklar kup.

Yunonistonning iklimi subtropik bulib, yozi unchalik issik emas, kishi mayin, ilik va seryomgir. Kish ikki oycha davom etib, bu faslda kuchli buronlar bulib turadi. Yilning kolgan boshka fasllarida moviy osmon bulutsiz bulib, kuyosh charaklab turadi. Yoz faslida daryolarning kupchiligi kurib koladi.

Yunonistonning 15% maydoni urmon bilan koplangan. Urmonlarda dub, kora kayin, kashtan, shumtol, .ok karagay, zarang, yongok va boshka daraxtlar usadi. U erda ayik;, buri, yovvoyi mushuk, chiyaburi, ilon, kaltakesak, toshbaka va xilma-xil kushlar yashaydi. Dengizda balik va suv xayvonlari juda serob..

Yunonistonda oltin, mis, kurgoshin, rux, temir kabi er osti kazilma boyliklari xam kup. Mamlakatda oxaktosh va marmartoshning xilma-xil turlari uchraydi. Turli xildagi ma'danlar va toshlarning kupchiligi metallurgiya va binokorlikning rivojlanshpiga

sabab bulgan. Toglar orasidagi kichik-kichik tekisliklar tuprogi unumdor bulib, dexkkonchilik va bogdorchilik uchun juda kulaydir.

Arxeolog va antropolog olimlarning bergan ma'lumotlariga karaganda Bolkon yarim oroli va Yunonistonda juda kadim zamonlardan, xususan kadingi tosh asridan boshlab odamlar yashab keladilar. Pelast, ioni, eoliya va axeyya kabilalari uning eng kadimti axolisi bulgan. Ammo Yunonistonning shimolida doriy kabilalari xam yashar edi. Miloddan avvalgi XII asrdan boshlab, urushkok doriylar dastlab Urta Yunonistonga, sung Janubiy Yunonistonga bostirib kirib, u erlarni istilo kilganlar. Doriylar boskini natijasida kupgina shaxar va kishloklar vayron bulgan, maxalliy axoli turli tomonlarga kuchib ketgan, madaniyat tushkunlikka uchragan. Lekin asta-sekin doriylar maxalliy axoli bilan aralashib, ularning madaniyatini kabul kilganlar. Egey dengizining sharkiy soxillari va orollarida eroniylar va kichik osiyoliklar xam yashaganlar.

Kadingi Yunoniston tarixi besh davrga bulib urganiladi. Bular kuyidagilar:

I. Egey yoki krit-mikena davri bulib, miloddan avvalgi III-II ming yilliklarni uz ichiga oladi. Bu davrda urugchilik tuzumi buzilib, ayrim xududlarda dastlabki sinfiy jamiyatlar va davlatlar yuzaga kelgan, doriylarning kuchib kelishi natijasida tamom bulgan;

II. Miloddan avvalgi XI-IX asrlardagi Yunoniston- doriylar istelosidan keyin ibtidoiy munosabatlarning vaktinchalik kaytarilishi va antik kulchilik shaklida sinfiy munosabatlarning umumyunon rivojlanishi davri;

III. Arxaik davr (miloddan avvalgi VIII-VI) – antik kuldorlik jamiyatlarni barkaror bulish vakti;

IV. Klassik davr (miloddan avvalgi V-IV asrlar) – antik polislarda kuldorlik munosabatlarning eng yukori darajada rivoj topishi;

V. Ellizm davri (miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmi – miloddan avvalgi I asrning 30-yillari), bu davrda Eron davlati yunon- makedonlar istilosidan kulaganidan sung Sharkda xam antik kulchilikning tarkalishi sodir buldi Ellizm davri dunyoning garbiy kismini Rim tomonidan, sharkiy kismini (Frotga kadar) Parfiya tomonidan zabt etishi bilan tugagan.

Kadingi Yunoniston tarixini urganish uchun asosiy yozma manbalar antik zamon mualliflarining yaratgan asarlaridir.

Dastlabki tarixiy asarlar logograflar tomonidan miloddan avvalgi VI-V asrlarda yaratilgan. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan Miletixik Gekatiy Yunon mamlakatining birinchi xaritasini chizgan.

Miloddan avvalgi V asrda chinakam tarixiy asar yaratgan Gerodotni (miloddan avvalgi 484-425yillar yashagan) “tarixning otasi” deb ataydilar. Bu muallifning “Tarix” asari Yunon-Eron urushlari mavzusiga bagishlangan bulsada, unda keltirilgan ma'lumotlar keng kamrovlidir. Unda Urta dengiz buyi mamlakatlari va Shark xalklari tarixiga oid ma'lumotlar bor.

Pepoponnes urushiga bagishlangan Fukidid (miloddan avvalgi 460-359) “Tarix”ida turli faktlarning sabablari va natijalari atroflicha taxlil kilinganligi bilan boshka manbalardan ajralib turadi. Miloddan avvalgi IV asr tarixnavisi Ksenofont esa nixoyatda mexnatsevar bulib, 120 dan ortik asar yozgan va unga shu xislati uchun “Attika asalarisi” deb lakab kuyilgan Bu muallifning “Ellinika”, “Anabasis”, “Xujalik xakidagi” nomli asarlarida Yunon davlatlarining tarixi bayon kilinadi.

Miloddan avvalgi IV asrda yashagan Aristotel politiyalarida davlatni boshkarish muassasalariga obzor berilgan bulsa, shu asrda yashagan tarixchi Efor "Tarix"ida doriylar bostirib kirgandan keyingi Yunoniston tarixinitasvirlashga xarakat kilgan.

Mashxur tarixchi Polibiy yashagan davr- miloddan avvalgi II uchun kayguli davr buldi. Chunki bu davrda yunonlar Rim asoratiga tushgan. Polibiy xam garov tarikasida Rimga yuborilgan. Muallif tuplagan boy ma'lumotlari asosida yaratgan «Umumiy tarix»ida Rim tomonidan Urta dengiz buyi mamlakatlarini istilo kilinishixamda Ellin davlatlariniRimga karshi kurashini aks ettirgan.

Miloddan avval I asrda yashagan tarixchi Diodorning «Tarixiy kutubxona», milodning I-II asrlarida yashagan Plutarxning « Kiyosiy biografiyalar», nomli asarlarida kimmatli ma'lumotlar bor.

Dodiylar kuchishidan keyingi davr xatini urganishda Gomenning «Iliada» va «Odissey» dostonlarining axamiyati bekiesdir.Garchi bu asarlardagi vokealar miloddan avval VIII asrda yozilgan bulsada , ular miloddan avval XI-IX asrlar xakida ma'lumot beradi.

Kadimgi Yunoniston tarixiga oid ma'lumotlar Gesiod, Arxilox, Esxil, Sofokl, Aristofon asarlarida, notiklar Lisiy va Demosfen (miloddan avval IV asr) nutklarida, Strabon va Pavsiniy asarlarida mavjuddir.

Epigrafiya, papirologiya va numizmatika fanlari soxasidagi tadkikotlar ma'lumotlari xam tarixni kup soxalarini tushunib olishga yordam beradi.

Bizning zamonamizgacha saklanib kolgan kadimiy inshootlar va ularning xarobalarini arxeologik urganish natijalari xam kizikarlidir.XIX asrning 70 yillaridan boshlab Genrix Shliman tomonidan Troyani ochilishi xakikiy jaxonshumul tarixiy vokealar bulib, Yunoniston tarixi saxifalarini yanada bostitdi.

Yangi zamondan boshlab kadimgi Yunoniston tarixiga doir kator asarlar yuzaga keldi. XVIII asr boshlarida italyan olimi VIKO Gomer aslida bulmagan, uning dostonlari esa xalk ijodi maxsuli, dedi. Shu asrda Germaniyada nashr etilgan V.Vinkelmannning «Kadimgi zamon san'ati tarixi» antikshunoslikda muxim boskich buldi.

XIX asrda B Nibur (daniyalik) va A.Bek (nemis tarixchisi) asarlarida kadimgi yunoniston tarixi kiesiy- tankidiy urganildi. XIX asrning birinchi yarmida ijod kilgan yana bir nemis tarixchisi fanga «Elliknizm» «ya'ni yunonlarga taklid kilish» atamasini kiritdi.

XIX asrning urtalarida Angliyalik olim J.Grot yaratgan 12 tomlik « Kadimgi Yunoniston tarixi» eng mukammal asarlardan biridir.

XIX asrda E.Meyer, G.Shliman A.Evans, K.Yuyuxer,R.Yu Vipper, M.Ventris singari olimlar kator tadkikotlar utkazdilar.

Krit Urta er dengizidagi katta orollardan biri. Bu orol odamlarning yashashlari uchun ancha kulayliklarga ega bulgan. Miloddan avvalgi VI—V ming yilliklardayok bu erga Kichik Osiyodan odamlar suzib kelishgan. Shu davrlarda Krit bilan Misr urtasida alokalar bulgan.

Miloddan avvalgi III—II ming yilliklarda Kritda xujalik rivojlanib, mulkiy tengsizlik, tabakalanish sodir bulgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi :urnida dastlabki kabila ittifoklari paydo bulgan. Bu ittifoklarga kabila sardorlari va oksokollaridan saylangan kishilar raxbarlik kilganlar. Knoss, Maliya va Fest axoli markazlari bu ittifoklarning eng yirigi bulgan. Keyinchalik bu axoli markazlari birlashib, dastlabki davlatlarga asos solingan. Kritning dastlabki xukmdorlari uzlari uchun muxtasham binolar kurdirganlar.

Arxeolog olimlarning ma'lumotlariga karaganda, binolar ikki, uch va xatto turt kavatli kilib solingan ekan.

Miloddan avvalgi 2000 yillarda Knossda ajoyib saroy kurilgan. Saroyning pastki kavatidagi binolar yordu chikarib turadigan kuduklar yordamida yoritilgan. Saroy xonalarining devorlari suvalib, odam, xilma-xil xayvon, usimlik suratlari va saroyda yashovchilarning xayotini ifoda etuvchi manzarali rasmlar bilan bezatilgan. Bino kirishda—ortikcha chikindi suvni tashkariga chikarib yuboradigan sopol kuvurlardan tashkil topgan kurilma bulgan.

Miloddan avvalgi 1750 yilda Kritda kattik er silkinishi va katta yongin bulib, Knoss, Fest, Maliya, Katoo va Zakrodagi saroylar vayron bulgan. Ammo tez orada saroylar kayta tiklangan. Knoss shoxi Minos butun Kritda xukmronlikni uz kuliga olib, kuchli dengiz davlati tuzadi. U Egey dengizidagi bir kancha orollarni, Kichik Osiyo, Bolkon soxilidagi erlarni, Attikadagi axoli yashaydigan joylarni xam uziga itoat ettiradi. Minos boshlik Krit dengizchilari Sistiliyaga xam suzib borganlar. Krit miloddan avvalgi XVIII—XV asrlarda Urta er dengizi xavzasidagi eng kuchli davlat bulib oladi.

Bu davrda Kritda dexkonchilik, chorvachilik va xunarmandchnlik yuksak darajada rivojlanadi. Kritliklar Urta er dengizida suza oladigan kuchli xarbiy va savdo kemalari yasaganlar. Shu tufayli ular Kichik Osiyo, Misr, Apennin, Balkon yarim oroli, Urta er dengizining sharkiy soxilidagi mamlakatlar bilan kizgin savdo-sotik ishlarini olib borganlar. Miloddan avvalgi XVI-XV asrlarda Krit juda kuchli davlatga aylanadi. Ayniksa, podsho Minos davrida bu davlat gullab-yashnaydi. U erda yangidan muxtasham binolar kurilib, madaniyat ravnak topadi.

Manosning ugillari davrida xam Krit kuchli davlat bulib koladi. Krit uzining chizikli xarflardan iborat yozuviga ega edi. Lekin bu yozuvni xanuzgacha xech bir olim ukib chikishga muvaffak bulmagan. Miloddan avvalgi XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Krit davlati inkirozga uchraydi. Orola yana kuchli zilzila bulib utadi. Zilzila, vulkon va dengiz tulkini kishlok, shaxar, bog va ekinzorlarni yuk kilib yuboradi. Shimoldan esa bu erga axeyya kabilalari bostirib kiradilar. Ana shu ikki vokea Krit shaxarlari va kishloklarining vayron bulishiga olib keladi. Shimoldan kelgan axeyyaliklar Kritda urnashib koladilar. Miloddan avvalgi XIII asrdan boshlab shimolda yashovchi doriy kabilalari Janubiy Yunoniston, Krit va unga tutash erlarga bostirib kirib u erlarni istilo kiladilar. Shundan keyin Krit madaniyati inkirozga uchraydi. Ammo Krit madaniyati Bolkon yarim oroli xalklari madaniyatiga katta ta'sir utkazadi.

Bolkon yarim orolining Tirinf, Pilos, Miken, Fiva, Afina, Fessaliya kabi joylarda xam miloddan avvalgi III-II ming yillik chegaralarida dastlabki davlatchalarbor edi. Shaxarlar kalin devorlar bilan urab olingan bulib, ichida ajoyib saroylar kurilgan edi. Shular orasida Pilos va Miken Peloponnesdagi dastlabki tabakaviy davlatlardan xisoblangan. Pilos Janubiy Yunonistonning garb tomonidagi kattagina erlarni egallagan edi. Pilos podsholigi kuldorlik davlati bulib, er podsho, ayrim kishilar va xalkka karashli edi. Ersiz oddiy kishilar ekin erlarni ijaraga olib ishlaganlar. Miloddan avvalgi III ming yillik oxiri II ming yillikning birinchi yarmida Pilos davlati ravnak topadi. U erda chorvachilik, dexkonchilik va xunarmandchilik rivojlanadi. Pilosda savdo xam tarakkiy etib, tashki mamlakatlar bilan dengiz orkali kizgin savdo ishlari olib borilgan. Kushni mamlakatlar bilan olib boriladigan savdo-sotik ishlari kuruklik yuli orkali amalga oshirilgan.

Davlat va xujalikning barcha soxalarida kullar va churilar xizmatidan foydalanilgan. Pilos podsholigi uzining kuruklikdagi va dengiz floti kushinlariga ega bulgan. Pilos podsholiga ma'muriy jixatdan viloyatlarga bulingan bulib, uni noiblar idora kilganlar. Noiblar va kushin boshliklari bevosita podshoga itoat etgan. Pilos podsholigi miloddan avvalgi XVI-XIII asrlarga kelib, ichki karama-karshiliklar va doriylarning xujumlari natijasida inkirozga uchragan.

Janubiy Yunonistondagi ilk kuldorlik davlatlaridan yana biri Mikendir. Miken podsholigi Peloponnesning shimoli-sharkiy chekkasida joylashgan. Unga miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida asos solingan. Miken madaniyatining asoschilari maxalliy yunonlar va Dunay buyi pasttekisliklaridan Bolkonga bostirib kelgan axeylar bulgan. Shuning uchun Miken madaniyati axeylar madaniyati xam deyiladi.

Miken davlati va madaniyati miloddan avvalgi XV— XIII asrlarda gullab-yashnagan. Miken kuchaygan vaktida Urta Yunoniston, Peloponnesga uz ta'sirini utkazgan. Bu davrda Miken podsholigining xujaligi ancha ravnak topgan. Kishlok xujaligi, chorvachilik, xunarmandchilik va savdo tarakkiy etgan. Mikenda dengiz kemasozligi xam rivojlangan.

Miken podsholikning bosh shaxri bulib, uning akropoli, ya'ni kal'a devorlari tepalik ustida bino kilingan. Akropol katta-katta xarsang toshlardan kurilgan edi. Kal'a devori ichida podsho saroylari, ibodatxona va boshka ma'muriy binolar bulib, ular juda xashamatli bulgan. Mikenliklar kritliklarning chizikli xatidan foydalanganlar. Miken madaniyatiga Krit madaniyati katta ta'sir kursatgan. Shu boisdan u Krit-Miken madaniyati deyiladi.

Miken uzining kuchli dengiz flotiga va kuruklik kushiniga ega bulgan. U dengiz floti orkali Urta er dengizi xavzasidagi mamlakatlar bilan kizgin savdo- sotik ishlari olib borgan. Krit-Miken jamiyati uzining ajoyib madaniyatiga ega bulgan. Krit-Miken madaniyati Urta er dengizi soxilidagi Kadimgi Evropa, Janubi-Garbiy Osiyo xalklari madaniyatiga katta ta'sir utkazgan.

Miloddan avvalgi XIII—XII asrlarda Bolkon yarim orolining shimolidagi erlarda juda kup kabilalar yashardi. Bu davrda ular ibtidoiy jamoa tuzumining sunggi boskichini uz boshlaridan kechirmokda edilar. Ularning turmush tarzi va madaniyati Krit-Miken madaniyatidan ancha past bulgan.

Miloddan avvalgi XIII—XII asrlarda doriy kabilalari Bolkon yarim orolining shimolidagi erlardan janub tomon siljib, Urta va Janubiy Yunonistonga bostirib kirganlar. Doriy kushinlari Miken, Tirinf va Pilos davlatlarini tor-mor etib, butun Janubiy Yunonistonni bosib olganlar. Doriylar Janubiy Yunonistonni. Ya'ni Peloponnesni xam zabt etganlar. Ular Krit oroliga xam bostirib kirib, uni xam istilo kilganlar. Doriylar istilosi davrida Kadimgi Yunonistonning shaxar va kishloklari vayron etilgan. Bu xol kup joylarda xujalikning orkaga ketishiga sabab bulgan. Ammo Urta Yunonistondagi Attika axolisi doriylarga karshilik kursatib, uz mustakilliklarini saklab kolgan. Yunoniston axolisining birismi doriylarga itoat etib, ular bilan aralashib ketgan. Doriylarga itoat etishni istamagan axoli uz vataniini tark etib, Attikaga, Egey va Urta er dengizlaridagi orollarga, xususan Kiprga ketib urnashib olganlar. Kuvgin kilinganlarning katta ismi Kichik Osiyoning garbiy soxillariga xam borib joylashgan. Doriylar istilosi Yunonistonda madaniyatning vaktincha tushkunlikka uchrashiga olib kelgan. Urugdoshlik munosabatlari kaytadan joriy etilgan. Miken, Tirinf, Pilos, shuningdek Krit kuldorlik davlatlari tugatilgan, kadimgi yunon yozuvi unutilgan.

Ayni paytda xunarmandchilik, binokorlik va madaniyatning boshka soxalari xam tushkunlikka uchraydi. Shunday kilib doriylar istilosi natijasida Krit-Miken jamiyati va madaniyati tanazzulga yuz tutadi. Leinn Yunonistondagi bu tushkunlik uzok davom etmaydi. Doriylar uzlari bilan temir kurollar olib kelgan edilar. Kelgindilar tez orada maxalliy yunon axoli bilan aralashib ketadilar va ularning madaniyatidan baxramand buladilar. Keyinchalik yunon dunyosida madaniyat kaytadan jonlanadi- Xujalikda temir kurollardan foydalanish dexkonchilik, xunarmandchilik, chorvazchilik, kemasozlik va savdo-sotikning, shuningdek madaniyatning rivojlanishiga olib keldi.

Mavzu № 9

Kadimgi Sparta. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Attika.

Reja:

- 1. Sparta davlatining paydo bulishi.**
- 2. Spartaliklar turmushi va tarbiyasi.**
- 3. Afina polisi. Solon isloxotlari.**
- 4. Attikaning xujaligi.**

Tayanch atamalar.

Lakonika, Messeniya, Peloponnes, Ilot, Attika, Afina, Tesey, Akropol, sinoykism, basileylar, geomorlar, demi urugi, polemarx, arxont, Drakon, Solon, Demos, xalk yigini, sisaxfiya, genokratiya, timokratiya.

Adabiyotlar.

1. V. I. Kuzihin. Istoriya drevney Grestii. M., 1986.
2. F. Boynazarov. Antik dunyo. Toshkent, 1988.
3. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002.
1. Antichnaya Grestiya. M., 1983.
2. O. Samadov. Kadimgi dunyo tasviriy san'ati. Buxoro, 2004.
3. Yu. S. Krushkol. Kadimgi dunyo tarixi. II kism. Toshkent, 1975.

Sparta kadimgi Yunonistondagi kuldorlik shaxar-davlatlaridan biri bulgan. Bu davlat Peloponnes yarim oroliniig janubi-sharkidagi Lakonika viloyatida joylashgan. Viloyat urtasidan Evrat daryosi okib utib, Lakon kultigiga borib kuyiladi. Daryo vodiysini uch tomondan baland va utish kiyin bulgan toglar urab turadi. Toglarda temir konlari kup. Lakonikaning dengiz kiroklari dengizchilar uchun nokulay bulgan. Daryo vodiysining tuprogi juda serunum bulib, serut yaylovlari chorva bokish uchun kulay edi. Spartaning iklimi mutadil bulib, kishi ilik, yozi esa dengiz xavosiga yakin bulgan.

Lakonikaning kulay geografik urni bu erda kadimdan boshlab odamlarning yashashiga imkon bergan. Miloddan avvalgi XII asrgacha bu erda miken madaniyatiga mansub bir kancha markazlar bulgan. Ularning eng yirigi Pilos edi Bu ulka kushni xujumkor kabilalar etiborini uziga tortgan. Lakonikadan garb tomonda Messeniya, shimoli-garb tomonda esa Arkadiya joylashgan.

Miloddan avvalgi XIII asr oxiri — XII asr boshlarida Lakonikani doriylar istilo kiladilar. Doriylar Evrat daryosining ung soxilida bir shaxar barpo kilganlar. Ular bu shaxarni Sparta deb, uzlarini esa spartaliklar deb nomlaganlar. Istilochi doriylar Lakonikani bosib olganlaridan sung kushni Messeniyani xam istilo kilganlar. Spartaliklar itoat ettirilgan axolining kupchilik kismini kul kilganlar. Kul kilingan maxalliy axoli ilotlar deb atalgan. Bu suzning ma'nosi—"asir olinganlar" demakdir. Istilochilar kuldorlar —

xukmdorlar tabakasini tashkil etgan. Lakonikadagi unumdor erlarni istilochi doriylar bulib olganlar. Bulib berilgan erlarda ilotlar ishlaganlar. Usha zamonda yashagan bir kishining suzlariga kura "ilotlar uzlari ogir axvolda yashashlariga karamay, erdan olinadigan barcha noz-ne'matlarning yarmini spartalik xujayinlarga etib berishar edi». Spartaliklar ilotlarga kup jabr-zulm utkazganlar. Shuning uchun ilotlar uz ezuvchilariga nafrat bilan karaganlar va kup marta kuzgolonlar kutarganlar. Spartaliklar ilotlarni kurkuvda tutish maksadida ular orasidagi jasur va fidokor kishilarni uldirib turganlar. Ilotlar bilan Spartaliklar urtasidagi kurash boskinchilar bilan maxalliy axoli urtasidagi, binobarin, kullar bilan kuldorlar urtasidagi murosasiz urush edi.

Ilotlar ustidan xukmronlikni saklash uchun spartaliklarga davlat — kushin, konunlar, kamokxona va sud zarur edi. Spartada butun xokimiyat spartaliklar kulida edi. Ular uz -yiginlarida aslzoda spartaliklardan oksokollar kengashini saylar edi. Davlatning ma'muriy va xarbiy ishlariga ikkita podsho raxbarlik kilgan. Ularning xar ikkalasi kengash a'zosi edi. Kengash davlat axamiyatiga molik bulgan muxim ishlarni xal kilar va aybdorlarni sud kilardi. Kurol-yarog kutarishga kurbi etgan spartaliklarning xammasi jangchi bulib, ularning xarbiy ishdan bulak boshka birorta ish bilan shugullanishi konun bilan ta'kiklangan. Tinchlik vaktlarida spartaliklar butun vaktlarini karorgoxlarda xarbiy mashklar bilan utkazardilar. Jangchilar saf tortib yurish, yugurish, nayza otish va boshka xil xarbiy mashklar bilan shugullanganlar. Spartalik jangchi yoniga kurol-yarogini kuyib uxlagan. Jangchilar yaxshi kurollangan bulib. Ular saf tortib jangga kirganlar. Bunday saf tortish falanga deyilgan.

Sparta egallagan joy Attikaga nisbatan kengrok bulib. erlari unumdor, utloklari kup edi. Bu erda xam axoli, asosan dekkonchilik kilib, bugdoy, arpa ekkan, tokzorlar, zaytunzorlar barpo kilgan. Ular bogdorchilik va sabzavotchilik bilan xam shugullanganlar. Yaylovlarda kuy. echki, koramol, ot, xachir bokilgan. Xujalik ishlari bilan maxalliy axoli — ilotlar shugullangan.

Xujalikning rivojlanishi, urushlarda tushgan uljalar Spartada mulkiy tengsizlik, tabakalanishning kuchayishiga olib kelgan. Bular esa uz urnida kuldorlik kurinishga ega bulgan davlatlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratgan. Bu davlat asta-sekin kuchaya borib, miloddan avvalgi VI asrlarga kelganda Yunonistondagi eng kuchli podsholarning biriga aylangan.

Spartaning bundan keyingi tarixi Afina davlati bilan boglanib ketadi.

Spartaliklar ugil bolalarni yoshlik chogidanok bulajak jangchilar va xukmron doiralarning sodik ximoyachilari etib tarbiyalaganlar. Kadimgi yunon muallifi Plutarxning yozishicha, ota uz gudak bolasini oksokollar xuzuriga olib kelgan. Agar bola soglom va bakuvvat kurinsa, otasiga kaytarilib, tarbiyalashga ruxsat berilgan. Agar bola nimjon va mayib-maxrum bulsa, jarga

uloktirilgan. Etti yoshga tulgan xamma ugil bolalar yigilib, aloxida guruxlarga bulingan. Ular bir xil sharoitda yashar edilar. Dovyurak va farosatli bola guruxga boshlik kilib kuyilgan. Boshkalar unga suzsiz itoat etishlari lozim edi. Bolalar juda ogir sharoitda xayot kechirib, uz tana va irodalarini chiniktirib borganlar. Ular doimo jismoniy mashgulotlar bilan shugullanganlar. Bolalarni ogrik azobiga chidam bilan bardosh beradigan kilib tarbiyalash maksadida ularni muntazam kaltaklab turganlar. Ularni shafkatsiz kilib tarbiyalash maksadida ularga ilotlarni urdirib turish vazifasi xam yuklangan, ular vakt-vakti bilan ilotlar yashayotgan joylarga, ishlayotgan dalalarga borib, ularni uldirganlar.

Bolalar va usmirlar kattalarning xamma aytganlarini kudok kokmay bajarishlari lozim bulgan. Ular kattalar ruxsat bersalargina gapirar edilar. Yunonlar xazil tarikasida tosh xaykallarning nidosini kuprok eshitsang-eshtitasanki, spartalik bolalarniig ovozi kamdan- kam eshtitan, deyishar edi. Spartaliklar kiska va anik gapirishga uratilgan. Spartaliklar usmirlarni kuchli, jasur va chidamli kilib tarbiyalaganlar Ular juda beraxm, shafkatsiz va kupol bulib, ukish va yozishni zurga bilganlar.

Urta Yunonistarning janubi-sharkida kattagina yarim orol bor. Shu erda Attika viloyati joylashgan bulib, er usti tekislik va togliklardan iborat bulgan. Attika soxillarida kayik va kemalarning turishi uchun chukur kultiklar kup bulgan. Attikada katta daryolar xam, boshka suv manbalari xam juda oz. Axoli mayda soylardan keladigan va kulda kazilgan kuduklardan suv ichgan. Bu erda suv kam bulishiga karamay axoli kadim zamonlardan boshlab kichik-kichik vodiylarda dexdonchilik, togli joylarda esa chorvachilik bilan shugullangan.

Attikaning garbiy kismidagi tekislik urtasida serkoya tepalik bulgan. Miloddan avvalgi II ming yillikda shu tepalik ustida Afina shaxri kurilgan. Uning atrofi mustaxkam devor bilan uralgan bulib yunonlar uni akropol deb ataganlar. Tepalikning yon bagirlarida Afina axolisining uylari joylashgan. Dushman xujum kilgan vaktlarda odamlar shu akropol — shaxar kal'asi ichiga kirib yashiringan. Afinaliklar doriylarning xujumini kaytarib, uz mustakilliklarini saklab kolganlar. Attikaning barcha axolisi viloyatning bosh shaxri nomi bilan afinaliklar deb atala boshlagan. Shundan boshlab Attikadagi shaxar-davlat—polis Afina nomi bilan mashxur bulib ketgan.

Afinani oksokollar kengashi va shu kengash saylab kuyadigaya 9 ta xokim idora kilar edi. Kengash a'zolari xokimlar va sudyalarning aksariyati fakat Afina aslzodalaridan bulgan. Aslzodalar orasidan chikkan bir yunon shoiri "xalkning kukragiga oyokni kattik kuyib, mis nayza bilan uni savalab turish kerak" deb yozgan edi.

Sudyalar jinoyat kilgan kishilarni kattik jazolaganlar. Ularning ixtiyorida jinoyatchi va itoatsiz kishilarni jazolaydigan mirshablar bulgan. Miloddan avvalgi VII asrda shunday konunlar chikarilgan ediki, ularda jinoyatchilarga kattik jazolar belgilangan. Chunonchi, birovning bogidan bir bosh uzum ugirlagan kishi ulimga maxkum kilingan. - Odamlar ana shu konunlar xakida "Ular siyox bilan emas, kon bilan yozilgan", der edilar. Bu konunlar Drakon ismli xokim tomonidan tuzilganligi uchun "Drakon konunlari" deb atalgan.

Aslzoda yunonlar, uz idora usullarini "aslzodalar xokimiyati" deb nomlaganlar. Chunki barcha idora ishlarida aslzodalar xizmat kilganlar.

Shu tarika miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Afinada aslzodalarning axoli ustidan xukmronligini kuch bilan, zurlik bilan tutib turadigan davlat karor topadi.

Afinada oddiy xalk demos deb atalgan. Demosning kupchiligini dexkonlar, xunarmandlar, dengizchilar, matrosalar va mardikorlar tashkil kilgan. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda demosning bir kismi boyib ketgan. Ularning orasidan boy savdogarlar, kema va ustaxonalarning egalari, shuningdek badavlat dexkonlar etishib chikkan. Ularning ixtiyorida xam kullar bulib, ayni paytda ular mardikor yollab ishlata edilar. Ammo demosning xukuki cheklangan bulib, ular aslzodalarga tobe edilar.

Afina davlatida demosning xammasi aslzodalar xukmronligidan norozi edi. Demos xam Afinani idora kilish ishlarida katnashish xukukiga ega bulish uchun kurash olib borardi. Oddiy dexkonlar esa karzlarni bekor kilishni, aslzodalardan erlarni tortib olib, uni ersiz va kam erli kishilarga taksimlab berishni talab kilar edilar.

Miloddan avvalgi VI asr boshlarida demosning aslzodalar xukmronligiga karshi noroziligi kuchayadi.

Kuzgolon kutargan demos bilan aslzodalar urtasida konli janglar bulib, xar ikki tomondan odamlar xalok buladi. Xalk xarakatidan kurkib ketgan aslzodalar yon berishga majbur buladilar. Miloddan avvalgi 594 yilda Solon degan kishi Afina xokimi etib saylangan. Solonga demos bilan aslzodalarni yarashtirish vazifasi topshirilgan. U aslzodalardan bulib, kambagallashib kolgan oiladan chikkan edi. Solon jasur jangchi, shoir va yaxshigina notik xam edi. U yoshligida dengiz savdosi bilan shugullangan. Solon uta bilimdon bulib, juda kup ukir va urganar edi. U xokim — arxont bulib saylangach, davlat ishlarini bajarishga va yangi konunlar chikarishga kirishgan. Solon afinaliklar xalk yiginini kullab-kuvvatlashiga tayanib, demos axvolini yaxshilash borasida kator isloxotlarni amalga oshiradi.

Oksuyak aslzodalar xukmronlik kilgan davrda dexkonlar ogir axvolda kun kechirishar edi. Ayniksa, ular karzdorlikdan jafo chekishardi. Solon isloxotlaridan biri dexkonlarning karzlarini bekor kilishdan iborat edi. Solonning taklifi bilan dexkonlarning karzlari bekor kilinadi, karzlari badaliga dexkonlar erlariga kuyilgan toshlar olib tashlanib, ular kullikdan xam ozod kilinadi. Ayni paytda erkin afinaliklarni kullik girdobiga tushurish takiklab kuyiladi.

Solon isloxotiga kura, Attikaning tub joy axolisi bulgan barcha erkaklar mol-mulkiga karab 4 toifaga bulingan. Afina fukarolari kushinda, xarbiy dengiz flotiga xizmat kilishga majburiy edi.

Solon islokotidan skng Afina davlatini idora etishda xalk yigini katta urin tuta boshlaydi. Xalk yiginida davlatning eng muxim ishlari xal bular, xokimlar, sudyalari va boshka mansabdor shaxslar saylanar edi. Attikaning voyaga etgan -barcha fukarolari sudya bulib saylana olishi mumkin edi. Kolgan mansabdor shaxslar esa nasl-nasabidan kat'iy nazar, fakat boy va uziga tuk afinaliklardan saylangan. Fetlar Attikaning ersiz kambagal kishilari edilar. Ularning 6u mansablarni egallashi mumkin emas edi. Solon isloxotlari Afinadagi aslzodalar kuch-kudratiga putur etkazadi va demosga Afina davlatini idora etishda katnashish imkonini beradi.

Ammo mamlakatda Solonning dushmanlari xam bor edi. Solon ular bilan kelisha olmay uz vatanini tark egadi. Uzok safardan sung Solon uz yurtiga kaytib keladi, shu erda uzok yashab, vafot etadi.

Aslzodalar bilan demos urtasidagi karama-karshilik Solon isloxotidan keyin xam davom etadi. Aslzodalar ilgari xokimiyatlarini kaytarib olishni xoxlashsa, demos kulga kiritilgan xukuklarni saklab kolish va yanada kengaytirishga xarakat kilardi.

Ammo aslzodalar xam, aslzoda bulmagan kuldorlar xam uz kullarini itoatda tutishni, yana kullar orttirishni xoxlar edilar. Shuning uchun xar ikki gurux kullar ustidan xukmronlikni saklab turgan Afina davlatini mustaxkamlashdan manfaatdor edi.

Shunday kilib, miloddan avvalgi VIII— VI asrlarda Afinada kuldorlik tuzumi urnatiladi va mustaxkamlanadi.

Attika asosan togli viloyat bulib, serunum tuprokli er maydoni juda oz edi. Toshlok va togli erlarda arpa va bugdoydan juda kam xosil olingan. Shuning uchun uning gallasi uziga etmagan. Galla kuprok chetdan olib kelingan. Ayni paytda Attikaning mexnatkash dexkonlari er kamligi, uning unumsizligi va kurgokchilikdan kup zarar kurardilar. Ammo Attika kadimdan uzining zaytunzorlari va tokzorlari bilan shuxrat kozongan.

Yunonistonda miloddan avvalgi VIII asrga kelib xunarmandchilik ancha rivoj topadi. Xususan, metall bilan ishlash rivoj topib, temirdan kilich, xanjar, nayza, pichok, omoch, ketmon, belkurak yasalgan. Ayni paytda kulolchilik, tukimachilik, kemasozlik, zargarlik, me'morchilik ancha tarakkiy etgan. Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, temirni uzlashtirish va undan kurollar yasab foydalanish kishlok xujaligi, xunarmandchilik, shuningdek xarbiy soxada xam katta uzgarishlarga olib kelgan. Yunon ustalari vino, yog va boshka ozik-ovkat maxsulotlarini saklash va ularni bir erdan boshka erga olib borish uchun loyni pishitib, ulardan amforlar —kushkulokli xumlar, kuzalar, idish-tovoklar yasaganlar.

Afinaliklar yarim orolning janubida kumush konlar ochib, ularni ishga tushirganlar. Miloddan avvalgi VII asrda Afinada kumush tangalar zarb kilina boshlagan. Keyinchalik bu pullar butun Yunonistonga tarkalgan.

MA'RUZA № 9.

Mavzu: Afina quldorlik demokratiyasi

Reja:

1. Afinada quldorlik demokratiyasining rivojlanishi.
2. Perikl faoliyati.
3. Quldorlik demokratiyasining cheklanganligi.

Adabiyotlar

1. Antichnaya Grestiya. Pod. red. E.S. Golubstovoy. M., 1983.
2. Istoriya Drevney Grestii. Pod. red. V.I. Kuzihina. M., 1986.
3. Qadimgi dunyo tarixi. Yu.S. Krushkol tahriri ostida. II qism. Toshkent, 1975.
4. Slovar antichnosti. M. , 1989.
5. Baynazarov F. Antik dunyo. Toshkent, 1989.

Tayanch tushunchalar

Xalq yig'ini, demos, Perikl, strateg, shahar-davlatlar ittifoqi, Quldorlik demokratiyasi, bule, gelieya, eklessiya, fetlar, areopag, agora.

Yunon-Eron urushlaridan keyin Afinaning dengizchilik qudrati yanada o'sdi. Miloddan avvalgi VI asrda Solon islohotlari natijasida mulkiy mavqega ko'ra siyosiy huquqlarga ega bo'lgan fuqarolar orasida I-Afina dengiz ittifoqining tayanchiga aylangan fetlar - Afinaning kambag'al fuqarolari mavqei yanada oshdi. Urushlar vaqtida ko'pchilik demokratik qatlamlari Afinada yo'qligi paytida aslzodalar hokimiyati va ularning tayanchi areopag kuchaygan bo'lsa, urushlardan so'ng demokratik qatlamlar kuchayib, siyosiy kurashlar avj oldi. Miloddan avvalgi 462 yilda demokratik guruhlar yo'lboshchisi Efialt o'tkazgan islohotlar natijasida areopag-Afina Oliy sudi faoliyatini chekladi. Buning uchun aslzodalar Efialtni o'ldirganlar. Shunga qaramay Afinada demokratik qatlamni siyosiy

mavqei mustahkamlanib borgan. Perikl davrida esa aslzodalar guruhi rahbari Fukidid (tarixchi emas) mamlakatdan badarg'a qilingach demokratik jarayonlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari paydo bo'lgan.

Qadim zamonlardan boshlab Afinada, shuningdek Attikaning boshqa joylarida ham xalq yig'inining ta'siri kuchli edi. Xalq yig'ini bir oyda 4 marta chaqirilgan. Oliy hokimiyat xalq yig'ini ixtiyorida edi. Xalq yig'inida qonunlar qabul qilingan, urush, sulh va davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan. ayni paytda xalq yig'ini davlatni boshqaradigan strateglarni va har xil mansabdor shaxslarni saylagan va o'rnidan olib tashlagan.

Yig'inda Attikaning barcha shahar va qishloqlaridan kelgan bir necha ming kishi ishtirok etgan. Yig'in qizg'in munozara bilan o'tgan. Minbarga chiqqan notiqning bir guruhi aslzodalar manfaatini himoya qilsa, ikkinchi guruhida esa demos, ya'ni oddiy xalq manfaatini himoya qilgan. Yig'in nihoyasida ko'rilgan masalalar yuzasidan ko'pchilik ovoz bilan tegishli qarorlar qabul qilingan.

Miloddan avvalgi 443 yilda xalq yig'ini Periklni davlatning oliy lavozimi bo'lgan birinchi strategi qilib saylandi. U aslzoda va badavlat oiladan chiqqan bo'lib, unga qarashli erlarda va ustaxonalarda o'nlab qullar, yollangan ishchilar ishlagan. Perikl iste'dodli va bilimli kishi bo'lib, ajoyib notiq ham edi. U minbarga chiqqanda o'zini vazmin va ulug'vor tutgan, dona-dona qilib, so'zlagan. Lekin u ba'zan g'azab bilan so'zlaganda yunonlar uni xuddi dushmanlarga yashin va chaqmoq otayotgan Zevsga o'xshab ketadi, deyishgan.

Perikl ko'p hollarda Attika demosini manfaatlarini ko'zlab ish tutgan. Shuning uchun ham demos va xalq yig'ini 15 yil surunkasiga uni birinchi strateg lavozimiga saylangan. Bu lavozimda u umrining oxirigacha ishlagan. U o'z faoliyati davomida butun Yunonistonni Afina qo'l ostida birlashtirishga harakat qilgan. U butun choralar bilan dengiz ittifoqini mustahkamlaydi. Unga yangi-yangi ittifoqchilarni jalb qiladi. Ittifoqda afinaliklarning hukmronlik qilishidan norozi bo'lgan ba'zi shahar-davlatlar ittifoqdan chiqishga uringan. Perikl bunday urinishlarga qarshi kurashib, turli yo'llar bilan ularni ittifoqda qolishga undagan. Ittifoqdan chiqib ketishga astoydil harakat qilganlarni esa qurol kuchi bilan ayovsiz bostirib turgan.

Perikl ittifoqchilarni itoatda tutish maqsadida ularning erlarida afinaliklarning mustamlakalarini tashkil qilgan. U Afina davlatini mustahkamlash uchun harbiy dengiz kuchlari va quruqlikdagi qo'shinlarni kuchaytirishga ham alohida e'tibor bergan. Perikl qishloq xo'jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga ham katta ahamiyat bergan. Afinada jamoat binolar qurish borasida xalq yig'iniga qator takliflar kiritgan. U yunon madaniyatining rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan davlat arbobi edi.

Yunonlar Afinadagi davlat idora usulini demokratiya deb ataganlar. Buning ma'nosi "demos" - xalq xokimiyati demakdir. Demos davlatidagi o'z hokimiyatidan quldorlik tuzumini hamda Afinaning ittifoqchilari ustidan hukmronlikni mustahkamlash maqsadida foydalangan. Afina demokratiyasining bu idora usulidan faqat quldorlarga emas, balki ma'dan va tosh konlaridagi qullar mehnatidan, shuningdek, ittifoqchilar to'laydigan a'zolik badalidan foyda ko'rib turadigan fetlar ham manfaatdor bo'lganlar.

Afina quldorlik demokratiyasi quldorlarning qullar ustidan hukmronligini ta'minlaydigan idora usuli edi. Yunonistondagi boshqa shahar-davlatlarning aksariyatida Afina demokratiyasi singari demokratiya o'rnatilgan.

Miloddan avvalgi V asrda quldorlik demokratiyasi o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Hamma erda bu demokratiya erkin kishilarning qullar ustidan bo'lgan hokimiyatini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu xokimiyatdan Attikadagi aholining ozgina qismi foydalangan, xolos. Otasi ham onasi ham tub afinalik bo'lgan erkak kishilargina Afina quldorlik davlatining to'la huquqli fuqarosi hisoblangan. Ular xalq yig'inida faol qatnashib, saylash va saylanish huquqiga ega edilar.

Ammo boshqa viloyatlardan Attikaga ko'chib kelgan kishilar va ularning avlod-ajdodlari Afina fuqarolari ega, bo'lgan huquqlardan mahrum bo'lgan. Ular Attikada yashayotganliklari uchun alohida soliq to'lashlari kerak edi. Odamlarni va ma'muriyatni aldab o'zini Attika fuqarosi qilib ko'rsatgan yoki ko'rsatishga harakat qilgan kishilar qul qilingan. Afinalik ayollar xalq yig'inlarida qatnashtirilmagan, ularning asosiy vazifasi - "uy-ro'zg'orni yaxshi tutish va eriga itoatda bo'lish" dan iborat edi.

Afina fuqarolari qatoriga kirish juda qattiq cheklab qo'yilgan. Ammo qadimgi dunyoning hech bir joyida davlatni idora etish ishlarida va ijtimoiy hayotda kishilar Afinadagidek, faol qatnashmaganlar. Erkin afinaliklar eng og'ir ishlarini qullar zimmasiga yuklab, ko'p vaqtlarini shaharning jamoat joylarida madaniy, ma'rifiy va maishiy ishlar bilan o'tkazganlar.

Afinada odamlar eng ko'p to'planadigan va eng gavjum joy - bu agora edi. Ertalab bu erga savdo-sotiq qilinadigan peshtaxtalar qo'yilgan va kechgacha savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Kechgacha borib savdo-sotiq tugagach, peshtaxtalar yig'ib olingan.

Agoraning bir tomonida Afina davlatining qonunlari o'yib yozilgan tosh taxtalar turgan. Unda xalq yo'g'ini bo'ladigan kun va sudda qanday ishlar ko'rinishi to'g'risidagi bildirishlar osib qo'yilgan. Xalq yig'ini bo'ladigan kuni boylar ham, hunarmandlar ham, bozorda buyumlarni sotib bo'lgan savdogaru dehqonlar ham, xullas hamma agorada to'planishgan.

Afinaliklar agorada turli yangiliklardan xabardor bo'lishgan. Qadimgi yunonlar uchun agorada borish, bizning zamondagi odamlar uchun gazeta, radio va televideniya qanday ahamiyatga ega bo'lsa, xuddi shunday ahamiyatga ega edi. O'spirinlar, yigitlar va katta yoshdagi erkaklar gimnasiylarda to'planishar edilar. Bu erda mashhur olimlar ma'ruzalar o'qigan, suhbatlar o'tkazib turilgan. Shu erning o'zida yunonlar tajribali muallim rahbarligida kurash, har xil o'yin va mashqlar bilan shug'ullanganlar.

Konstertlar quyiladigan katta binoda Yunonistondagi eng yaxshi sozanda va xonandalar musobaqalari o'tkazilgan. Musobaqalarda ko'plab musiqa ishqibozlari ham to'plangan, kim yutib chiqqanligini ham shular belgilagan. Yiliga bir necha marta teatr tomoshalari qo'yilib, turilgan va bu tomoshalarda o'ng minglab tomoshabinlar hozir bo'lishgan.

Shunday qilib, Afinadagi ijtimoiy hayot erkin kishilarning aqliy va jismoniy jihatdan kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bergan edi. Ayni paytda Afina iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham ravnaq topadi. Afinaning savdo-sotig'i Egey, Marmar, Qora va Ioniya dengizlarida juda avj olib ketgan. Miloddan avvalgi V asrning birinchi yarmida Afina O'rta er dengizi havzasidagi eng kuchli davlatga aylangan edi.

MA'RUZA № 9.

Mavzu: Peloponnes urushi. Polis tizimining inqirozi

Reja:

1. Peloponnes urushining sabablari va boshlanishi.
2. Urushning borishi va oqibatlari.
3. Polis tizimining inqirozi.

Adabiyotlar

1. Frolov E. D. Rojdenie grecheskogo polisa. L., LGU, 1988.
2. Marinovich L. P. Grecheskoe nayomnichestvo IV v do n.e. i krizis polisa. M., 1975.
3. Gluskina L.N. Problema' sostialno-ekonomicheskoy istorii Afin IV v. do n.e. L., 1975.
4. Dovatur A.I. Rabstvo v Attike IV-V vv. do n.e. L., LGU, 1980.
5. Istoriya Drevney Grestii. Pod. red. V.I. Kuzihina. M., 1986.

Tayanch tushunchalar

Peloponnes ittifoqi, Potideya voqeasi, Megara, Arxidam urushi, Perikl taktikasi, dengiz urushi, Amfipol jangi, Afina flotining mag'lubiyati, Oligarxiya, dehqonchilik va hunarmandchilik inqirozi, polislar inqirozi.

Yunoniston shahar-davlatlari o'rtasida miloddan avvalgi 431-404 yillarda bo'lib, o'tgan urushlarni Peloponnes urushlari deyilib, uni Fukidid "Tarix"idan, Ksenofontning "Grestiya tarixi", Diodorning "Tarixiy kutubxona asarlari", Plutarx va Aristofan ma'lumotlari orqali bilib olamiz.

Urushlar qadimgi Yunoniston quldorlik jamiyatida ichki ziddiyatlarning jamlanishi va keskinlanishi natijasida kelib chiqqan ediki, biz ziddiyatlarga viloyatlarning notekis rivojlanishi asos bo'lgan.

Yunonistonda 1-Afina dengiz ittifoqi bilan bir qatorda Peloponnes ittifoqi bilan bir qatorda ham bor edi. U miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida tuzilgan bo'lib, unga Megara, Korinf, Agros, Tirinf kabi shahar-davlatlar a'zo edilar. Bu ittifoqqa Sparta boshchilik qilgan. O'tmishda 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida sulh shartnomasi ham tuzilgan edi. Sulh shartnomalarida ittifoqchilarning bir-birlariga qo'shin tortmasliklari, tinch-totuv yashashliklari ta'kidlangan.

Ammo keyingi voqealar 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida qator ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu ziddiyatlarning tagida u yoki bu ittifoqning butun Yunonistonda hukmronlikni qo'lga kiritish masalasi yotardi. Bu masala urushni keltirib chiqaradigan bosh omil edi. Urushning boshlanishini tezlashtirgan birinchi mojaro, bahona qadimgi yunon dunyosining g'arbiy chekkasidagi Epidami koloniyasi va Kerkira orolida yuz bergan edi. Bu joylar Yunonistondan Janubiy Italiya va Sistiya oroliga boriladigan dengiz yo'lidagi ikki muhim bekat edi. Shu ikki joydagi mojarolar tufayli Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lgan Korinf bilan Afina o'rtasida ham nizo chiqqan. Urushni tezlashtirishga sabab bo'lgan ikkinchi bahona Xalkidika yarim orolidagi Korinf

koloniyasi Potideyada ham yuz bergan. Bu erda ham 1-Afina ittifoqi bilan Korinf o'rtasida mojaro chiqqan. Megara shahar davlati Korinf tomonini olgan. Megara va Korinf Peloponnes ittifoqining boshlig'i Spartani Afinaga qarshi urushga undagan. Shundan keyin uchinchi mojaro ham yuz bergan. Afina xalq yig'ini 1-Afina ittifoqi a'zolarining Afinaga qarashli barcha buxtalarida Megara savdo-sotiq kemalarining to'xtashlarini taqiqlagan. Shu tariqa Afina bilan Megara o'rtasida keskinlik kuchaygan. Endi urushning boshlanishi muqarrar edi.

Miloddan avvalgi 431 yilda Korinf va Megaraning tezlashi bilan Sparta Afinaga qarshi urush harakatlarini boshlab yuborgan. Urushga Sparta podshosi Arxidam II boshchilik qilgan. Shuning uchun bu urush Arxidam urushi ham deyiladi. Bu Peloponnes urushining birinchi bosqichi bo'lib, urush miloddan avvalgi 431 yildan 421 yilgacha davom etgan.

431 yilda Sparta qo'shinlari Attikaga bostirib kirganlar va dehqon xo'jaliklarini vayron qilib, dehqonlarni talaganlar. Natijada ularning o'zlari oziq-ovqat masalasida og'ir ahvolga tushib qolganlar. Afinaliklarni qat'iy jangga torta olmagan spartaliklar Peloponnesga qaytishga majbur bo'lganlar. Miloddan avvalgi 430 yilda spartaliklar Attikaga yana hujum qilganlar. Shu yili Afinada vabo tarqalib, ko'p odam qirilib ketgan. Urushda har ikki tomon ham jiddiy g'alabaga erisha olmagan. Xalq va aksariyat dehqonlar Afina boshiga tushgan kulfatlarning aybdori Perikl deb hisoblangan. Xalq yig'ini miloddan avvalgi 430 yili uni hokimiyatdan chetlashtirgan. Ammo bir yildan keyin uni oqlab, qaytadan birinchi strateg qilib saylaganlar. Qartayib qolgan Perikl ko'p o'tmay yuqumli kasallikdan vafot etgan. Uning vafotidan keyin hokimiyat tepasiga Kleon saylangan. Shu davrda 1-Afina ittifoqi a'zolari orasida Afinaga qarshi guruhlarining harakati kuchaygan. Bu guruhlariga Sparta yordam berib turgan.

Miloddan avvalgi 429 yilni hisobga olmaganda, spartaliklar har yili Attikaga hujum qilib turganlar. Ular bog'-rog'larni, uzumzorlarni va boshqa ekinzorlarni kesib, qirqib, vayron qilib tashlaganlar.

Miloddan avvalgi 428 yilda Lesbos orolidagi Mitilena shahrida Afinaga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Afinaliklar Mitilenadagi qo'zg'olonni shavqatsizlik bilan bostirganlar. Ayni paytda 100 trierdan iborat Afina kemalari Peloponnes sohillariga yuborilgan. Ular Spartadan Lesbosga yordam uchun yuborilishi mumkin bo'lgan harbiy kemalarning yo'lini to'sib turishlari kerak edi. Spartaliklarning Beotiya, Attika va boshqa joylarda olib borgan janglari yaxshi natija bermagan.

Miloddan avvalgi 430-426 yillar orasida Afina Peloponnesning g'arbiy sohillarida g'olibona urushlar olib boradi. Afinaliklarning harbiy-dengiz kuchlari Kefalleniya va Zakinf orollarini qo'lga kiritganlar. Yunonlar Akarnaniyadagi Solliy shahrini ham bosib olganlar. Korinfni dengiz tomondan himoya qilib turadigan Navpakt shahrini ham afinaliklar qo'lga kiritganlar va uni mustahkamlaganlar. Afinaliklar Messeniya sohillarida ham spartaliklarga qattiq zarba berishgan.

Miloddan avvalgi 424 yili afinaliklar Kifera orolini ham bosib olganlar. Shundan keyin Sparta va uning ittifoqchilari og'ir ahvolga tushib qoladi. Demosfen va Kleon boshchiligidagi Afina floti Sfakteriya orolida ham spartaliklarni tor-mor qilganlar. Mag'lubiyatga uchragan spartaliklar sulh so'raganlar. Kleon Sparta qabul qila olmaydigan shartlarni taklif qilgan. Natijada urush yana davom etgan.

Afinaliklar dengiz urushida qo'lga kiritgan g'alabalaridan mag'rurlanib, ittifoqchilarning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaganlar. Afinaliklarning miloddan

avvalgi 425 yil Korinfga qarshi uyushtirgan navbatdagi yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Bir yildan keyin Delinda bo'lgan jang ham afinaliklarning butun Peloponnes urushi davridagi eng katta mag'lubiyati edi.

Miloddan avvalgi 427-424 yillarda afinaliklar Sistiliyaga ham bir necha bor muvaffaqiyatli yurish qilganlar. Ammo sistiliyaliklar afinaliklarga bu erdan ketishni taklif qilganlar. Afina qo'mondonligi o'z imkoniyatlarini hisobga olib, Afina qo'shinlarini Sistiliyadan olib ketishga majbur bo'lgan.

Spartaliklarning tajribali sarkardasi Brasid rahbarligidagi qo'shini Egey dengizining shimolida joylashgan Xalkidika orolidagi bir qancha shaharlarni, shuningdek, Amfiopol shahrini ham ishg'ol qilgan. Bu shahar ilgari afinaliklar qo'lida edi. Amfiopolning qamal qilinishi afinaliklarni ancha tashvishga solib, qo'ygan va erga Kleon boshliq Afina qo'shinlari etib kelgan. Ammo Brasid qo'shinlari afinaliklarga qo'qqisidan hujum qilib, ularni tor-mor qilganlar.

Amfiopol yaqinidagi jangda Kleon ham, Brasid ham halok bo'lgan. Miloddan avvalgi 422 yilda Amfiopol afinaliklarning qo'lidan butunlay ketgan.

Amfiopol yonidagi mag'lubiyatdan keyin Afinada sulh tuzish tarafdorlarining ta'siri kuchaygan. Har ikki tomon urushdan charchagan. Afinada sulh tuzish tarafdorlariga Nikiy boshchilik qilgan. Nikiy Afina davlatining rahbari bo'lib qolgach, Afina bilan Peloponnes ittifoqlari o'rtasidagi sulh muzokaralari boshlangan.

Miloddan avvalgi 421-yilda Afina bilan Sparta o'rtasida 50 yilga mo'ljallangan sulh tuzilgan. Bu sulhning tashabbuskori Nikiy bo'lganligi uchun u Nikiy sulhi nomini olgan. Sulh shartlariga ko'ra, tomonlarning qo'shinlari ishg'ol qilgan erlarini bir vaqtda bo'shatib chiqishlari lozim edi. Agar Spartalik ilotlar qo'zg'olon ko'tarsalar, afinaliklar spartaliklarga yordamga borishlari kerak edi. Ammo sulh shartlari to'la bajarilmagan. Afinaliklar Meseniya pilosida, spartaliklar esa, Frakiyadagi Amfiopolda qolganlar. Spartaning ittifoqchilari Korinf, Megara va Fiva Nikiy sulhini tan olmagan. Nikiy sulhi bilan Peloponnes urushining birinchi bosqichi tugagan.

Miloddan avvalgi 415-404 yillar Peloponnes urushining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Urushning bu bosqichi afinaliklarning Sistiliyada muvaffaqiyat qozonsalar, bu Spartani mag'lubiyatga olib kelishi va Afinani ulug' Yunonistonning etakchisi qilib qo'yishi mumkin edi.

Miloddan avvalgi 415 yilda afinaliklar 260 ga yaqin harbiy va yuk kemasini, 32 ming kishidan iborat qo'shinlarini Sistiliyaga jo'natishga tayyorlab qo'yganlar. Afina floti Alkiviad, Nikiy va Lamaxlar rahbarligida Sistiliyaga jo'nab ketgan.

Afina qo'shinining qo'mondonlaridan biri Alkiviad xoinlik qilib, spartaliklar tomoniga qochib o'tgan. U spartaliklarga afinaliklarning barcha sirlarini aytib, Attikaga muntazam qo'shin yuborib, uni vayron qilish kerak degan taklif kiritgan. Alkiviad qochganidan keyin afina flotiga Nikiy, Demosfen va Lamaxlar boshchilik qilganlar. Nikiy urushining to'xtashiga umid boqlab, urush harakatlarini paysalga solgan. Bu bilan sistiliyaliklarga mudofaaga tayyorgarlik ko'rishlari uchun katta imkoniyat yaratib bergan. Ayni paytda Sistiliyadagi yunonlar ham afinaliklarga dushmanlik munosabatda bo'lganlar.

Afinaliklarning Sirakuzani qamal qilishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqqan. Miloddan avvalgi 413 yili Demosfen boshliq Afina floti Sparta va uning ittifoqchilari tomonidan tor-mor etilgan. Nikiy va Demosfenlar qatl etilgan. Ko'p o'tmay Lamax ham halok bo'lgan. Asir qilib olingan afinaliklar qul qilib sotilgan. Sistiliyadagi mag'lubiyat Afinaning obro'sini tushirib yuborgan.

Sistiliya fojeasidan keyin omad Sparta qo'shinlari Afinadan 22 km narida joylashgan Dekeleya qishlog'ini bosib oladi. Ular shu erdan turib afinaga xavf solib turganlar. Spartaliklar Afina qullariga murojaat qilib, Dekeleyaga qochishga da'vat etganlar va ularga ozodlik berishni va'da qilganlar. Ko'p o'tmay 20 mingdan ortiq qul Dekeleyaga qochib o'tgan. Afinaliklar shaharni himoya qilish uchun barcha choralarini ko'rganlar.

Afina dengizida kuchli bo'lib, uni Sparta Afina flotiga qarshi kurashish uchun Eronga murojaat qilgan. Eron shohi Doro II bu taklifni qabul qilgan. Jangda spartaliklar g'alaba qilgan taqdirlarida Yunonistonning Kichik Osiyodagi erlarining hammasini Eronga berishga va'da qilingan. Ammo bu davrda Afina butun kuchini flotni qayta tiklashga va o'z ittifoqchilari bilan aloqani mustahkamlashga sarf qilgan.

Sparta bilan Afina floti Egey dengizining turli joylarida to'qnashib, goh unisi, goh bunisi engib turgan. Bu davrda Alkiviad yana Afina tomonga o'tib, Spartaga qarshi kurashda qatnashgan. Ammo spartaliklar forslar yordamida yangi flot tashkil qilganlar. Bu flot 405 yili qobiliyatli sarkarda Lisandr rahbarligida Gelespondni egallab, u erdagi afina flotini tor-mor etgan. Bu bilan Afinaga Qora dengiz sohillaridan keladigan g'alla yo'li bilan to'silgan. Afinani quruqlikdan Dekeleyadan kelgan qo'shinlar, dengizdan esa Lisandr qo'shinlari qurshab olgan. Afinada ocharchilik boshlangan. Afina oligarxlarining rahbari Feramenning Sparta bilan olib borgan sulh muzokaralari natija bermagan. Feramen boshliq oligarxlar Spartaga taslim bo'lish tarafdorlari edilar.

Miloddan avvalgi 404 yili ochlikdan madori qurigan afinaliklar spartaliklarga taslim bo'lganlar. Afinani Sparta qo'shinlari egallaganlar, uni Pirey bilan bog'lagan devorlar qulatilgan. Afina arxesi tarqatilgan, u Spartaga qaram davlatga aylantirilgan. Oligarxlar Kritiy va Feramen boshchiligida o'ttizlar tiraniyasini tuzib, hokimiyatdan o'z qo'llariga olganlar. Kritiy va boshqalar o'zlariga yoqmagan kishilarni jazolab, quvg'in ostiga olganlar, aholini talaganlar. Feramen unga norozilik bildirganida uni qatl etganlar.

Sobiq demokrat Frasiyul Beotiyaga qochib bekigan. U afinalik qochoqlardan otryad tuzib, chegaradagi Filani egallagan. Frasiyul Pireyga yaqinlashar ekan, uning tarafdorlari ko'payib boradi. Bir necha janglardan so'ng oligarxlar va spartaliklar mag'lubiyatga uchranganlar. Kritiy ham o'ldirilgan.

Miloddan avvalgi 403 yili Afinada demokratiya qayta tiklangan. Ammo Afina Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lib qolgan. Shunday qilib, to'xtab-to'xtab 27 yil davom etgan Peloponnes urushi Spartaning g'alabasi bilan tugagan. Bu urush butun nomi olamiga, xususan Afinaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotiga va harbiy qudratiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu hol Yunonistonning butunlay zaiflashishiga olib kelgan.

Peloponnes urushi miloddan avvalgi V asrdayoq yuzaga kela boshlagan jarayonni tezlashtirib, xo'jalik tarmoqlarida ishlatilayotgan qullar sonini ko'payishiga olib keldi. Ularning mehnatidan foydalanish hunarmandlar, yuk tashuvchilar va batraklarning ahvoliga halokatli ta'sir ko'rsatib, ularni lyupen-proletariatga aylantirib qo'ydi, o'zining doimiy ishidan mahrum qildi. Ishlab chiqarish ishiga qullarning ishi deb qarash ana shu davrdan keng rasm bo'ldi, buning natijasida esa halol mehnat qilib pul topishga bo'lgan rag'bat susaydi.

Ko'p dehqonlar va hunarmandlar urush harakatlarida uzoq vaqt ishtirok qilishi oqibatida, er-maydonlar qarovsiz, tashlandiq bo'lib qoldi. Buni quldorlar arzon-garovga sotib olganlar. Boy quldor-plutokratlar ("o'z boyligi bilan kuchlilar") ayni vaqtda ham sudxo'r, ham savdogar, ham er egasi bo'lganlar.

Miloddan avvalgi IV asrlarda polislarda eski xalq lashkari ham o'z ahamiyatini yo'qotgan. Buning sababi fuqarolar o'rta tabaqasining barham topganligida edi. Chunki ular xalq lashkarlarini asosini tashkil qilar edi. Yollanma askarlar harbiy kuchlarning asosiy turi bo'lib qoldi.

Demak, miloddan avvalgi IV asr davomida polislarning ham iqtisodiy, ham sostial ham harbiy sohalaridagi inqiroz chuqurlashib borgan ekan.

MA'RUZA № 10.

Mavzu: Ellin davlatlari

Reja:

1. Salavkiylar davlati.
2. Yunon-Baqtriya podsholigi.
3. Ellin davri madaniyati.

Adabiyotlar

1. Shofman A.S. «Raspad imperii Aleksandra Makedonskogo». M.,1984.
2. Ranovich B.A. «Ellinizm i ego istoricheskaya rol». M., 1950.
3. Arrian «Poxod Aleksandra».M., 1963.
4. Istoriya Drevney Grestii. Pod.red. V.I. Kuzishina. M., 1986.
5. Slovar antichnosti. M., 1989.
6. Sagdullaev A. «Olovli o'qlar». Toshkent, 1993.

Tayanch tushunchalar

Ellin davri, I. Drayzen, Salavka I, satrapliklar, xo'jalik taraqqiyoti, Yunon-Baqtriya, Deodod I, Zariasp, Arshak, Evtidem I, Antiox III, Demetriy, Evkradit, Geleokl, Koyne, Kosmopolitizm, Individualizm, Arximed parragi, gelepól, museyon, stoiklar va Epikurchilar.

Iskandar boshliq yunon-makedoniyaliklar istilosidan keyingi 300 yillik davr Ellin davlatlari tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ellin davlatlari tarkibiga Yunoniston, Makedoniya, Misr, Eron, Turonning janubiy viloyatlari va O'rta er dengizining sharqidagi mamlakatlar kirgan. Bu davlatlar Iskandar vafotidan boshlab miloddan avvalgi 30-yillarga qadar umr ko'rgan.

«Ellinizm» atamasini bundan 130 yilcha oldin nemis tarixchisi I. Drayzen ishlatgan edi. Bu davr qadimgi yunon va qadimgi sharq iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning qo'shilib isitishi va bir-biriga ta'sir ko'rsatishi davridir.

Turon o'lkasidagi janubiy viloyatlarga ham ellin madaniyati kuchli ta'sir etgan. Ayni paytda o'lkamizning qadimgi madaniyati ham ellin madaniyatiga barakali ta'sir ko'rsatgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Iskandar vafotidan keyin u istilo etgan o'lkalarda Ptolemeylar, Salavkiylar, yunon-Baqtriya, Pergam podsholiklari, Makedoniya va Yunoniston kabi davlatlar qaror topadi.

Iskandar vafotidan so'ng Misrda Ptolemey va ptolemeylar boshqargan kuchli ellin davlati qaror topadi. Ptolemey Iskandarning mashhur lashkarboshlaridan biri edi. Shuning uchun davlatning nomi ham Ptolemeylar podsholigi deyilgan. Bu podsholikka Afrika shimolidagi Kirenaika, Kipr oroli, Janubiy Suriya, Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy va g'arbiy sohilidagi joylar, yunon shaharlari va Egey dengizidagi ayrim orollar ham kirgan. Bu o'lkalar o'z mahalliy boshqarmasini saqlab qolgan bo'lsalar ham ptolemey tayin etgan noiblarning nazorati ostida ish olib borganlar. Ptolemeylar quruqlikda hamda dengizda kuchli qo'shinga ega bo'lib, quruqlik va dengizdagi yo'llarni nazorat qilib turganlar.

Ptolemeylar podsholigi salavkiylar bilan olib borilgan tinimsiz urushlar natijasida kuchsizlanib qolgan. Miloddan avvalgi 30 yilda ptolemeylar mulki hisoblangan Misr Rimga qo'shib olingach, podsholik o'z mustaqilligini yo'qotgan.

Salavkiylar davlati Yaqin va O'rta Sharqdagi eng yirik ellin davlati edi. Unga Iskandar tuzgan davlat inqirozga uchragach, Bobur satrapligining hukmdori Salavka I Nikator (350-280) tomonidan asos solingan. U ham Iskandarning do'sti va sarkardalaridan biri edi. Salavka va Salavkiylar davlati kuchaygan vaqtda Persida, Midiya, Suriya va Kichik Osiyoning katta qismi podsholik tarkibiga kirgan. Saltanat boshida podsho turib, joylardagi satrapliklarni strateglar boshqarganlar. Salavkiylar podsholigi o'sha davrdagi eng kuchli quldorlik davlati edi.

So'nggi salavkiylar davrida bu davlat kuchsizlanib, miloddan avvalgi 190 yilda rimliklar bilan bo'lgan urushda engilib, ko'p viloyatlaridan ajraladi. Rim imperiyasi kuchaygach, miloddan avvalgi 64 yilda Salavkiylar podsholigining g'arbiy qismini o'z viloyatiga aylantiradi.

Salavkiylar podsholigi kuchaygan vaqtda uning xo'jaligi ancha rivojlanadi. Daryo va soy bo'ylaridagi erlarda dehqonchilik, bog'dorchilik, dasht va tog' yaylovlarida esa chorvachilik ancha taraqqiy etgan. Salavkiylar podsholigining kuchaygan davrida sharqdan g'arbga va shimoldan janubga o'tadigan savdo-tijorat yo'llari podsholikka qarar edi. Shuning uchun bu erda savdo rivoj topib, shahar va qishloqlarda hunarmandchilik ravnaq topadi.

Miloddan avvalgi III asrning birinchi yarmida Salavkiylar podsholigining sharqiy viloyatlari podsholikka itoat etishni istamay, unga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Bundan foydalangan ayrim yunon noiblari mahalliy oqsuyak zodagonlarga tayanib, o'zlarini mustaqil podsho deb e'lon qiladilar. Xususan, salavkiylarning Baqtriyadagi noibi Deodod I miloddan avvalgi 250 yilda o'zini Baqtriya podshosi deb e'lon qiladi. Davlat ishlariga mahalliy kishilar ham jalb qilinadi. Shuning uchun bu davlat bu davlat Yunon-Baqtriya nomi bilan atalgan. Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona, Choch, Davon, Sharqiy Eron ham kirgan edi. Podsholikning bosh shahri va poytaxti Zariaspi edi.

Yunon-Baqtriya podshosi Deodod I Parfiyani o'z podsholigiga qo'shib olish maqsadida Salavka podshosi bilan ittifoq ham tuzgan. Ammo bu ittifoq kutilgan natijani bermagan. Keyinchalik Parfiyaning kuch-qudrati oshib ketgach, Deodod I ning o'g'li Deodod II Parfiya shohi Arshak II bilan ittifoq tuzib salavkiylarga qarshi kurash olib borgan.

Deodod I va Deodod II lar davrida Yunon-Baqtriya davlati ancha kuchayadi. Ilgari Baqtriya tobe bo'lgan So'g'diyona noibi Evtidem I ham Yunon-Baqtriya podsholigini qo'lga kiritish niyatida edi. Miloddan avvalgi 230 yilda Evtidem I Deodod II ni Yunon-Baqtriya taxtidan ag'darib, taxtni o'zi egallaydi.

Miloddan avvalgi 208-206 yillarda Salavka podshosi Antiox III Turon va Sharqiy Erondagi satrapliklarni qaytarib olish uchun shiddatli kurash olib boradi. Miloddan avvalgi 208 yili Antiox III qo'shinlari Tajan (Oh) daryosining quyi oqimidagi joyda Evtidem I ning o'n ming kishidan ortiq qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi. Evtidem I chekinib Zariasp qal'asiga yashirinadi va uni qattiq himoya qiladi. Antiox III qo'shinlari qal'ani 2 yil qamal qiladilar. Miloddan avvalgi 206 yilda Antiox III bilan Evtidem I o'rtasida sulh shartnomasi tuziladi. Antiox III Evtidem I ning shohligini tan olishga majbur bo'ladi.

Evtidem I va uning o'g'li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya podsholigi kuchayadi. Yunon-Baqtriya podsholari o'z tasvirlari tushirilgan oltin va kumush tangalar zarb etganlar. Miloddan avvalgi 190-180 yillarda Seyistondan Sind daryosigacha bo'lgan joylar Yunon-Baqtriya podsholigiga qo'shib olinadi.

Miloddan avvalgi 175 yilda Demetriy Hindistonda jang olib borayotgan vaqtda uning sarkardasi Evkradit qo'zg'olon ko'tarib, Yunon-Baqtriya taxtni egallaydi. Demetriy hokimiyatini qaytarib olish uchun bo'lgan janglarning birida halok bo'ladi. Shundan keyin bir butun Yunon-Baqtriya podsholigi ikkiga bo'linib ketadi. Birinchisi g'arbiy viloyatlarni o'z ichiga olgan Yunon-Baqtriya davlati bo'lib, uni Evkraditning vorislari boshqaradilar. Ikkinchisi poytaxti Sakala bo'lgan Yunon-Hind davlati bo'lib, u Panjob viloyatini o'z ichiga olgan. Uni Demetriy va uning vorislari boshqarganlar. Miloddan avvalgi 162 yilda Evkradit qo'shinlari Panjobni bosib oladilar. Ammo ko'p o'tmay Yunon-Hind shohi Menandr Evkradit qo'shinlarining hujumini qaytaradi.

Shu davrda Parfiya podshosi Mitridat I Yunon-Baqtriyaning g'arbiy viloyatlarini bosib oladi.

Miloddan avvalgi 160 yilda Evkradit bilan o'g'li Geleokl o'rtasida nizo chiqib, Evkradit o'z o'g'li tomonidan o'ldiriladi. Geleokl davrida Yunon-Baqtriya podsholigi kuchsizlanib, uning ixtiyorida faqat Baqtriya qoladi. Miloddan avvalgi 140-130 yillarda Sharqiy Turkiston va Turondan bostirib kirgan sak qabilalari va yuz-chjilarning shiddatli hujumlari natijasida Yunon-Baqtriya davlati ag'darib tashlanadi. Keyinchalik bu erda Kushon podsholigi tashkil topadi.

Shu tariqa 200 yilcha davom etgan Yunon-Makedoniya hukmronligiga barham beriladi. Yunon-Baqtriya davlati Turon va Eron xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta ahamiyatga egadir. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida quldorlik rivoj topib, shahar va qishloqlar ancha yuksaladi.

Bu erda qishloq xo'jaligi va chorvachilik ham ancha ravnaq topadi. Hunarmandchilik, zargarlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, me'morchilik, to'qimachilik ham juda yaxshi rivojlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Yunon-Baqtriya podsholigi Turon, Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib boradi. Bu davrda mahalliy xalqlar bilan yunonlar madaniyatining o'zaro ta'siri natijasida o'lkada ellin madaniyati qaror topib rivojlanadi.

Ellinizm davri madaniyati murakkab va xilma-xil edi. Bu davrda ayrim mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaydi, ko'plab harbiy yurishlar natijasida Sharq bilan tanishish yunonlar va makedonlarning bilim doirasini kengaytirdi.

Ellin madaniyati uchun harakterli narsa uni yunoncha tus olganligida edi. Hukmron sinf va aslzodalar orasida umumyunon tili koyne («umumiy» demakdir) keng tarqaldi. Koyne bilan birga mahalliy tillardan ham foydalanish davom etgan.

Miloddan avvalgi IV asrda yunonlar orasida «Kosmopolitizm» («dunyo fuqaroligi») dunyo qarashi shakllandi. O'zi tug'ilib o'sgan yurtidan o'zga joylarda yurgan kishilar uchun boshqa kishilar madadiga ishonmay faqat o'zigagina ishonish kayfiyati asosida individualizm, istiqbolga umidsizlik bilan qarash psixologiyasi asosida esa fatalizm dunyo qarashlari shakllandi.

Bu zamonda texnika ancha rivojlandi. Sharq va yunon tajribasining o'zaro ta'siri natijasida texnika sohasidagi yutuqlar yanada boyidi. Arximed Misr charxpalagini takomillashtirib, «Arximed parragi» ni yaratdi. Harbiy sohada ham tosh otar to'plar yaratilgan. Qal'alarni qamal qilish uchun esa maxsus g'ildiraklar ustida o'rnatilgan harakatlanuvchi minoralar gelepolar – «shahar olarlar» ixtiro qilingan. Dengizchilikda musson shamollaridan foydalanib, uzoq safarlarga chiqish boshlangan.

Miloddan avvalgi II asrda Yunon Gippal Hindistonga borish uchun kema safariga chiqib, musson shamollaridan foydalandi. Portlarda mayoqlar, omborlar va boshqa binolar qurildi.

Arxitekturada ham muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Klassik davrda yunon arxitekturasida asosiy bino **Peripter** –ibodatxona bo'lsa, endilikda asosiy bino **Peristel** – xususiy uy bo'lgan. Shaharlar odatda reja asosida quriladigan bo'lgan.

Quldorlik jamiyati sharoitida arzon mushak kuchlarining mavjudligi ishlab chiqarishda mexanik vositalarni, mexanik dvigatellarni ishlatish yo'llarini qidirishni susaytirib qo'yar edi.

Miloddan avvalgi I asrda Pont podsholigida ixtiro qilingan suv tegirmoni butun ellinizm davrining eng katta texnik yutug'i edi. Fan sohasida ham bu zamonda ajoyib yutuqlar qo'lga kiritildi. Poytaxtlarda ilmiy markazlar va kutubxonalar vujudga keldi. Iskandariya, Pergam, Antioxiya, Afina eng yirik ilmiy markazlar edi. Iskandariya kutubxonasida 700 ming popirus o'ramidan iborat boy kitoblar fondi bor edi. Saroy qoshida kutubxonadan tashqari Museyon – ilmiy muassasa ham tashkil qilinib, unda olimlar uchun yotoqxona ham bor edi.

Falsafada stoiklar va epikurchilar oqimlari yuzaga keldi. Stoiklarning asoschisi Zenon (miloddan avvalgi IV-III a.) Afina agorasida naqshin peshayvon stoya ostida va'z aytib ta'lim berganligi uchun shunday nomlangan. Ularning fikricha hamma narsa – fikr, so'z, olov ... hammasi jismdir. Butun olam uzluksiz yonib, turadigan olovdir, deydi ular.

Epikur (miloddan avvalgi IV-III a.) ta'limoti asosida uning izdoshlari epikurchilar deyilgan. Ular Zenoncha qarama-qarshi o'laroq olamning tuzilishini Demokritning atom nazariyasiga asosan izohlaydilar.

MA'RUZA № 11.

Mavzu: Qadimgi Rim tarixiga muqaddima. Tarixiy manbalar

Reja

1. Qadimgi Rim tarixiga kirish. Rim tarixini davrlashtirish.
2. Qadimgi Italiyaning geografik o'rni va aholisi.
3. Qadimgi Rim tarixining asosiy manbalari.

Adabiyotlar

1. Istoriya Drevnego mira. Rasstvet drevnix obhestv. Pod.red. I.M. Dyakonova i dr., M., 1989.
2. Mayak I.L. Rim pervo'x starey: Genezis Rimskogo polisa. M., MGU., 1983.
3. Shifman I. Sh. Stezar Avgust. M. 1996.
4. Tit Liviy. Istoriya Rima ot osnovaniya goroda. M. 1989.
5. Gay Svetoniy Trankvill. Jizn dvenadstaty stezarey. M. 1998.
6. Plutarx. Izbranno'e jizneopisaniya. T.I. M., 1987; T.II. M., 1987
7. Qadimgi dunyo tarixi. Yu.S. Krushkol taxriri ostida. II-k. Toshkent, 1976 yil.

Tayanch tushunchalar

Antik davr, klassik qulchilik, Italiya atamasi. Etrusk, ligur, lotin, venet, osk, samnit. Yilnomachilar, Fastlar. Publiy, Piktora, Katon, Polibiy, Stisteron, Salyustiy, Stezar, Tit Liviy, Diodor asarlari, Tassit, Svetoniy, Trankvill, Strabon. Qadimgi yozuvlar, numizmatik ashyolar.

Quldorlik davlatlari orasida Italiyada tarkib topib miloddan avvalgi II asr o'rtalaridan boshlab butun O'rta dengiz atroflarida hukmronlikni qo'lga kiritgan davlat Rim davlati nomi bilan ataladi. Bu davlat birta shahar - Rim polisi asosida paydo bo'lib, keyin butun Italiyani O'rta er dengizi afrofidagi o'lkalarni, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika Evropaning katta qismini o'ziga bo'ysundirdi. Miloddan avvalgi I va miloddan avvalgi II asrlar davomida uning chegaralari g'arbda Piriney yarim orolidan Sharqda Kaspiy bo'ylarigacha, Shimolda Britan orollaridan Janubda Fors qo'ltig'igacha bo'lgan joylarni o'z ichiga olardi. Bu davlat ulkan quldorlik saltanatiga aylanib, qariyb 500 yil umr ko'rgan.

Rim davlatida qulchilik munosabatlari beqiyos darajada taraqqiy qilib, o'zining klassik darajasigacha etgan. Dunyoning biror mamlakatida qullarni qattiq ezish va ularga shavqatsizlarcha munosabat Rimdagidek bo'lmagan.

Zamon o'tishi bilan quldorlik xo'jaligi va qulchilik tizimiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar ham o'z umrini yashab bo'lgan, natijada qudratli saltanat quladi.

Boshqa quldorlik davlatlaridan farqli tarzda Rim quldorlik davlati tarixini o'rganish natijasida bu munosabatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va xalokatga uchrash jarayonlarini bir davlat qiyofasida kuzatish mumkin.

Yana Rim tarixini o'rganish natijasida qullar mehnati va erkin kishilar mehnati samaralaridan bahramand bo'lib o'ziga xos madaniyat yaratilganligi, bu madaniyatdan keyingi zamonlarda butun dunyo xalqlari ham bahramand bo'lganliklarini bilib olamiz.

Qadimgi Rim tarixini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganiladi.

1. Podsholik davri. Miloddan avvalgi 509-yilgacha bo'lgan zamon.

2. Respublika davri. Bu zamon miloddan avvalgi 509-miloddan avvalgi 30-yilgacha davom etgan.

3. Imperiya davri. Miloddan avvalgi 30 yildan melodiy 476-yilgacha davom etgan.

Imperiya davrini o'zini 284 yildan boshlab alohida Dominat bosqichiga ham ajratiladi.

Qadimgi Italiya Apennin yarim oroli, Sistiliya, Korsika, Sardiniya va boshqa mayda orollarni o'z ichiga olgan mamlakatdir. Uni shimol tomondan Alp tog'lari o'rab turadi. Yarim orolni sharqdan Adriatika, Janubdan Ioniya, g'arbdan Tirren dengizlari yuvib turadi. Dengiz qirg'oqlarida kemalar to'xtashi uchun qulay buxtalar bor. Italiya hududida inson xo'jalik faoliyati uchun qulay bo'lgan tekislik va unumdo erlar ko'p.

Qadimgi yunonlar yarim orolning janubiga kelganlarida bu erda ozuqabop o't, o'simlik va chorva mollarining ko'pligini ko'rib hayratga tushganlar. Shuning uchun ular yarim orolning janubiy qismini «Italiya» –«buzoqlar mamlakati», deb atagan ekanlar. Yarim orol qadimda qalin o'rmonzorlar bilan qoplanib, u erda dub, qayrag'och, qora qayin, kashtan va boshqa daraxtlar o'sib, yotgan. Qadimgi Rimda azaldan boshlab olma, anor va boshqa mevali daraxtlar ham yaxshi meva bergan.

Qadimgi Rimning hayvonot dunyosi o'rta Evropanikiga o'xshash bo'lib, u erda bug'u, tog' eskisi, yovvoyi cho'chqa, yovvoyi mushuk, ayiq, bo'ri, tulki, mayda yirtqichlar, sudralib yuruvchilar, parrandalar ko'p bo'lgan. Yarim orol va dengizlarda baliqlar va har turli dengiz hayvonlari serob bo'lgan.

Apennin yarim orolida er osti qazilma boyliklari ham ko'p bo'lgan. U erdan va orolardan oltin, kumush, temir va mis, turli rangdagi marmartoshlar qazib chiqarilgan. Yarim orolning janubidagi Sistiliya orolining iqlimi issiq bo'lib, o'simliklar olamiga boydir.

Apennin yarim orolining qulay geografik muhiti juda qadim zamonlardayoq ibtidoiy odamlarning diqqat e'tiborini o'ziga tortgan. Arxeolog olimlar Apennin yarim orolidan qadimgi tosh asriga mansub odamlarning makonlari, mehnat qurollari, g'or devorlaridan esa qadimgi rasmlarni topganlar. Ayni paytda yarim oroldan 80-100 ming yillar muqaddam yashagan qadimgi odamlarning bosh suyagi va mehnat qurollari ham topilgan. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davriga kelib Italiya va orollarda aholi ko'paya boshlagan. Bu davrga kelib odamlar g'orlarni tark etib, chaylalarda yashaganlar, dastlabki chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Italiya aholisi misdan, II ming yillikda jezdan va II ming yillikning oxirida – I ming yillikning boshidan boshlab temir qurollardan foydalana boshlagan. Temir qurollardan foydalanish qishloq xo'jaligining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikda Italiya etrusk, ligur, lotin, venet, osk, va samniy (samnit) kabi turli qabilalar yashar edilar.

Ligurlar va etrusklar mamlakatning qadimgi qabilalaridan bo'lib, ular Italiyaning shimoli-g'arbiy tomonlarida yashaganlar. Mamlakatning shimoli-sharqiy chekkasida venetlar, uning janubi bilan Sistiliya orolida italiyalik qabilalar yashaganlar. Ayni paytda yarim orolda lotin qabilalari ham yashaganlar. Ular yashagan joy Lastiya deb atalgan. Lastiyaga yondosh Kampaniya tekisligida okslar yashaganlar.

Miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlab yunon dengizchilari Apenin yarim oroli va Sistiliya oroli sohillariga kelib o'rasha boshlaganlar. Qadimgi rivoyatlarga ko'ra, Krit podshosi Minos Sistiliyada halok bo'lgan ekan. Sistiliyada sikanlar, elimlar, Korsikada va sardiniyada sardlar yashaganlar.

Qadimgi Rim tarixini o'rganish uchun asosiy manbalar Rim tarixchilarining tarixiy asarlarini, arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari, epigrafika va numizmatika ma'lumotlaridir.

Rim davlati miloddan avvalgi II asrdan boshlab, o'rta er dengizi bo'ylaridagi qudratli davlatga aylangan zamondan boshlab Rimda yunonlar ta'siri kuchaygan. Yunon tili, fani va madaniyati Rimga ta'sir qila boshlagan.

Rimning ilk tarixchilari yilnomachilar bo'lib, voqea va hodisalar kalendar tarzida yozib borilgan. Bu ish bilan miloddan avvalgi VI-V asrlardan boshlab fastlar-ibodatxonalarining bosh kohinlari shug'ullanib borganlar. Dastlabki yilnomalar miloddan avvalgi 390-yilda Rimga gallar hujumi va istilosi vaqtida yo'q qilib yuborilgan.

Keyingi zamonlarda yaratilgan yilnomalarni miloddan avvalgi 130 yilda Publiy tomonidan to'planib, nashr qilinib, «Buyuk yilnomalar» deb ataldi.

Miloddan avvalgi III-II asrlardagi yilnomachilarni tarixida katta yilnomachilar deb atash rasm bo'lib, Stisteronning aytilishicha: “ular qisqa qilib yozishni bayonotning birdan-bir fazilati deb bilib, faqat kunlar, kishilar, voqea va u yuz bergan joyni ko'rsatib yozganlar, xolos”.

Katta yilnomachilarning eng mashhuri Kvint Fabiy Piktordir. U miloddan avvalgi III asr oxirida yashab, asari “Yilnomalar”ni yunon tilida yozgan. Asarda Italiyada Eneyning paydo bo'lishidan boshlab, ikkinchi Puni urushigacha bo'lgan Rim tarixi bayon qilingan.

Lotin tilidagi birinchi tarixiy asarni esa Mark Porstiy Katon (miloddan avvalgi 234-149 yillar) nomlanib, unda “Italiya va Ispaniyadagi ajoyib ko'ringan voqealarni” yozgan. Katon haqida Stisteron: “Yunoniston va Rim tarixida u bilmagan biron bir voqeani topish qiyin” deb yozgan edi.

Miloddan avvalgi II asrning 30 yillaridan boshlab Rim respublikasida «yangi» yoki «kichik» yilnomachilar deb atalgan mualliflar – Lustiy Steliy, Antipatr, Semproniy Azellionlarning asarlari paydo bo'ldi.

Rim respublikasi davrining eng yirik tarixchilaridan biri, miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida yaratilgan “Umumiy tarix” asarining muallifi Polibiydir. Asarda miloddan avvalgi 264-146 yilda manbalarni sinchiklab tekshirgan, mamlakatlarning geografik holati va iqlimini o'rgangan. Polibiy tarix chinakam voqealarni izohlashga va bu voqealarning keyinchalik taraqqiyot yo'lini belgilashga imkon beradi, ya'ni tarix “nasihat berishi”, “o'rgatishi” mumkin, amaliy jihatdan foydali bo'lishi mumkin deb faraz qiladi.

Miloddan avvalgi I asr Respublikaning qulashi va imperiyaning qaror topishi davridir. Davlat shaklining o'zgarishi keskin kurashlar sharoitida yuz bergan. Bu davr

manbalari shu zamonda yashagan Mark Tulliy Stisteron, Gay Yuliy Stezar, Gay Salyustiylarning asarlaridir. Katton va Varronlarning asarlari esa Italiya qishloq xo'jaligini o'rganishda yordam beradi.

Rim imperiyasi davri va Dominat davri tarixini o'rganishda, Valeriy Paterkul, Korneliy Tastit, Svetoniy Trankvill, Dion Kassiy, Ammian Marstellin, Strabon, Katta Pliniylar yaratgan asarlar asosiy manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Qadimgi Italiya va O'rta dengiz bo'ylarida o'tkazilgan arxeologik tekshirishlar natijasida ochilgan obidalar, shaharlar (Pompey, Timgad shaharlari) ham muhim tarixiy-ashyoviy manbalardir.

Qadimgi yozuvlardan Etrusk yozuvlari miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda mansubdir. Bunday yozuvlar to'qqiz mingdan ortiq bo'lib, uzoq vaqtdan beri o'qilmay kelinmoqda. 1988 yilda Rossiyadagi Chelyabinsk Unisersiteti olimi, filolog Tubert etrusk yozuvlarini o'qib chiqishda katta muvaffaqiyatga erishdi.

Miloddan avvalgi VI asrga mansub ilk lotin yozuvi namunalari Prenestin tuqasi va Romul qabri joylashgan erdan topilgan «Qora tosh» dagi yozuvlardir.

Tangalarni o'rganish natijasida esa afsonaviy manzaralar, e'tiqodlar, san'at, arxitektura tarixini o'rganishga yordam beradi.

MA'RUZA № 12.

Mavzu: Miloddan avvalgi VIII-III asrlarda Rim va Italiya

Reja:

1. Etrusklar jamiyati.
2. Rim shahrining vujudga kelishi.
3. Patristiylar va Plebeylar kurashi.
4. Rim Respublikasining o'rnatilishi.

Adabiyotlar

1. Istoriya drevnego mira. Rasstvet drevnix obshestv. M., 1989.
2. Mayak I.L. Vzaimootnosheniya Rimai italyanstev III- II vv. do n.e. M-, 1971.
3. Nemirovskiy A.I. Etruski. Ot mifa k istorii. Voronej, 1983.
4. Shtaerman E.M. Rasstvet rabovladelcheskix otnosheniy v Rimskoy respublike. M.1964.
5. Qadimgi dunyo tarixi. Yu.S. Krushkol tahriri ostida. II qism. Toshkent, 1976.

Tayanch tushunchalar

Tusklar, rasenlar, etrusklar, Lukomon, Lautnalar, Etrusk shaharlari. Etrusklar ittifoqi, me'morchilik, madaniyat ravnaqi. Romul va Rem, etti tepalik, patristiylar, plebeylar.

Apennin yarim orolining tabiiy iqlimi qulay, dengiz kasb-korligi ham rivojlangan joylarida miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan boshlab sinfiy jamiyat alomatlari yuzaga kelib borgan.

Italiyaning g'arbiy qismida yashagan qadimgi Etrusklar xo'jalik sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib, dastlabki davlat tuzgan xalqlardan biri edi.

Qadimgi rimliklar ularni «tuskalar» yunonlar «tirrenlar»: o'zlari esa o'zlarini «rasen» lar deb nomlaganlar. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda etrusklar Padus (Po) daryosining quyi oqimi bilan Tibr daryosi oralig'idagi erlarda yashaganlar. Etrusklar uchraygan vaqtlarda Ilva, Korsika orolining sharqiy sohillarini va Kampaniyaning bir qismini ham bosib olganlar.

Etrusklarning kelib chiqishi qadim zamonlardayoq olimlar diqqatini o'ziga tortgan. O'sha davrning ko'p olimlari etrusklarning ota-bobolari Apennin yarim oroliga Kichik Osiyoning g'arbiy qismidan ko'chib kelib joylashganlar, keyinchalik mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar, deb hisoblaydilar. Olimlarning boshqa bir guruhi esa ularni Italiyaning azaliy tub aholisi, deb aytganlar. Arxeolog va tilshunos olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, ular Italiyaga miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillikning boshlarida ko'chib kelganlar.

Miloddan avvalgi VIII asrda etrusklar shimoliy va o'rta Italiyaning katta qismida tarqalib yashar edilar. Etrusklar mirishkor dehqonlar bo'lib, ular Italiyada birinchi bo'lib sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ular bug'doy, arpa, loviya, uzum ekib, ulardan yuqori hosil olganlar, chunki Italiyada daryolar ko'p, tuprog'i unumdor edi. U erda kanop o'simligini etishtirish juda rivojlangan edi. Etrusklar kanopdan mato to'qiganlar. Bu matolardan kemalarga elkan pardasi, yomg'ir va quyosh nuridan kishini muhofaza qiladigan soyabonlar yasaganlar. Kanopdan to'qilgan matodan yozuv vositasi sifatida ham foydalanilgan. Kitob varaqalari ham kanop matosidan bo'lgan.

Etrusklar chorvachilik bilan qizg'in shug'ullanganlar. Ular asosan qoramol, qo'y va cho'chqa boqqanlar. Etrusklar yilqichilik bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Ular otni muqaddas hayvon deb bilganlar. Sharqda bo'lgani kabi otdan faqat harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Xo'jalikning rivojlanishi, mulkiy tengsizlik va tabaqalar ilk shahar-davlatlarning qaror topishiga olib kelgan.

Etrusklarda mis, jez va temir bilan bog'liq hunarmandchilik juda rivojlangan edi. Ustalar ma'dandan turli mehnat, uy-ro'zg'or buyumlarini yasaganlar. Ustalar askarlar uchun turli qurol-yarog', dubulg'a, zirx, ot anjomlari va boshqa narsalar ham ishlab berganlar.

Etrusklar me'morchilik, zargarlik va kulolchilikda ham katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Me'morlar toshdan ajoyib binolar, gumbazlar va arklar ishlaganlar. Ular sopol idishlarning mohir ustalari edilar. Ustalar sopol idishlarni bo'yamay bo'rtma naqshlar bilan bezaganlar.

Etrusklar jamiyati quldorlik jamiyati bo'lgan, Ularda hukmdorlar *luxomon*, qaram kishilar *latunlar* deb atalgan. Etrusk aslzodalari qul va qaram kishilar mehnatidan keng foydalanganlar. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida qishloqlar obodonlashib, shaharlarga aylana borgan.

Etrusklar ko'p shaharlarini dengiz bo'ylarida bunyod qilganlar. Shuning uchun ular kemasozlikda katta yutuqlariga erishganlar. Dengiz sohilidagi barcha shaharlar o'zlarining jangovar kemalariga ega edilar. Etrusklar mohir va dovyurak dengizchilar bo'lib, Tirren dengizida huqmrionlik qilganlar. Ularning dastlabki davlati o'n ikki shahar-davlatlarning

ittifoqidan iborat bo'lgan. Rim va Kapuya ularning eng yirik shaharlaridan edi. Bu shahar-davlatlar miloddan avvalgi VIII asrda tashkil topgan. Miloddan avvalgi VII asr va VI asrning birinchi yarmida etrusklar jamiyati kuchayadi. Shu davrda ular Lastiyni va uning bosh shahri Rimni bosib oladilar. Etrusklar Kampaniyaning ishgol qilib, Kapuya shahrini bino qilganlar.

Miloddan avvalgi VI asr oxirlaridan boshlab shimoldan gall qabilalari, janubdan esa yunonlar etrusklar erlariga bostirib kirganlar. Miloddan avvalgi V asrning oxiri va IV asrning boshlarida gall qabilalari Apennin yarim orolining markaziy viloyatlarigacha kirib kelib, ko'p shaharlarni vayron qilganlar.

Miloddan avvalgi 524 yilda Qum shahri tirani Aristodem qo'shinlari etrusklarni tor-mor qiladi. Bir qancha vaqtdan keyin Aristodem qo'shinlari Lastiyadagi Aristiya yonidagi jangda etrusklarni yana mag'lubiyatga uchratadi.

Miloddan avvalgi 474 yilda yunonlar Qum shahri yaqindagi dengiz jangida etrusklarning flotini tor-mor etadi. Shimolidan gallar, janubdan yunonlarning ketma-ket bergan zarbalari natijasida etrusklar ko'p mulklaridan ajraladilar. Shu davrda Apennin yarim orolidagi bir qancha shaharlar etrusklarning shahar-davlatlari ittifoqiga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar.

Shunday qilib, shimoldan gall, janubdan yunonlarning hujumlari va Italiya shaharlaridagi qo'zg'olonlar natijasida etrusk jamiyati kuchdan ketib qulaydi. Ular siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'lgach, asta-sekin Italiya aholisi bilan qo'shib, ularga singib ketganlar.

Ular Apennin aholisining madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutadilar. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida etrusklar Finikiya alfavitini asosidagi o'z yozuvchilarini yaratganlar. Olimlar juda ko'p etrusk yozuvchi namunalarini topganlar. Lekin bu yozuv hali ham o'qib chiqilgan emas. Hozir olimlar etrusk yozuvlarini o'qish ustida ish olib bormoqdalar.

Etrusklarda me'morchilik ancha yaxshi rivojlangan edi.

Etrusk ustalari toshdan katta-katta imoratlar solib, ularni gumbazlar va arklar bezaganlar. Ularda haykaltaroshlik ham taraqqiy etgan. Haykaltaroshlar loy, tosh va jezdan ajoyib haykallar yasaganlar. Ular ajoyib kulolchilik buyumlari ishlaganlar. Etrusklar madaniyati Rim va Italiya madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Etrusklarning diniy e'tiqodi yunonlarnikiga ancha o'xshab ketadi. Ular tabiat hodisalariga, narsalarga va har xil xudolarga e'tiqod qilganlar. Ularda ibtidoiy din shakllari ancha ustunlikka ega edi.

Rim Italiyaning eng qadimgi shaharlaridan biridir. Italiyaning markaziy qismidan Tibr daryosi oqib o'tib, u Tirren dengiziga quyilgan. Tibr daryosining quyi qismi tekislik bo'lib, uning har-har erida tepaliklar qad ko'tarib turgan. Bu tekislikda lotinlar qabilasi yashar edi. Tibr dengizga quyiladigan joydan 25 km ichkaridagi tepaliklarda miloddan avvalgi XI–V asrlardayoq qator qishloqlar bor edi. Miloddan avvalgi 8 asrga kelib esa shu qishloqlar o'rnida Rim shaharchasi bunyod etilgan. Daryoning baland qirg'og'idagi Kapitoliy tepaligida qurilgan qo'rg'on shaharning markazi bo'lgan.

Qadimgi Rim afsonalarida Rim shahriga asos solinishi Troya urushlari bilan bog'lanadi. Afsonaga ko'ra, Troyani yunonlar xarob qilganlaridan so'ng omon qolgan troyaliklar Eney boshchiligida Italiya sohillariga kelib qoladilar. Lastiya shohi Lotin

Eneyni do'stona kutib oladi. Eney uning qiziga uylanadi. Lotin vafotidan so'ng uning o'rniga Eney podsho bo'ladi. Troyaliklar mahalliy aholi bilan qo'shib, lotin xalqini tashkil etadilar. Eneyning o'g'li Askaniy–Yul ulg'aygach, Alba-Longu degan shaharni barpo qilib, unga podsho bo'lib oladi. Ancha vaqt o'tgach, Eneya shohi ajdodlaridan biri Numitor o'z ukasi Amuliy tomonidan taxtdan ag'darib tashlanadi. Numitorning qizi Silviya bilan xudo Marsdan ikki o'g'il – Romul va Remlar tug'iladi. Amuliy o'z jiyani Silviyaning yangi tug'ilgan o'g'illarini savatga solib, Tibr daryosiga tashlashni buyuradi. Podsho Amuliy, bolalar katta bo'lsa, meni taxtdan mahrum qilib, o'ch olishlari mukin, deb o'ylagan edi. Ichiga bolalar joylangan savat bir daraxtning shoxiga ilinib qoldi. Ularni bir ona bo'ri sut berib boqadi. Keyin ularni bir cho'pon topib olib tarbiyalaydi. Aka-ukalar ulg'ayib mohir jangchilar bo'lib etishadilar. Ular podshoga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, uni o'ldiradilar. Aka-uka shahar buned qilishga ahd qilishadi. Ammo shaharni qaerda kurish kerak va uning hokimi kim bo'ladi,- degan masalada ular o'rtasida janjal ko'tariladi. Janjal vaqtida Romul o'z ukasi Remni o'ldirib qo'yadi. Romul o'z nomi bilan atalgan Roma shahrini o'zlarini cho'pon topib olgan joy yaqinida barpo etib, shaharga podsholik qiladi. Rimliklar yil hisobini o'z shaharlarga asos solingan afsonaviy yildan, ya'ni miloddan avvalgi 753 yildan boshlaganlar. Keyinchalik Rimdagi Kapitoliy tepaligida bolalarni sut berib boqqan ona bo'ri sharifga haykal o'rnatilgan.

Rim va uning atrofida lotin, sabian va etrusk qabilalari yashaganlar. Ular birlashib Rim davlatiga asos solganlar. Bular Rimning qadimgi aholisi edi. Rimning eng qadimgi tub aholisi **patrismiylar** deb atalgan.

Patrismiylar (lotincha «pater» o'zbekchada ota degan so'zni bildiradi) ota-bobolari shaharga asos solganliklari bilan faxrlanib yuradilar. Ular Rimning erkin aholisi bo'lib, ekanligi er yaylovlarga ega bo'lgan jamoani tashkil etganlar. Patrismiylarning har bir oilasi jamoa ekin maydonidan er olib ekin ekar, jamoa yaylovlarida chorva mollarni boqar edilar. Rim patrismiylari dalada ham, uyda ham o'zlari ishlaganlar. Ular uy va dala ishlarida qullar mehnatidan ham foydalanganlar.

Italiyaning boshqa joylardan Rimga ko'chib kelgan odamlar va ularning avlodlarini **plebeylar** deb atashganlar. Plebeylar orasida boy-badavlat kishilar ham bo'lgan, lekin ularning orasida kambag'allar ko'pchilikni tashkil etgan.

Patrismiylar Rim davlatini idora etishda faol qatnashib, unga plebeylarni yo'latmas edi. Lekin ular o'z idora usullarini umumxalq ishi deb bilganlar. Rimda respublika o'rnatilgan bo'lishiga qaramay plebeylar davlat ishlariga aralashtirilmagan, ular siyosiy jihatdan huquqsiz bo'lib qolaverganlar. Plebeylar patrismiylar bilan teng bo'lish va o'z ahvollarini yaxshilash uchun tinimsiz kurash olib borganlar.

Rimdagi patrismiylar bilan plebeylar o'rtasidagi kurash podsholik davridayoq boshlangan edi. Ilk respublika davriga kelib, bu kurash yanada keskinlashdi. Plebeylar davlatni boshqarish, er-mulklardan foydalanish va boshqa ko'p masalalarda patrismiylar bilan teng huquqli bo'lishga intilganlar.

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda plebeylar katta g'alabaga erishganlar. Ular har yili o'zlarining himoyachilari – halq tribunallarini saylash xuquqini qo'lga kiritganlar. Tribunlar veto huquqiga ega bo'lib, u konsullar va senatning plebeylarga zid farmoyishlarini taqiqlab qo'yish huquqiga ega edilar. Tribunning eshigi plebeylar uchun har doim ochiq bo'lib, ular barcha masalalarda tribunga murojaat qilardilar va ulardan

himoya topardilar. Tribunalar tez orada plebeylarning yo'lboshchilariga aylanib, ularning manfaatini ko'zlab hormay–tolmay kurash olib borganlar. Plebeylar o'z yo'lboshlari tribunalar rahbarligida amaldagi xuquqlarni yozib qo'yilishiga muvaffaq bo'lganlar.

Miloddan avvalgi 451 yilda 10 patristiydan iborat hay'at tuzilib, ular qonunlar majmuasini tuzishlari kerak bo'lgan. Ammo hay'at bir yilda bu ishni oxiriga etkaza olmagan. Miloddan avvalgi 445 yilda esa 5 ta plebey va 5 ta patristiydan iborat yangi hay'at saylangan. Ular Rimdagi huquqlar majmuasini to'plab tartibga solganlar.

Miloddan avvalgi 449 yili 12 ta mis lavhaga o'yib ezilgan qonunlar forumga qo'yilgan va qabul qilingan. 12 mis lavhadagi qonunlarining qabul qilinishi plebeylarning katta g'alabasi edi. Qonunga ko'ra, er va mol-mulk xususiy hisoblanib, uni merosxo'rga vasiyat qilib qoldirish mumkin bo'lgan. Miloddan avvalgi 326 yilda plebeylar yangi qonun qabul qilganlar. Qonunga ko'ra «qarz uchun qarzdorning tan-joni emas, mol-mulki javobgar bo'lishi kerak», - deyilgan.

Qarz uchun Rim fuqarosini qul qilib sotish qonunda man qilingan. Ayni paytda plebeylar konsullik lavozimlarni va boshqa mansablarni egallash hamda jamoa ekin maydonida er olish huquqiga ham erishganlar.

Shunday qilib, plebeylarning patristiydakilarga qarshi uzluksiz kurashlari natijasida plebeylar katta g'alabalarga erishganlar. Miloddan avvalgi III asr boshlarida plebeylar Rimning to'la huquqli fuqarolari bo'lib olganlar.

Qadimgi yilhomachilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, miloddan avvalgi VI asr oxirlarida Rimni podsho boshqargan ekan. Ammo podsho rimliklariga ortiqcha jabr-zulm o'tkazib, ularning nafratiga duchor bulgan.

Miloddan avvalgi 510-509 yillarda Rimning mahalliy aholisi qo'zg'olon qo'tarib, o'z podsholarini taxtdan ag'darib, uni quvib yuborganlar. Rimda podsho boshqaradigan hokimiyat yo'q qilingan. Uning o'rniga respublika –ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan kishilar idora qiladigan davlat barpo bo'lgan.

Davlatda faqat patristiydakilardan saylangan barcha magistratlar (mansab egalari) senatga tobe bo'lgan. Senat oqsoqollar kengashidan asta-sekin doimiy davlat muassasasiga aylangan.

Rim ilk respublika davrida polis bo'lgan, ya'ni erkin quldorlaridan iborat fuqarolar jamoasi bo'lgan. Oila (familia) Rim jamoasi hayotida ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Rim aholisi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Don etishtirilgan, tok, zaytun o'stirilib, polizchilik qilingan. Hunarmandchilik podsholik zamonidan boshlab dehqonchilikdan ajralgan. Sopolsozlik, binokorlik rivojlangan. Temir buyumlar ham yasalgan. Savdo-sotiq taraqqiy qilib, miloddan avvalgi III asr o'rtalaridan kumush tangalar zarb qilingan.

MA'RUZA № 13.

Mavzu: Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi

Reja:

1. Qulchilik manbalari.

2. Xo'jalik hayotida qullar mehnatidan foydalanish. Rim jamiyatining ijtimoiy tuzumi.

Adabiyotlar

1. Sanchurskiy N.V. "Rimskie drevnosti". M., 1995.
2. Vinnichuk L. "Lyudi, nravo', obo'chai Drevney Grestii i Rima. M., 1988.
3. Istoriya Evropo'. T. I. M., 1988.
4. Kuzihin V. I. Antichnoe klassicheskoe rabstvo kak ekonomicheskaya sistema. M., 1990.
5. Mayak I.L. Vzaimootnosheniya Rima i italiystev III-II vv. do n. e. M., 1971.

Tayanch tushunchalar

Klassik qulchilik, qul bozorlari, dengiz qaroqchiligi, Delos qul bozori, Qullar mehnati, Qullarni jazolash, Rim quldorlik tuzumi.

Miloddan avvalgi II asrda Rim olib borgan urushlar natijasida O'rta er dengizi havzasidagi mamlakatlarning ko'pchiligi vayron etilib, boyliklari shafqatsizlik bilan talangan. Rimliklar qarshilik ko'rsatgan qishloq, shahar va mamlakatlarning aholisini beomon qirib, qolgan qismini esa harbiy asir sifatida haydab ketib qullarga aylantirganlar. Bosib olingan viloyatlarda harbiylar ketidan qul savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogarlar-qul (jalloblari) ham borganlar. Ular harbiylardan arzon garovga asirlarni sotib olib, Italiya yoki boshqa o'lkalardagi qul bozorlariga olib borib, katta foydasiga sotganlar. Bu hol Rim va Italiyada qulchilikning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratgan.

Dengiz qaroqchilari ham Italiyaning qul bozorlarini qullar bilan ta'minlab turgan. O'sha vaqtlarda Italiya va joylardagi bozorlarda kunida 10-12 ming qul sotiladigan bozorlar bo'lgan. Masalan, Egey dengizining Delos orolidagi qul bozorlarida har kuni 10 mingdan oshiq qul sotilganligini qadimgi yunon geografi Strabon hikoyalaridan bilish mumkin. Rim, Italiya va Yunonistondagi bozorlarda qullarni "jonli buyum" deb ataganlar.

O'rta er dengizi havzasidagi mamlakatlar orasida Italiya qulchilik yuksak darajada rivojlangan davlat edi.

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiq ancha rivoj topgan bo'lib, qullar bu sohalarining hammasida mehnat qilganlar. Ammo juda ko'p qullar qishloq xo'jaligida ishlatilgan. Ular davlatga qarashli erlarda og'ir mehnat qilganlar. Rim aslzodalari katta-katta erkin maydonlariga ega edilar. Qullar aslzodalarning erlarida omoch bilan er haydar, mola bilan tekislar, jo'yak ochar, ekin ekar edilar. Hosil pishganda esa ularning hosilini yig'ishtirib olish, uzumlarni ezib sharbatini olish ishlari bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Rim va undan tashqaridagi oltin, kumush va ma'dan konlarida 100 minglab qullar mehnat qilganlar.

Rim o'z davrining eng yirik dengiz davlati edi. Karfagen bilan boshlangan urush Rimga kemasozlik bilan jiddiy shug'ullanish kerakligini ko'rsatadi. Rimning dengiz bo'yi shaharlaridagi kemasozlik ustaxonalarida bir necha o'n va yuzlab qullar ishlaganlar. Yirik kemalarni 150-200 tadan iborat eshkakchi qullar harakatga keltirganlar. Italiya va Rim shaharlarini, qishloqlarni bog'laydigan yo'llarni, suv inshootlarini ham qullar qurganlar. Demak, qul - urushda asir tushgan harbiylar, engilgan mamlakatlarning haydab kelingan

aholisi, qaroqchilar o'g'irlab ketgan kishilar va qarz tufayli erksiz bo'lib qolgan kishilardir.

Quldor va aslzodalar ko'plab qul saqlaganlar va ishlatganlar. Ularning aksariyati qullarga nisbatan shafqatsiz bo'lib, ularni ayab o'tirmay og'ir ishlarni qildirishgan. Ayniqsa, tog'-kon ishlari qullarni ezib majruh qilib tashlagan. Hosilni ekish va yig'ib-terish vaqtida qullar 17-18 soatlab mehnat qilganlar. Buning evaziga asosan oziq-ovqat va kiyim-kechak olishgan. Hosilning katta foydasini quldor va aslzodalar ko'rganlar. Ba'zi zamindor quldorlar qullarning oyoqlariga kishan solib, ba'zilar zanjirband qilib ishlatganlar. Chunki ular qullarni qochib ketadi, deb hadiksiraganlar.

Yosh, baquvvat kishi bir necha yil qul bo'lib ishlagach, nogiron bo'lib qolgan, unga hech kim g'amxo'rlik qilmagan. Ishga yaramay yoki qarib qolgan qullarni xo'jayin sotib yuborgan, Tibr daryosining kimsasiz, giyoh o'smas erlariga olib borib tashlagan. Ular o'sha erda ochlikdan o'lib ketganlar. Qul o'lib qolsa, quldorlar darhol yangi qul sotib olgan, chunki Italiya qul bozorlarida qullar ko'p bo'lgan.

Quldorlar ko'pincha bir-birining tiliga tushunmaydigan qullar sotib olganlar. Egalari qullarni qo'rqitish maqsadida, ularni qamchilab turgan, badanlariga olov bosgan, oyoq, qo'l, tishlarini sindirganlar. Gunohi uchun o'limga mahkum qilingan qullar tepasiga ko'ndalang taxta qoqilgan tik ustunlarga tiriklayin mixlab tashlangan. Ular qor, yomg'ir, issiq oftob ostida qolib, azob-uqubat tortib o'lib ketganlar. Ammo qullar o'z zolimlariga nafrat bilan qarab ularga qarshi kurash olib borganlar. Qadimgi dunyoning hech bir mamlakatida Rimdagidek, ko'p qul bo'lmagan va ular Rimdagidek, azob-uqubatga tashlanmagan edi.

Rim jamiyatida qulchilikning taraqqiy etib borishi bilan quldorlik xo'jaligi tizimi ham rivojlanib borgan. Aholini faqat urushlarda emas, tinchlik davrida ham qul qilib sotish yo'li bilan jamiyatni qullarga bo'lgan ehtiyoji ta'minlab turilgan. Yoki istilo qilingan viloyatlarga og'ir soliqlar solish, viloyat soliqlarini ulgurjisiga sotib yuborish yo'li bilan katta boylik to'plangan. Viloyatlar solig'ini sotib olib, uni yig'ib oluvchi ijaradorlar ("publikanlar") qatlami shakllangan. Ular soliq to'plashdan 200-400 % gacha daromad olganlar.

Quldorlik xo'jaligini boshqarish, uni yuritishni ham o'ziga xos tizimi yuzaga kelgan. Bu haqda Mark Katon (miloddan avvalgi 234-149) o'zining "Dehqonchilik" nomli asarida ma'lumotlar bergan.

Rim jamiyatida qullarning ozgina qismi o'z ahvolini yaxshilash yo'lini bilgan va xizmatlari evaziga ozodlik olishga erishgan. Bundaylarni "Libertinlar" deyilib, xo'jayinlariga ma'lum darajada qaram bo'lib qolaverganlar. Xo'jayinlar esa o'z xo'jaliklarini idora qilishni libertinlarga topshirganlar. Ularning biri ko'pchilik qismi hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanganlar.

Italiyada quldorlikni rivojlanishi bilan Apennin yarim orolida erkin qishloq aholisining xonavayron bo'lishi jarayoni davom etgan. Bu jarayon Etruriya, Lastiya va Kampaniya viloyatlarida ancha kuchli bo'lgan, unga Sistiya va Afrikadan keltirilgan arzon bug'doy ham sabablardan biri edi.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Rim fuqaroligi asosan ikki ijtimoiy qatlamga bo'lingan. Ularning biri er-mulkidan ajralib xonavayron bo'lgan katta qatlam bo'lsa, ikkinchisi katta miqdordagi moddiy boyliklarni qo'lida to'plab, siyosiy hayotda hukmronlik qilayotgan nobillar va suvoriylar edi.

Miloddan avvalgi II asrning 30 yillariga kelib Rim respublikasi O'rta er dengizi sohilining eng qudratli quldorlik davlatiga aylandi, quldorlik jamiyati o'z ijtimoiy taraqqiyotining to'laqonli darajasiga etdi.

MA'RUZA № 13.

Mavzu: Respublika tuzumining inqirozi va ilk Rim imperiyasi davri

Reja:

1. Rimda harbiylar hokimiyatining kuchayishi. Uchlar ittifoqi.
2. Stezar diktaturasi.
3. Oktavian Avgust davrida Rim.

Adabietlar:

1. Shifman I.Sh. Stezar Avgust. M., 1996
2. Utchenko S.L. Yuliy Stezar. M., 1976.
3. Mashkin N.A. Prinstipiat Avgusta. M-L., 1949.
4. Botvinnik M.N. i dr. Jizneopisanie znamenito'x grekov i rimlyan M., 1988
5. Istoriki antichnosti T.II. M., 1989.
6. Gay Svetoniy Trankvill. Jizn dvenadstaty Stezarey. M., 1988.
7. Plutarx. Izbranno'e jizneopisaniya. T.II. M., 1987
8. Fedorova E.V. Imperatorskiy Rim v listax. M., 1979.

Tayanch tushunchalar

Spartak qo'zg'oloni, Gney Pompey, Stezar Krass, uchlar ittifoqi, Stezar diktaturasi, fuqarolar urushi, Oktavian Avgust, ichqi va Tashqi siesat.

Miloddan avvalgi I asrning birinchi choragida Rim davlatida hoqimiyat uchun kurashlar qizib bordi. Ayniqsa Sharqiy viloyatlarida Pont va Parfiya davlatlari bilan uzoq davom etgan urushlar xalqning tinka-madorini quritdi. Miloddan avvalgi 74-71 yillarda bo'lib o'tgan Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni natijasida ham mamlakatning katta qismi vayron bo'ldi.

Miloddan avvalgi 80-60 yillarda Rim yollanma qo'shining kuchayishi natijasida harbiylarning mavqei oshadi. Urush ko'rgan harbiy arboblardan senatining topshirig'iga binoan alohida-alohida legionlar tashkil qilganlar.

Gney Pompey o'z davrida Rimning eng mashhur siyosiy arboblardan biri bo'lib, o'zining harbiy mahorati bilan rimliklar orasida shuhrat qozongan edi. U senat topshirig'i bilan harbiy flot va quruqlikdagi qo'shinga qo'mondon etib tayinlanadi. O'sha vaqtlarda butun O'rta er dengizda qaroqchilik kuchayib ketgan. Ular dengiz savdosi va kema qatnoviga katta zarar keltirmoqda edilar. Pompey dengiz qaroqchilarga qarshi kurash boshlab, uch oy ichida O'rta er dengizi qaroqchilardan tozalagan. U qaroqchilarning 120 ta

istehkomini egallab, 10 mingdan ortiq qaroqchilarni qirib toshlagan. Shunday qilib, O'rta dengiz havzasida osoyishtalik o'rnatgan.

Pompey Kichik Osiyo, Kavkaz, Suriya va boshqa joylaridagi urushlarda katta g'alabalar qozonib, miloddan avvalgi 62 yilda Rimga qaytib keladi. Miloddan avvalgi 60 yillarda uchta siyosiy asbob - Pompey, Kross va Yuliy Stezar Rimni birgalashib boshqarishga kelishib oldilar. Dastlab ular bir-birlarini quvvatlab ish olib borganlar. Bunday kelishuv I triumvirat deyilgan.

Miloddan avvalgi 59 yilda Stezar Krass va Pompeylarning qo'llab-quvvatlashi natijasida konsulikka saylangan. U konsulikka saylangach, Kross Suriya va unga qo'shi bo'lgan viloyatlarga, Pompey esa Ispaniyaning ikki viloyatiga noib etib tayinlangan. Stezarning o'zi esa Galliya va Illiriya noibi etib tayinlangan. Kross Suriya va Messopatamiyada urushlar olib borib, miloddan avvalgi 53 yilda parfiyaliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi.

Iezar Rimda o'z mavqeini mustahkamlab olgach, o'ziga berilgan Galliyaga jo'nab ketadi. U miloddan avvalgi 58-56 yillarida Galliya tuprog'ida urushlar olib boradi. U Alp tog'lariyu Reyn daryosi sohillaridan Atlantika okeani hamda Pireney sohillarigacha bo'lgan erlarni Rim hukmronligiga itoat ettiradi.

Miloddan avvalgi 55-54 yillarda u Britaniya oroliga ikki marta yurish qiladi. Stezar butun Galliyani bosib olgach, kuchli qo'shin tuzib, juda boyib ketadi.

Iezarning asosiy maqsadi Rimda hokimiyatni egallash edi. Miloddan avvalgi 49 yilda u o'z qo'shinlari bilan Galliyadan Rim tomon yuradi. Rim senati Stezarning butun Rimga hukmron bo'lishini xohlamas edi. Shu tufayli Rim senati qo'shin qo'mondonligiga Pompeyni tayinlab, Stezarga qarshi qo'yadi. Lekin Pompey Rim mudofaasini tashkil etolmay, Bolqon yarim oroliga ketishga majbur bo'ladi. Stezar qarshiliksiz Rimni va butun Italiyani ishg'ol qiladi. U Rimga kelgach, darhol o'zini diktator deb e'lon qiladi. U Rim diktatori bo'lib olgach, uning qo'shinlari miloddan avvalgi 48-45 yillarda Bolqon yarim orolida, Kichik Osiyoda, Suriyada va Misrda katta g'alabalarni qo'lga kiritadi. Bu mamlakatlarning ko'pchiligi Stezarga urushsiz taslim bo'ladilar. Stezar Bolqon yarim orolida Pompey qo'shinlarini tor-mor etadi. Pompey Misrga qochib ketadi. Boshpana izlab kelgan Pompey Misr podshosi tomonidan o'ldiriladi. Pompey o'ldirilgach, Stezar Misrdagi fuqarolar ishiga aralashib, Misr malikasi Kleopatrani qo'llab-quvvatlaydi va hokimiyatni unga olib beradi. Stezar Kichik Osiyoda ham qonli urushlar olib boradi. Pont podsholigini engib uni o'z ta'siriga oladi. Afrikada olib borilgan urushlar ham Stezar foydasiga hal bo'lgan.

Shu davrda Pompeyning ikki o'g'li Ispaniyada Stezarga qarshi katta kuch to'plamoqda edi. Stezar Pompey o'g'illari ustiga qarshi qo'shin tortib ularni tor-mor keltiradi. Bu jang miloddan avvalgi 45 yil Ispaniyaning Mund degan joyida bo'ldi. Ulardan biri jangda halok bo'ladi, ikkinchisi Shimoliy Ispaniya tog'lariga qochib ketadi. Shu bilan Rimdagi fuqarolar urushi nihoyasiga etgan. Fuqarolar urushidan keyin Rimda Stezarning mavqei yanada kuchayib ketgan.

Iezar o'zining zafarli yurishlaridan qaytib kelgach, cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. U o'zini Rimning mutlaq hukmdori-diktatori deb e'lon qilgan. Endi Rim konsullari va senatorlari uning buyruqlarini so'zsiz bajarishlari lozim edi. Stezar imperator bo'lib olgach, saltanatini mustahkamlash uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan. U birinchi navbatda Rim qo'shinlarini kuchaytirgan. Rimda birinchi marta oltin pul-dinorni zarb etgan. Tanga pullarga uning rasmi ham tushirilgan. U o'z nomidan Yuliy taqvimini

ham joriy qilgan. Rimda respublika tuzumi bekor qilinib, Stezarning yakka hokimligi joriy qilingan. Senat uning yakka hokimligini tan olishga majbur bo'lgan va faxrli oltin taxtda-kursida o'tirishga ijozat bergan. Shunday qilib, Stezar katta Rim saltanatining mutlaq humdori bo'lib olgan. Stezarning qudratli imperator darajasiga ko'tarilishida uning lashkarboshilari va askarlari asosiy o'rin tutganlar. Shuning uchun u lashkarboshilari va askarlariga ko'plab qimmatbaho buyumlar va erlar hadya qilgan. Stezar o'z davrining mohir lashkarboshisi va tadbirkor davlat arbobi bo'lgan. U mamlakatda qishloq xo'jaligini, hunarmandchilikni va savdo-sotiqni rivojlantirishga ham katta e'tibor bergan.

Ijzar har qancha mashhur va har qancha ulug' bo'lmasin, uning dushmanlari ham ko'p edi. Uning siyosati va tanho hukmronligidan Rim aslzodalari va senatorlarning bir qismi norozi edi. Stirkdagi tomoshalarining birida Stezarga imperatorlik toji kiydiriladi. Bundan uning dushmanlari g'azabga keladilar. Rim aslzodalar, senat a'zolariga Stezarning tanho hokimligi kerak emas edi. Ular Rimda boshqariladigan respublikani saqlab qolish tarafdorlari edilar. Shuning uchun ular Stezarni o'ldirish payiga tushadilar. Stezarga ko'p marta suiqasd ham uyushtiriladi.

Miloddan avvalgi 44 yilda Stezar sharqqa harbiy yurish uyushtirishdan oldin Yupiter bayrami kuni senat majlisiga boradi. Shu majlisda Kassiy va Brut rahbarligidagi fitnachilar Stezarni o'rab olib, kiyimlari ostiga yashiringan xanjar bilan uni 23 joyidan yarador qiladilar. Butun eri chavaqlangan Stezar shu erning o'zida o'ladi. Qilmishlaridan qo'rqib ketgan fitnachilar vahimaga tushib, Rim qal'asi Kapitoliyga borib yashiringanlar. Shunday qilib Stezarning Rimda yakka hokimiyat o'rnatish uchun qilgan harakatlari qattiq qarshilikka uchraydi.

Ijzar vafotidan keyin uning dushmanlari Rimda va viloyatlarda respublikani qayta tiklash uchun kurash boshlaganlar. Ular Stezar chiqargan qarorlarni bekor qilib, uning jasadini Tibr daryosiga tashlashni talab qilganlar. Stisteron boshchilik qilgan ko'pchilik senatorlar esa Stezar chiqargan qarorlar, farmonlar va ko'rsatmalar o'z kuchida qolib, fitnachilar afv etilsin degan qarorga kelganlar.

Shundan keyin Stezarning jasadi forumda kuydirilgan. Shu erda unga mehrob qo'yilib, uni ilohiy zot deb e'lon qilganlar. Rim aholisining ko'pchiligi fitnachilarni qo'llab-quvvatlamagan. Aksincha, ularning Rimdan ko'chib ketishini talab qilganlar. Rim senatida ikki oqim paydo bo'lgan. Biri Stisteron boshliq respublikachilar bo'lsa, ikkinchisi – Stezarning sobiq yordamchisi Antoniy boshliq stezarchilar oqimi edi. Miloddan avvalgi 40-50-yillarda bu ikki oqim tarafdorlari o'rtasida qattiq kurash davom etgan. Bu esa mamlakatda fuqarolar urushining avj olishiga sabab bo'lgan. Stezar tarafdorlaridan biri Oktavian edi.

Miloddan avvalgi 43 yilda Oktavian, Mark Antoniy va Emiliy Lepidlardan iborat uch lashkarboshi ittifoq tuzganlar. Ular birgalashib, respublikachilarga qarshi kurash olib borish uchun kelishib olganlar.

Ittifoqchilar respublikachilarga qarshi kurashib, Stezarning qotillariga berilgan avfni bekor qilganlar. Miloddan avvalgi 40-yillar oxirida Italiyada respublikachilar va stezarchilar o'rtasidagi kurash kuchayib ketgan. Rim, Italiya va uning g'arbiy viloyatlarida hokimiyat stezarchilar qo'liga o'tgan bo'lsa, qolgan viloyatlarda respublikachilar ustunlikka ega edilar. Mamlakat esa fuqarolar urushi girdobiga tortilgan.

Pompeyning o'g'li Sekot Pompey esa Sistiliya, Sardiniya va Korsika orollarini bosib olgan. Uning floti Italiya qirg'oqlaridagi shaharlarni qamal qilib, Rimga oziq-ovqat keltirilishiga to'sqinlik qilgan. Miloddan avvalgi 42 yilda Makedoniya, Yunoniston,

Kichik Osiyo va Suriya erlarini bosib olgan Brut va Kassiyar sharq tomondan Rimga jiddiy xavf solganlar. Umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun Oktavian Antoniy bilan yarashib olgan. Shu yili Oktavian va Antoniy qo'shinlari ular ustiga bostirib borib, Filipp shahri yaqinida bo'lgan jangda ularni tor-mor qilganlar. Kassiy o'z chodirida o'ldirilgan. Brut esa dushmanlariga asir tushishni xohlamay o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'lgan. Filipp yonidagi jangda respublikachilar qo'shini tor-mor etilgach, Rim saltanatining erlari uchga taqsimlangan.

Antoniy O'rta er dengizining sharqiy sohillaridagi boy va madaniy o'lkalarni olgan. Galliya, Illiriya va Ispaniya Oktavianga topshirilgan. Emiliy Lepidga esa Shimoliy Afrika taqdim etilgan. Italiya umumning boshqaruvida bo'lsa ham, u erda asosan Oktavian hukmronlik qilgan. Uchlar ittifoqi uzoqqa cho'zilmagan. Toj-taxt ularni bir-biriga qarshi qilib qo'ygan.

Antoniy O'rta er dengizining sharqida katta bir davlat tuzishni ko'zda tutib, Parfiya va Midiya ustiga yurish qilgan. Ammo u jiddiy g'alabaga erisha olmagan. U Misr malikasi Kleopatra bilan ittifoq tuzib, Rimga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rgan, hatto u Misr malikasi Kleopatraga uylangan. Antoniyning bu xatti-harakati Oktavianga yoqmagani. Oktavian Kleopatra va Antoniyga qarshi urush e'lon qilgan.

Har ikki tomon urushga tayyorlanganlar. Antoniy o'z flotini Yunonistonning g'arbidagi Akstiya burni yoniga olib kelib, dengiz jangiga shay bo'lib turgan. Oktavian floti va qo'shinlari ham shu erga kelgan. Miloddan avvalgi 31 yilda Akstiya burni yonida qattiq dengiz jangi bo'lib o'tgan. Dengiz jangida Oktavian floti porloq g'alabaga erishgan. Kleopatra bilan Antoniyning floti va qo'shinlari Iskandariyaga chekinishga majbur bo'lgan.

Miloddan avvalgi 31-30 yillarda Oktavian qo'shinlari qishni Italiyada o'tkazganlar. 30 yili Rim qo'shinlari qarshilik uchramay, Suriyani ishg'ol qilib, Falastinga bostirib kirganlar. Shundan keyin Rim qo'shinlari Misrga qarab yurganlar. Antoniy ularning bu harakatini qaytarmoqchi bo'lgan. Ammo rimliklar istehkomlarni yorib, Misrga intilganlar. Shu vaqtda kimdir Antoniyga: Kleopatra o'zini o'zi o'ldirdi, degan xabarni etkazgan. Antoniy o'zini qilich tig'iga tashlab, og'ir jarohatlangan. Jarohatlangan Antoniy o'zini Kleopatra yoniga olib borishni buyurgan. Ammo malika o'lmagan edi. Shu erda Antoniy o'lgan. Kleopatra Rimga zanjirband holda borishdan o'limni afzal ko'rib o'zini o'zi o'ldirgan. Shundan keyin Misr ham Rim viloyatiga aylantirilgan. Shu bilan Rim saltanatidagi fuqarolar urushi ham nihoyasiga etgan. Shu vaqtdan boshlab Oktavian g'oyat katta Rim saltanatining tanho hukmdori bo'lgan.

Oktavian Misrni istilo qilgach, miloddan avvalgi 29 yilda Rimga qaytib kelgan va zafar bayramini o'tkazgan. Mil. avv. 27 yilda senat yig'ilishida imperator unvonini olgan. Rim davlatida miloddan avvalgi 27 yil Prinstipiat tartibini o'rnatgan vaqtdir. Prinsteps – «birinchi kishi» demakdir. U mamlakatni viloyatlarga bo'lib, u elarga o'ziga sodiq bo'lgan kishilardan noiblar tayinlagan. U senatni saqlagan holda davlat ishlarini o'z qo'lida tutib turgan. Oktavian qo'shinga alohida e'tibor bergan. Harbiylarning maoshini oshirgan. Harbiy sarkardalar Oktavian tomonidan tayinlangan. Shu davrda Rim saltanatidagi qo'shinlarning soni 300 mingga etgan. Oktavian dengiz qaroqchilariga qarshi ikkita harbiy eskadra tuzgan. Ular O'rta er dengizida doimo nazorat ishlarini olib borganlar. Lekin Rim respublika deb atalavergan. Rimda senat faoliyat ko'rsatib turgan, ammo senat a'zolarining soni bir oz qisqartirilgan.

Senat hamma vaqt unga yoqadigan qarorlarni qabul qilgan. Senat Oktavianga Avgust – «Muqaddas kishi» degan faxriy nom bergan.

Oktavian Rim davlatini miloddan avvalgi 30 yildan 14 yilgacha mutlaq hokim sifatida boshqargan. U ehtiyotkor kishi sifatida fitnachilardan qo'rqardi, chunki uning qarindoshi Stezar fitnachilar qo'lida halok bo'lgan edi. Senatda u hamma vaqt o'ziga sodiq kishilar orasida bo'lib, kiyimi ichidan sovut kiyib yurardi.

Oktavian Avgust tuzgan davlatda respublika mansablari saqlanib qolgan bo'lsa ham Rimda monarxiya hukmron bo'lib, Rim «monarxiya imperiyasi» deb atalardi. Oktavian davrida Rim monarxiyasi O'rta er dengizi havzasidagi eng kuchli davlat bo'lib qolgan.

Oktavian davlati quldorlik saltanati edi. U o'z faoliyati davomida ko'proq quldorlar manfaatini ko'zlab ish yuritgan. Shuning uchun qullarni asoratda saqlash va ular ustidan nazorat o'rnatishni kuchaytirgan. U tasodifan qul qilingan kishilarni ozod qilishga senat qarorini chiqartirgan.

Oktavian Rim va Italiya shaharlarining aholisiga ko'p homiyliklar qilgan. Shu davrdan boshlab butun Apennin yarim oroli Italiya deb atala boshlagan. Italiyaning Rimdan boshqa shaharlaridagi aslzoda kishilarga ham Rim fuqaroligi huquqi berilgan. Oktavian davrida qurilish, diniy va madaniy ishlarga ham alohida e'tibor berilgan. Rimda 82 ta ibodatxona qurilgan va tiklangan. Oktavian o'zining tashqi siyosatida Rim saltanati va zamonasining aslzodalari manfaatlarini ko'zlab ish yuritgan. U Italiyaning shimoli-sharqiy tomonidagi Italiya va Dunay daryosining boshlarida yashovchi qabilalarni o'ziga itoat ettirgan. Bu davrda Rim saltanatining erlari Ispaniyadan Suriya va Misrgacha bo'lgan maydonlarni egallagan. Ammo joylardagi bu davlatlar va qabilalar Rimga qarshi ko'p marta qo'zg'olonlar qattiqqo'llik bilan bostirilgan. Oktavian qo'shinlari miloddan avvalgi 36 yilda Sekst Pompeyning Sistiliya, Sardiniya va Korsikadagi orol davlatini tor-mor keltirgan. Oktavian hukmronligining oxirlariga kelib Rim davlati asta-sekin zaiflashadi. Shimoldan german qabilalarning hujumi boshlangan. Endilikda Rimning istilochilik urushlariga qurbi etmay qolgan. U o'zini-o'zi arang mudofaa qilib turgan.

14 yilda Oktavian Rim shahri yaqinidagi Nole shaharchasida vafot etgan. Imperator vafotidan so'ng saltanatdagi ahvol yanada og'irlashib ketgan. Koloniya va viloyatlarda katta-katta qo'zg'olonlar boshlangan. Imperatorlikka da'vogar kishilar ko'payib, ular o'rtasida qonli kurash boshlangan.

MA'RUZA № 14.

Mavzu: I- II asrlarda Rim saltanati

Reja:

1. I asr boshlaridagi inqirozli vaziyat. Yuliy-Klavdiylar sulolasi davri.
2. Flaviylar davrida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy ahvoli.
3. Rim saltanatining «oltin davri».

Adabiyotlar

1. Plutarx. Izbranno'e jizneopisaniya. T.II. M., 1987
2. Fedorova E.V. Imperatorskiy Rim v listax. M., 1979.
3. Istoriya Evropo'. T.I. M., 1988.

4. Vinnichuk L. Lyudi, nravo', obo'chai Drevney Grestii i Rima. M., 1988.
5. Slovar antichnosti. M., 1989.
6. Kadimgi dunyo tarixi. II-kism. Toshkent, 1975.

Tayanch tushunchalar

Oktavian Avgustdan keyingi vaziyat. Tiberiy, Kaligula, qulchilik, Klavdiy, Neron, toj-taxt uchun kurash, Vespasian, Tit Flaviy, Domitian, Nerva, Trayan, Adrian, Antoninlar sulolasi. Saltanatning «oltin davri» tushunchasi. Ziddiyatlar.

Oktavianning vafotidan keyin uning o'gay o'g'li Tiberiy imperator bo'lgan. Rimning boy aslzodalari davlat to'ntarishi qilmoqchi bo'lganlar. Ular imperatorlik taxtini Tiberiyning jiyani Germanikka olib bermoqchi bo'lganlar. Ammo Germanik ularning taklifini rad etgan. Fitnachilar harakati fosh bo'lib, tezda bostirilgan.

Tiberiy mamlakatni mustahkamlash uchun qo'shinlarni Rim atrofiga to'plagan. U viloyatlardagi aholi boshiga solinadigan soliqlarni oshirgan. Don, non ulashish va tomoshalar ko'rsatish kamaytirilgan. Bu hol Rim va viloyatlarda noroziliklarning yanada kuchayib ketishiga sabab bo'lgan. Joylarda qo'zg'olonlar boshlangan.

17-24 yillar orasida Shimoliy Afrika, Italiya, Galliya va Frakiyada katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Rim qo'shinlari bu qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostirganlar. Rimdagi aslzodalarning bir qismi imperiyadagi bu ahvoldan foydalanib respublikani qayta tiklashga uringanlar. Rimda Tiberiyga qarshi kuchlar tбора orta borgan. Bu kurashlar uni ruhiy kasallikka duchor qilgan. U hayotining so'nggi yillarini Kapri orolida o'tkazib, 37 yili o'sha erda vafot etgan.

Tiberiy vafotidan keyin senat Germanikning o'g'li Gay Stezarni imperator deb e'lon qilgan. Yoshligidanoq Kaliguli deb nom olgan Gay Stezar imperiyani 37-41 yillarda idora qilgan. U xalq orasida obro' qozonish uchun dabdabali tomoshalar uyushtirgan. Italiyaning jangchilari va kambag'al tabaqalariga Rim fuqarosi huquqini bergan. U imperiya xazinasini behuda narsalarga sarf qilgan. Kaliguli ko'p mamlakatlarga harbiy yurishlar qilgan, keraksiz inshootlar qurdirgan. O'zicha yangi soliqlar joriy qilgan. U o'zini erdagi xudo darajasiga ko'targan. Qarshilik ko'rsatgan senatorlarni jazolab, ba'zilarini qatl qildirgan. U qullarga o'z quldorlari ustidan shikoyat qilish huquqini ham bergan. Bu hol Rim aslzodalari, senat va harbiylar orasida norozilik keltirib chiqargan. Ular Kaliguliga nisbatan fitna tayyorlaganlar.

41 yilda imperator stirkdan saroyga qaytib kelayotganida Palatin tepaligida qatl etilgan. Senat mamlakatni respublika deb e'lon qilishga uringan. Lekin Rim harbiylari bunga qarshi chiqqanlar. Harbiylar Germanikning ukasi Klavdiyni imperator deb e'lon qilganlar. Shundan keyin senatorlar respublikani tiklash to'g'risidagi fikrlaridan qaytganlar.

Klavdiy imperator bo'lib olgach, ozod qilingan qullardan iborat yaqin kishilari va harbiylarga tayanib ish ko'rgan. Ular senat ichidagi fitnachilarga qarshi kurash olib borganlar. Klavdiy oddiy xalqni, viloyatlardagi aslzoda va harbiylarni o'z tomoniga og'dirib olish uchun talay tadbirlar ko'rgan. U ko'proq tomoshalar tashkil etgan, kambag'allarga don ulashgan, idoralarning ishini yaxshilagan. Klavdiy davrida Mavritaniya, Britaniya, Frakiya va Dunay bo'ylari Rim tarkibiga kiritilgan. Klavdiy

podsholigining oxirlarida Bospor podsholigi ham Rimga itoat ettirilgan. Bu davrda Rim qo'shinlari Parfiya bilan ham urush olib borgan. Biroq bu urush natijasiz tugagan.

Imperator Klavdiy oilasida va saroyda fisq-fasodlar, fitnalar avj olgan. Natijada malika Messalina imperatorga suiqasd qilinishda ayblanib qatl qilingan. Shundan so'ng o'zining jiyani, Germanikni qizi bo'lgan Agrippina Kichkinaga uylangan. Bu malika orqasidan kelgan o'g'li Neronni taxt vorisi qilishga Klavdiyni ko'ndirgan. Birmuncha vaqt o'tib, imperator bu qaroridan pushaymonligini aytgach, miloddan avvalgi 54 yilda Agrippina tomonidan zaharlab o'ldirilgan. 17 yoshlik Neron imperator deb e'lon qilingan. Saroyda kurash qizib, Neron o'z onasi, xotini va Britanik degan ugay akasini (Klavdiyni o'g'li) o'ldirtirib yuborgan. Mamlakatda Neron boshqargan yillarda ahvol og'irlashib borgan. 64 yilda Rimda yong'in chiqib, shaharning 14 rayonidan 3 tasi batamom yonib kul bo'lgan. 67 yilda esa Rimda yuqumli kasallik tarqalgan. 68 yilda vaziyat yanada og'irlashib, Rimda ham viloyatlarda ham ahvol murakkablashgan. Neronga qarshi qo'zg'olon boshlangan. Imperator o'zini-o'zi o'ldirishga majbur bo'lgan.

Rim davlatining taxti uchun Galba, Otton, Vitelliy o'zaro kurash olib borib, 68-69 yillarda qisqa-qisqa imperatorlik qilib, taqdirlari fitna va o'ldirilish bilan tugagan. Imperiyada 68-70 yillarda fuqarolar urushi davom etib, Vespasianning imperator deb e'lon qilingan (69 yil 1 iyul). Shundan boshlab Rim tarixida Flaviylar sulolasi (69-96 yillarda) hukmronligi boshlangan.

73 yili Vespasian stenzor lavozimini olib, Rim senatining butun tarkibini ko'rib chiqqan. Qatl qilishlar, surgunlar natijasida senatda aslzodalar kamayib qolgan. U Ispaniya va Galliyadagi eng taniqli, tadbirkor aslzodalardan mingtasini Rimga ko'chirib keltirgan. Ular kamayib qolgan senat a'zolari sonini to'ldirganlar. Uning bu tadbiri katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Vespasian saltanatning moliyaviy qudratini mustaqkamlash uchun soliqlar miqdorini oshirgan. U Neronning Yunoniston aholisiga bergan ozodlik imtiyozini ham bekor qilgan. Vespasian sovg'a, mukofotlar tarqatishda rejali ish tutgan. Faxriylarni er-mulk bilan ta'minlagan. Rimda yangi uy solishni istaganlarga er ajratib bergan. Necha o'n minglab odam sig'adigan katta Kolizey amfiteatri uning zamonida qurilgan. Fuqarolar urushi davrida kuyib ketgan Kapitoliy saroyi qayta tiklangan.

79 yilda Vespasian vafot etgach, uning o'g'li Tit Flaviy imperator bo'lib (79-81 yillar), otasining ishini davom ettirgan, senat bilan hamkorlikda ishlagan. Tit davrida Rim Kolizeyi qurib bitkazildi.

79 yilning avgust oyida Vyozuviy vulqoni otilib chiqqan. Undan chiqqan tutun, kul va bulut Rimgacha etib kelgan. Vulqondan otilib chiqqan lava Pompey, Gerkulanum, Staviy kabi shaharlarni, atrofdagi qishloq va ekinzorlarni bosib ketgan.

81 yilda Tit vafot etgach, Vespasianning ikkinchi o'g'li Domistian imperator deb e'lon qilingan. U otasi va akasi izidan bormay, senat bilan hisoblashmay ish tutgan. Domistian o'z atrofiga chaqimchi va fitnachilarni yig'ib olgan. U odamlarga ko'plab sovg'alar tarqatib davlat xazinasiga katta zarar etkazgan. /aznani to'ldirish uchun boy senatorlar mulkini musodara qilgan. Ayni paytda dehqonlardan don ekishni talab qilib, tokzorlarni kengaytirishni man qilgan.

Bu davrda Rim qo'shinlari Reyn va Dunay daryolarining yuqori qismini, Germaniyaning janubi-g'arbiy qismini bosib olganlar. Ammo Rim qo'shinlari quyi Dunayda yashagan qabilalardan qattiq zarba eganlar. Jangda u goh u tomon, goh bu tomon g'alaba qilgan.

89 yilda Domitian daklar sardori Destebal bilan sulh tuzgan. Sulhga ko'ra daklar Rim chegaralarini tinch qo'yishini o'z zimmlariga olganlar. Buning evaziga Rim imperatorlari ularga pul bilan katta «sovg'a»lar berib turishi lozim bo'lgan. Bu sulh Rim aslzodalari va senatni g'azabga keltirgan. Rimliklar Britaniyada ham og'ir kurash olib borganlar. Domitian qo'shinlari Kichik Osiyo, Kavkaz orti va Kaspiy bo'ylarida muvaffaqiyatsiz urushlar olib borganlar.

Bularning barchasi saltanatning obro'siga katta putur etkazgan. 96 yili unga qarshi fitna uyushtirilgan. Imperator Domitian o'z saroyida fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

Keksa senator Nerva (96-98 yillar) davrida harbiylar qattiq norozi bo'lganlar. Natijada Nerva harbiy sarkardalardan biri Trayanni o'ziga hokimdosh deb e'lon qilgan (96 yilda). Imperator o'lgach davlatni boshqarish Trayan ixtiyoriga o'tgan (98-117 yillar). Bu imperator senat bilan samimiy munosabatda bo'lgan, erkin fikr aytish imkonini bergan.

101 yilda Trayan Dakiyaga urush ochgan. Shiddatli janglardan keyin rim qo'shinlari Dakiya shohi Destebalni taslim bo'lishga majbul qilganlar. Trayan Destebal bilan sulh tuzgan. Dakiyaning ba'zi joylarida Rim qo'shinlari joylashtirilgan. Keyinchalik Destebal sulh shartlarini buzib, Rim istehkomlariga hujum qilgan.

106-107 yillarda Trayanch daklar ustiga qo'shin tortib, ularni tor-mor etgan. Dakiya shohi Destebal o'zini o'ldirgan. Trayan Dakiyani bosib olib, u erda yangi koloniyalar ochgan va u erga Italiyadan odamlarni ko'chirgan. Trayan Dakiyani zabr etganidan keyin, Parfiya urushiga tayyorgarlik ko'rgan.

114 yili Trayan Armanistonga bostirib kirib, uni ishg'ol qilgan. Keyingi yili u Parfiyaga hujum qilib, uning poytaxti Ktezifon shahrini egallagan. Rimliklar Fors qo'ltig'igacha bo'lgan erlarni egallab, ikki daryo oralig'ini Rim viloyati deb e'lon qilganlar.

Ammo 116-117 yillarda sharqiy viloyatlarda ommaviy qo'zg'olon boshlanib ketgan. Parfiyaliklar va qo'zg'olonchilar rimliklarni qirib tashlaganlar. Trayan qo'shinlari asta-sekin mag'lubiyatga uchray boshlagan. Trayan qaytadan kuch to'plash uchun 117 yili Rimga qaytayotib, Kichik Osiyodagi Kilikiyada kasallanib o'lgan.

Trayan vafotidan keyin saltanat taxtiga uning asrandi o'g'li Andrian o'tirgan. U parfiyaliklar bilan yarashishni afzal ko'rgan. Andrian bosqinchilik urushlarini to'xtatib, har qanday janjalli masalalarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga harakat qilgan. U saltanat chegaralarini mustahkamlab, qo'shni davlatlar bilan tinch munosabatda bo'lgan. Andrian davlatni boshqarish va sud ishlarini izga solish uchun idoralar sonini ko'paytirgan. U viloyatlardagi o'lpon va soliqlar to'plash huquqini bekor qilgan. Juda ko'p eski soliqlar, qarzdorlar va boqimandalar kechib yuborilgan. Andrian xo'jayinlarning o'z qullarini o'zlari jazolashni ham bekor qilgan. Qulni faqat sud hukmi bilan jazolash tartibi o'rnatilgan. U saltanat qo'shinini viloyatlardan olingan jangchilar bilan to'ldirib turgan.

132-135 yillarda Yahudiyda Simon boshchiligidagi qo'zg'olon Rim qo'shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Aholisining ko'pchiligi qul qilib sotilgan. Ierusalim o'rnida rimliklarning koloniyasi tuzilgan.

Andrian saltanatning juda ko'p viloyatlariga, xususan Afinaga, Misrga ham sayohat qilgan. Uning davrida Afinada yangi Zevs ibodatxonasi qurilib, Afina akropoli qaytadan tiklangan. Frakiyada esa Andrianopol shahri bino qilingan.

Andrian 138 yilda vafot etgan. Uning jasadi katta maqbaraga dafn etilgan.

Imperator Andrianning farzandlari bo'lmagan. U o'limi oldidan galliyalik Tit Avreliy Antoninni o'ziga voris deb e'lon qilgan. Uning vafotidan keyin Tit Avreliy imperator qilib saylangan. Unga Antonin Piy deb nom berganlar.

U 138-161 yillar orasida Rim saltanatida hukmdorlik qilgan. Antonin Piy davrida Rim qo'shinlari Britaniyada, Mavritaniyada istilochilik urushlari olib borganlar. Rimliklar daklar qo'zg'olonini bostirib, chegaradagi alan va german qo'shinlarining hujumini qaytarib turganlar.

152 yili Misr, Falastin, Rimning boshqa viloyatlarida g'alayonlar boshlangan. Antonin bu qo'zg'olonlarni kuch bilan bostirgan. Aholining kambag'al qatlamiga oziq-ovqat va sharob tarqatilgan. U Parfiya va Bosfor podsholigi bilan tinch-totuv yashagan.

161 yili Antoniniy vafot etgach, taxtga uning o'gay o'g'illari Mark Avreliy va Lustiy Verlar o'tirganlar. Lustiy Ver vafot etgach, Mark Avreliy tanho imperator bo'lib qolgan.

Mark Avreliy davrida imperiya og'ir qiyinchilik ikni boshdan kechirgan. Mamlakat ichkarisida iqtisodiy vaziyat og'irlashib, oddiy aholi qashshoqlashib qolgan.

Parfi podshosi Vologaz III Armanistonni ishg'ol qilgan. Bu jangda rimlik legionlar mag'lubiyatga uchranganlar. Parfiya podshosi Suriyani ham bosib olgan.

Rimliklar kuch to'plab, parfiyaliklarni Armanistondan surib chiqarganlar. Ular o'z hujumlarini davom ettirib, Shimoliy Mesopotamiyani ishg'ol qilib, Ktezifon bilan Salavkiyagacha borib etganlar. Ikki daryo oralig'idan yuqumli kasallik tarqalib, Rim qo'shinining bir qismi o'lib ketgan. Rimliklar sulh tuzib Italiyaga qaytganlar. Bu kasallik Italiyaga ham yoyilib, ko'p kishilarning yostig'ini quritgan.

167 yildan boshlab Dunay ortidagi qabilalar Rim istehkomlariga tez-tez hujumlar qilib turganlar.

172 yili esa Misrda qo'zg'olon boshlangan. Rimliklar katta qiyinchiliklar bilan bu qo'zg'olonni bostirganlar. Shu vaqtda Rimning Suriyadagi noibi Avidiy Kassiy imperatorlik da'vosi bilan chiqqan. Mark Avreliy Avidiy ustiga qo'shin tortib borgan. Qo'shinlar to'qnashmasdan Avidiy o'ldirilgan.

180 yili Rim qo'shinlari va aholi ichida yana yuqumli kasallik kelib chiqqan. Kasallik juda ko'p odamlarning, shu jumladan imperatorni ham o'lim girdobiga tortgan. Mark Avreliy vafotidan so'ng imperiyani uning o'g'li Kommod idora qila boshlagan. U qo'pol, shafqatsiz kishi bo'lib, imperatorlikka layoqatsiz edi. Kommod o'yin, kulgi, tomoshalarga berilib ketgan. U aholiga bepul oziq-ovqat ulashgan va davlat xazinasini ko'kka sovurgan. Ko'p o'tmay, imperiyada va Rimda oziq-ovqat tanqisligi boshlangan. Bu esa aholining barcha tabaqalari orasida norozilik keltirib chiqargan.

192 yilda Kommod fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Shundan keyin II asrning oxiridan boshlab, Rim saltanatida tushkunlik alomatlari ko'rina boshlagan.

MA'RUZA №14.

Mavzu: Dominat davri. G'arbiy Rim saltanatining qulashi

Reja:

1. Dominat tartibining yuzaga kelishi.

2. IV asrda Rim saltanati. Rim saltanatining qulashi.
3. /arbiy Rim saltanatining qulashi.

Adabiyotlar

1. Utchenko S.L. Krizis i padenie Rimskoy respubliki. M., 1965.
2. Korsunskiy A.R. Yunter R. Upadok i gibel zapadnoy Rimskoy imperii i vozniknovenie germanskix korolestv. M., 1984.
3. Svenstistkaya I.S. Ot obhino' k sterkvi. M., 1985.
4. Shtaerman E.M. Sostialno'e osnovo' religii Drevnego Rima. M.1987.
5. Boynazarov F. Antik dunyo. Toshkent, 1989.
6. Istoriya Evropo'. T.I. M., 1988.

Tayanch tushunchalar

Diokletian, dominat, Konstantin, xristianlik, Konstantinopol, bagaudlar, gotlar, Feodosiy, xunlar, vandallar, Saltanatning qulashi.

Rim saltanatida III asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqurlashib ketgan inqirozli vaziyat xo'jalik hayotiga, siyosiy tizimga kuchli ta'sir qilib, keng xalq ommasining noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada esa shimol tomondan german qabilalarining hujumlari kuchaydi. Italiya harbiylari va quldorlari saltanatni saqlab qolish choralarini izlar edilar.

284 yilda jangchilar tomonidan taxtga o'tqazilgan Diokletian imperator obro'sini mustahkamlash uchun saroyda dabdabali qabul marosimlari o'tkazgan. Imperator bilan salomlashganda uning etagini o'pib, dominus – uy egasi, xo'jayin deb murojaat qilish tartibi yuzaga keltirilgan. Shu atamadan olinib, Rim tarixining 284-476 yillar davri Dominat deb ataldi.

Diokletian aslida ozod qilingan qulning o'g'li bo'lib, dastlab oddiy jangchi sifatida xizmat qilgan.

Xizmat yuzasidan o'zini ko'rsatib, imperator soqchilarining boshlig'i qilib tayinlangan. U juda aqlli va ajoyib iste'dod egasi bo'lgan. U davlatni o'zi tayinlagan amaldorlar orqali boshqarib, saltanatda saqlanib kelayotgan respublikaga xos mansablarni tugatgan. Imperatorning aytgani hamma uchun qonun hisoblangan. «Sinchkovlar» deb atalgan ko'plab josuslar Italiyada va saltanat viloyatlarida norozi odamlarga ko'z-quloq bo'lib yurardilar. Diokletian o'zini Yupiterning o'g'li deb e'lon qilgan. Ibodatxonalarga uning haykallari o'rnatilgan. Hamma, hatto aslzodalar ham unga er o'pib ta'zim qilishlari kerak edi. U qo'shinni ko'paytirish va isyonchilarga qarshi kurashish maqsadida varvar qabilalaridan yollanma jangchilar tuzgan. Katta armiyani boqish uchun aholidan olinadigan soliqlar oshirilgan. Imperator isyonchi jangchilarni shafqatsizlik bilan jazolab, qo'shin ichida intizomni bir oz mustahkamlagan. U saltanatni boshqarishda o'zi tayinlagan hokimlarga tayanib ish ko'rgan. Diokletian davrida senat o'z ahamiyatini yo'qotgan, ammo ular aholining eng nufuzli toifasi bo'lib qolavergan. U shahar hayotini tiklash va jonlantirish ishiga ham alohida e'tibor bergan.

Diokletian saltanatni mustahkamlashni ko'zlab bir necha islohotlar o'tkazgan. U saltanatni 12 o'lkaga, ularning har birini esa 114 viloyatga bo'lib chiqqan. O'lkalar va

viloyatlarga ishonchli noiblar belgilangan. U soliq solishni ham tartibga keltirmoqchi bo'lgan. Jon boshiga solinadigan soliqlar qayta ko'rib chiqilgan. Ayni paytda er solig'ining yangi tartibi joriy qilingan. Bu soliqning hajmini belgilashda er, ish kuchi va hayvonlarning soni hisobga olingan. Mamlakatda narx-navoning oshuvi munosabati bilan moliyaviy islohot o'tkazilgan. Biroq moliyaviy islohot narx-navoning oshishini to'xtata olmagan. Diokletianning manixeychilik va xristianlikni ta'qiqlashdagi barcha harakatlari ham behuda ketgan. Imperator saltanat boshiga tushgan inqirozni hal eta olmay hokimiyatdan voz kechishga majbur bo'lgan.

Diokletian hokimiyatdan voz kechgach, imperator hokimiyatini egallash uchun yana qonli kurashlar boshlanib ketgan. Bu kurashda shafqatsiz lashkarboshilardan biri Konstantin g'alaba qilgan (306-337). U sharqiy viloyatlardagi aslzodalar va harbiylarga tayanib ish ko'rgan. Konstantin hokimiyatni bosib olish va qo'lda saqlab qolish uchun hech narsadan qaytmagan, ichgan qasamini buzgan, o'z ittifoqchilarini xiyonatkorona o'ldirgan. Hatto «o'g'lim mening taxtimni egallamoqchi» deb, uni ham o'limga buyurgan.

Konstantin mehnat ahli, qullarga va kolonlarga nisbatan o'ta shafqatsiz edi. U katta er egalarini ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun qullar va kolonlarning ular eridan ketishlarini ta'qiqlab qo'ygan. Qochib ketgan kolon ulab olinsa, kishanga solinib xo'jayin ixtiyoriga qaytarilgan. O' xo'jayinidan qochib ketgan qul tutib olinsa, u qamchi, darra bilan o'lasini qilib kaltaklangan va kishanga solingan. Imperator ustaxona, korxona va konlarda ishlovchi xizmatchilar badaniga qullar singari tamg'a bosishni buyurgan. Konstantin va uning amaldorlari, harbiy boshliqlar dabdabali hayot kechirganlar. Imperator qo'l ostida juda katta qo'shin va josuslar bo'lgan. Ularni boqish uchun juda katta mablag' kerak edi. Bu mablag'lar xalqdan yig'ilgan. Konstantin davrida soliqlarning turi va miqdori oshirilgan. soliq tulashdan bosh tortgan, uni to'lashga qurbi etmagan kishilar kaltaklangan. Fuqarolarning u shahardan bu shaharga ko'chishi taqiqlangan. Har bir kishi o'z kasb-kori bilan shug'ullanib, uni o'z bolalariga o'rgatishi zarur edi.

313 yilda Konstantin xristianlarning oshkora to'planishlari va ibodatxona qurishlariga ijozat bergan. Shundan boshlab imperator va boshqa quldorlar xristian cherkoviga saxiylik bilan er, pul va qimmatbaho narsalar hadya qilgan. Saltanat shahar va qishloqlarida ko'plab ibodatxonalar qurilib, xristian dinining muxlislari orta borgan. Ularning qo'lida juda ko'p boylik to'plangan. Konstantin xristian dinining homiysiga aylanib, cherkov uni avliyo deb e'lon qilgan.

Konstantin Bosfor bo'g'ozi sohilida bir shahar qurdirgan. Qadimda bu joyda yunonlarning Vizantiy degan koloniyasi bo'lgan edi. Imperator bu shaharni o'z nomi bilan Konstantin shahri – Konstantinopol deb atagan. Shahar 10 yil ichida bitkazilgan. 330 yilda saltanat poytaxti Rimdan Konstantinopol shahriga ko'chirilgan. Poytaxtning sharqqa ko'chirilishi katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Imperatorlarnig qo'llab-quvvatlashi natijasida xristianlik keng yoyilib kuchga kirgan. Shundan boshlab ular saltanat aholisi e'tiqod qilgan boshqa dinlarni ta'qib qila boshlagan. Ular ibodatxonalarni vayron qilib, undagi qadimgi xudolarning haykallarini sindirib tashlaganlar. Buzilmay qolgan ibodatxonalarga esa xristian cherkovlari joylashtirilgan. Ana shu ur-yigitlar davrida juda ko'p san'at obidalari er bilan yakson qilingan. IV asr oxirlariga kelib esa Zevsga bag'ishlangan Olimpiya o'yinlarini o'tkazish ta'qiqlangan.

Xristianlar ilm-fanga qarshi kurash boshlaganlar. Ular Iskandariyadagi mashhur kutubxonaning juda ko'p qo'lyozma asarlarini yondirib tashlaganlar, boshqa shaharlardagi

ilmiy asarlar va kitoblarni ham yo'q qilib tashlaganlar. O'sha davrning ko'pgina mashhur olimlari sazoyi qilingan, ba'zilar o'z vatanlaridan surgun qilingan. Iskandariya ko'chalarida xristianlar olomoni mashhur olima Ipatiyani chavaqlab, burda-burda qilib tashlaganlar. Ipatiya ilm-fan yo'lida jaf o'qigan va xristianlar qo'lida vahshiyona o'ldirilgan dastlabki ayollardan biri edi.

Rim aslzodalari va harbiy boshliqlaridan jabr-zulm chekkan kambag'al dehqonlar, kolonlar va qullar g'azabga kelib bosh ko'targanlar. Bunday harakatlar faqat Rimda yoki Italiyada emas, balki chekka o'lkalarda ham sodir bo'lgan. IV asrning 30-40-yillarida Numibiyada, 70-yillarda esa Mavritaniyada juda katta quzg'olonlar bo'lib o'tgan. Bu quzg'olonlar Rim legionlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Ayni paytda Galliyadagi bagaudlar harakati dahshatli tus olgan. Bu harakat III asrda boshlanib, V asrgacha, qariyb 200 yil davom etgan. Bu harakat Ispaniyaga ham yoyilgan. Rimning yollangan qo'shinlari bu harakatlarni og'ir qiyinchilik bilan bostirganlar.

IV asrning ikkinchi yarmida Rim, Konstantinopol, Antioxiya, Iskandariya va saltanatning boshqa shaharlarida tez-tez g'alayonlar bo'lib turgan. IV asrning 60-70-yillarida Rim imperiyasining sharqiy viloyatlari – Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli va Konstantinopol shahrida ham ommaviy harakatlar keng quloch yoygan. Bu harakatlarning barchasi rahmsizlik bilan bostirilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harakatlarning bir qismi Rim saltanatiga qarshi milliy ozodlik urushi bo'lgan. Bunday harakatlarda mahalliy aslzodalar ham faol ishtirok etganlar. Ommaviy harakatlar Rim saltanatining inqirozidan nishona edi.

IV asrning o'rtalaridan boshlab, Rim saltanatida ahvol yomonlashgan. Toj-taxt uchun kurash kuchayib, poraxo'rlik, davlat mulkini talash avjiga chiqqan. Rim qo'shinlarida intizom bo'shashgan. Bu hol tashqaridan bo'ladigan hujumlardan saltanatni himoya qilish ishiga katta zarar keltirgan. Bu davrda eronliklar saltanatning sharqiy viloyatlariga bostirib kirib, shahar va qishloqlarni talay boshlaganlar. Shimoliy Afrikadagi Mavr, /arbiy Evropaning Reyn ortidagi frank va boshqa qabilalar ham saltanatga qarshi hujum boshlaganlar. Ayni paytda Italiyaning o'zida ham mehnatkashlar va qullarning noroziligi tobora kuchayib, saltanat chor atrofdan siqib kelayotgan dushmanlar halqasi girdobiga tushib qolgan.

Shimol va shimoli-sharqdagi varvar qabilalari ittifoq bo'lib Rim saltanatining chegara istehkomlariga tez-tez hujumlar uyushtirganlar. Imperatorlar esa varvarlarning tajovuzlaridan qutulish uchun ularga ko'p miqdorda oltin va qimmatbaho buyumlar berishgan. Yoki katta pul evaziga boshqa jangovar qabilalar jangchilarni yollab o'z chegaralarini mudofaa qilishga majbur bo'lganlar. Imperatorlar bu mablag'larni mehnatkash aholidan undirganlar. Bu hol saltanatda mehnatkash xalq ommasi va qullarning ahvolini og'irlashtirib yuborgan.

IV asrning ikkinchi yarmida ichki Osiyo va Kaspiybo'yi dashtlarida ko'chmanchi xunn qabilalari Volgani kesib o'tib Evropaga bostirib kirganlar. Xunnlar bu erga bostirib kirmasdan 100 yilcha ilgari gotlar nomi bilan mashhur bo'lgan german qabilalari Skandinaviyadan Qora dengizning shimolidagi erlarga kelib joylashgan edilar. Xunnlar yo'lda keta turib, gotlarning ostgotlar deb atalgan sharqiy qismini o'zlariga bo'ysundirganlar. Gotlarning vestgotlar deb atalgan g'arbiy qismi xunnlarning shiddatli zarbalariga bardosh bera olmay Dunay daryosi bo'ylariga chekinishga majbur bo'lganlar. Vestgotlar Rim imperatori Valentdan Meziya va Frakiyaga o'tib joylashishga ijozat so'raganlar. O'n minglab gotlar xotin, bola-chaqalari bilan qayiq va sollarda Dunay

daryosining o'ng sohiliga o'ta boshlaganlar. Daryodan o'tish davrida juda ko'p kishi g'arq bo'lib o'lgan. Gotlar daryodan o'tib Meziya va Frakiya bo'ylab joylashganlar. Imperator odamlari gotlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni o'z zimmalariga olganlar. Lekin ular va'dalarini bajarmaganlar.

Gotlar orasida ocharchilik boshlangan. Rim amaldorlari bundan foydalanib gotlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yuqori bahoda sotganlar, yoki ularni qimmatbaho buyumlarga, qullarga va hatto bolalarga ayirbosh qilganlar. Bu xo'rlikka chiday olmagan gotlar qo'zg'olon ko'tarib, Konstantinopol tomon yo'l olganlar. Imperator Valent saralangan qo'shin bilan gotlar ustiga bostirib borgan. 378 yilda Andrianopol shahri yonida gotlar bilan Rim qo'shinlari o'rtasida og'ir jang bo'lgan. Jangda gotlar g'olib chiqib, Rim imperatori Valent va uning sarkardalari halok bo'lgan. Gotlar, xunn va alanlar bilan ittifoq bo'lib Konstantinopolga hujum boshlaganlar. Yangi imperator Feodosiy (379-395) gotlar bilan sulh tuzib, Italiya kaliti bo'lgan Illiriyani ularga berishga majbur bo'lgan. Gotlar rimliklar qo'shini xizmat qilish majburiyatini olganlar. Gotlarning Illiriyada joylashuvi saltanat uchun ham juda xavfli edi. IV asr oxirida boshqa varvar qabilalari ham Rim chegaralariga yaqinlashib, ularga tahdid sola boshlaganlar. Rimliklar katta boylik berish evaziga ular bilan shartnoma tuzib, ulardan yollanma qo'shin sifatida foydalanganlar. Ko'p o'tmay imperator saroyi va qo'shinidagi nufuzli o'rinlarni varvar zodagonlari va harbiylari egallay ola boshlaganlar.

Varvarlar istilosi Rim saltanatining bo'linib ketishini tezlashtirgan. Imperator Feodosiy o'limi oldidan (479 yil) saltanatni ikki qismga ajratib tashlagan. Bolqon yarim oroli, Misr va Kichik Osiyodagi erlar Sharqiy qismga kirib, unga imperatorning katta o'g'li Arkadiy imperator etib tayinlangan. Italiya, Evropa va Afrikadagi viloyatlar esa /arbiy qismga kirib, unga imperatorning kichik o'g'li Gonoriy imperator bo'lib qolgan. Saltanatning bo'linib ketishi uni yanada zaiflashtirib yuborgan. Shu munosabat bilan /arbiy saltanatning har ikki qismida har varvar aslzodalari va harbiylarning ta'siri kuchayib borgan.

Gotlar /arbiy saltanatning zaifligidan foydalanib Italiyaga uch marta hujum qilganlar. Ularning Italiyaga birinchi hujumi 402 yilda bo'lgan. Ammo vandal sarkardasi Stilixon boshchiligidagi Rim qo'shinlari gotlarning hujumini qaytarganlar. Tez orada Stilixon o'ldirilgan.

408 yili gotlar Alarix boshchiligida Rimga yana bostirib kirib, uni talab qaytganlar. 410 yili Alarix o'z qo'shinlari bilan Italiyaga uchinchi marta bostirib kiradi. Gotlar Rimni bosib olib uch kun talaydilar, so'ng Italiya janubiga yo'l oladilar. Ular o'rta va janubiy Italiy shaharlarini talab vayron qilganlar. Alarix vafot etgach, gotlar Ataulf boshchiligida Rimga qaytib kelib, uni yana talaganlar. Shundan keyin ular Rimni tark etib, Galliya va Ispaniya erlariga borib o'mashganlar. 418 yili Ispaniyada vestgotlar podsholigini tashkil etganlar. /arbiy Rim saltanati qo'l ostidagi o'lkalar birin-ketin uning ta'siridan chiqib ketgan.

V asr o'rtalarida Attila boshliq xunnlar boshqa qabilalar bilan birgalikda Evropaga bostirib irganlar. Sharqiy saltanat hokimi Attilaga ko'p miqdorda oltin berib, xunnlar hujumidan saqlanib qolgan. Shundan keyin xunnlar Galliy tuprog'igacha bostirib kirganlar. Galliyadagi qabilalar rimliklar bilan birlashib, ittifoq tuzib Attila qo'shinlariga qarshi otlanganlar. 451 yili Katalaun degan joyda ittifoqchilar bilan xunnlar o'rtasida shiddatli, vahshiyona va qattiq jang bo'lgan. Xunnlar jang maydonini tashlab o'z qarorgohlariga chekinishga majbur bo'lganlar. Galliya qabilalarining ittifoqi tarqalib

ketgach, Attila qo'shinlari 452 yili Italiyaga bostirib kirib, uning shimoliy shaharlarini talab, Dunay daryosining orqasiga qaytib ketganlar. 458 yilda Attila o'lgach, unga tobe qabilalar qo'zg'olon ko'targanlar. Shu tariqa xunlar ittifoqi ham bahram topgan. Xunlar mahalliy